



O'ZBEKISTON  
YOSHLAR  
ITTIFOQI

**Tursunoy SODIQOVA**

# OILA ILMI



**1591146**

**Y36**

**17**

**C 75 Sodiqova, Tursunoy.**

Oila ilmi : ommaviy-adabiy. - 14 b.

- Toshkent, 2018

**XP - B. p.**

**Tursunoy Sodiqova**

# **OILA ILMI**

**Yoshlar nashriyot uyi  
Toshkent – 2018**

**UO'K 173**

**KBK 87.7**

**S 75**

**Tuzuvchi:**  
**Begmat Ochilov**

**Taqrizchilar:**  
**Shuxrat Jalilov,**  
*"Nuroniy" jamg'armasi*  
*Respublika boshqaruvi raisi*

**Qahramon Quronboyev**  
*O'zbekiston Yoshlar ittifoqi*  
*Markaziy Kengashi raisi*

**Sodiqova, Tursunoy**

Oila ilmi. T. Sodiqova / Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, –  
2018. – 144 b.

Taniqli ijodkor Tursunoy Sodiqovaning ushbu kitobi oila mavzusida. Kuyovlik ilmi, kelinlik ilmi, qaynotalik ilmi, qaynonalik ilmi haqida ta'sirchan tushunchalar beradi. Muallifning mazkur asari keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

**UO'K 173**  
**KBK 87.7**

**ISBN 978-9943-5318-6-4**

**© Yoshlar nashriyot  
uyi, 2018**

## OILA JAMIYAT TAYANCHI

Farzandlarimiz ongida ona Vatanga muhabbat tuyg'usi oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni tinch va obod bo'lishi, avvalambor, o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila hamda mahalla gullab-yashnaydi.

Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor bizning qon-qonimizga singib ketgan burchdir. Xalqimizga xos "Bir bolaga yetti qo'shni ota-onा" degan ibratlari maqol ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa, keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahoti tanbeh berib, to'g'ri yo'lga solgan.

Sir emas, XXI asrda turfa xil hayot tarzi, turli g'oyalar o'rtasidagi raqobat kuchaydi. Hozirgi kunda ko'plab g'arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan olib borilayotgan fitnalar ba'zi millatlar o'zligini yo'qotishi-ga qaratilganini sezish qiyin emas. Bu jarayonda asosiy e'tibor muayyan hududni emas, balki inson ongini egalashga yo'naltirilgan. Shu ma'noda, bugun oila instituti zimmasida o'ta mas'uliyatli vazifalar turibdi.

Elimizning sevimli ijodkori, yoshlarning dono maslahatgo'yi marhum Tursunoy Sodiqovani bilmagan, uning ohanraboday o'ziga tortuvchi maqolalarini o'qib zavqlanmagan kishi yurtimizda topilmasa kerak. Ayniqsa, ijodkorning oila, ota-onা, farzand tarbiyasi, ayol va erkakning oiladagi vazifalari xususidagi kitoblari hanuz katta

qiziqish bilan mutolaa qilinadi, desam, xato bo'lmaydi.

Qo'lingizdagi kitob "Nuroniy" jamg'armasi respublika Boshqaruvi hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi hamkorligida marhum ijodkor T. Sodiqovaning turli yillarda nashr etilgan "Qaynotalik ilmi", "Qaynonalik ilmi", "Kuyovlik ilmi", "Kelinlik ilmi" kabi risolalari asosida tayyorlanib, chop etildi. Ushbu mo'jaz asar oila atalmish muqaddas qo'rg'onning maqsad va vazifalarini chuqurroq anglashga yaqindan yordam berishiga ishonchim komil.

Eng muhimi, kitob yurtimiz viloyatlari markazlari, tuman va shaharlarda qad rostlagan "Nuroniylar maskani" javonlaridan muqim joy olib, jamiyat hayotida faol va jonkuyar bo'lgan keksalarimizning ma'naviy dunyosini yanada boyitishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

**Shuxrat Jalilov,**

"Nuroniy" jamg'armasi

Respublika boshqaruvi raisi.

**Qahramon Quronboyev**

O'zbekiston Yoshlar ittifoqi

Markaziy Kengashi raisi.

## OTALIK MAS'ULIYATI

### Birinchi duo

– “Uvali-juvali bo’lsin, o’zidan ko’paysin!”

Chaqaloqqa dunyoga kelgan zahoti beriladigan birinchi duo shu! Bandaki bor, bag’ir berib tilagani – farzand. U tug’ilgan zahoti oyog’ing zaminga mahkam joylashganday bo’ladi. Darvoqye, kishini bu dunyoga bog’lab turadigan jon rishtasi ham u. Unda o’z hidingni tuyasan, naq o’zingning takroringni ko’rasan, u sening davoming, insoniyat zanjiri uzilib qolmasligi uchun, joningdan yasab, ismingni yozib qo’shayotgan halqang! Bolangga ko’zing tushgan zahoti ko’nglingga ishq tu shadi. Ota-onal uchun bola jami borliqdan ortiqdir. Dun yoning hamma rangi, hamma ta’mini unga ilina boshlaysan. Bamisli bo’g’zidagi yemakni bolasiga tutgan qush kabi, o’z nafsing, manfaating chetga surilib, shu bir parcha et birinchi o’ringa chiqadi va bori-budingni unga tasadduq qilishga tayyor turasan!

Bolaning sharofatini ko’rdingmi, o’g’lonim! Shugina go’dak tufayli, sen birov uchun kuyishday buyuk fazilat ga ega bo’lmoqdasan, senda fidoyilik bino bo’lmoqda, bu yuksalishdir, bu ulug’lanishdir, bolajon!

Seni ulug’lik sari yo’llagan shu otaliging muborak bo’lsin! Farzand tufayli vujudga kelayotgan yangi sulola ga sardorliging muborak bo’lsin!

### **Niyat qilishni bilish ham ibodat!**

“Hamma narsa niyatga bog’liqdir” deyiladi Qur’oni karimda. Ota bo’lgan zahoting niyatni baland ol! O’g’lo-

nim, niyat qilishni bilish ham ibodat! Yaxshi tilak sendan taralayotgan sharofatli nur. Bu nur o'zingni ham, bolangni ham nurlantiradi, xujayralarida qutlug' amallar una boshlaydi. "Niyat ketgan-da!" degan gapni eshitgansan. Ota-oni tilagi, duosi bolaning qismat yo'llarini belgilishi mumkin.

Tog'larga qarab, Yaratgandan bolangga tog'lar day oriyat tila! Bog'larga qarab, fe'llariga sahovat tila! Hayotning eng chiroyli tomonlarini top va bolangning qismatiga o'shalarni ilin! Yaxshilarni ziyorat qil, ismlarini ko'chirib, bolangga qo'y, fotihalarini ol. Tulpirlarga qarab, o'g'lim chavandoz bo'ladi degin! Osmonlarga boqib, qizim oyday to'ladi degin! Yaxshilarni qidirib qol, bolangni qo'shgani! Atrofingni tuzashga tush, ko'zlarini quvontirgani! Teraklarni ekib tashla, imoratlar solgani! O'g'lonim, bolang- sening isming bilan tug'ilgan bir yangi mamlakat, sozlan, yaxshilan, kuchlan, dunyo bo'lib uni kutib olgani!

### Bolang - dunyoning bo'lagi

Farzand ko'rgan zahoting Yaratgandan ixlos bilan so'ragin, seni otalikka munosib etsin! Ota bo'lmoq uchun senga ma'naviy huquq bersin! Bolang ham sening misolingda haqiqiy otani topsin! Tug'ilgan har bir go'dak bu ko'hna dunyoning yangi bir bo'lagi, sen esa uning sifatiga javob beradigan egasisan. Agar egalikni o'rniqa qo'ya olsang, dunyoning shu bo'lagi yashnab-yarqiraydi, odamlarning roziliginini olasan. Ammo otalikni uddalay olmasang, bolang jamiyatga kasallik bo'lib kirib boradi. Bir betarbiya odam tufayli, dunyoning bir parchasi ziyon ko'radi. Unda sen zararkunanda nasl bergen shumqadam sifatida nazardan qolasan. U kundan Xudoning o'zi asrasin!

O'g'lonim, o'zingdagi go'dakni senga ishonib topshirilgan JAMIYAT deb bilgin, DUNYO deb ehtiyyotini qil!

### **Bolang ko'rib turibdi!**

Onam hikoya qilgandilar: bir ayol bolasi olti oylik paytida qo'lidagi uzugini yo'qotib qo'yadi. Bola to'rtbesh yosh bo'lgach, gap oralab, o'sha uzuk yana eslana-di. Shunda bola ziyrak tortadi-da, "Uzuk mana bu yerda" deb avrazni (toshkentliklar "xannik"deydilar) ko'rsata-di. Kovlab, uzukni o'sha yerdan topadilar. Qadimda avraz hammaning uyida bo'lgan, poygakning bir chetidan o'ra qazilib, tangaday ko'zi qolguncha chiroyli suvab berkitilgan va u yerdan bet-qo'l yuvish uchun foydalilanilgan. Taajjubki, bola olti oylik chaqaloq paytida o'ynab otib yuborgan narsasini qayerga tushganini eslab qolgan!

O'g'lonim, ota bo'ldingmi, xushyor bo'l! Ro'parangdagi bola emas, yoqimtoy dushman – hamma yaxshi-yomoningni xotira tasmasiga bexato yozib boradi!

### **Avval o'zingni risolaga solmasang bo'lmaydi!**

To'nglik, baqirib-chaqirib gapirish ko'proq erkak-larga xosdir. Bilib qo'yki, bolani "Ha, bu bola-da, nima-ni bilardi?" deb bo'lmaydi, hatto mushtdek bolada ham tahlil-tafakkur va kayfiyat bor. E'tibor bersang, qo'l cho'zilgani bilan bola hammaga ham boravermaydi, xush ko'rinsanggina kulib qaraydi. Uning yig'isi, injiliklari-bari senga, atrofga bo'lgan e'tirozlaridir. Kayfivating qanday tursa, bolaga shunday yuzlanishga aslo haqqing yo'q. Oldin o'zingni majburlab bo'lsa-da risolaga solib, unga botmaydigan tarzda muomala qilish zarur.

O'g'lonim, o'zing xolis ayt, senda qachon siqladi-gan, uyga kirging kelmaydigan, ota-onangni bot-bot

yomon ko'radigan holatlaring bo'lgan? Qachonki, o'rni kelsa- kelmasa, jahl bilan senga baqirganlarida, er-xotin urishib turib, seni ham siltab yuborganlarida, holating bilan hisoblashmay tanbeh berganlarida! Shunday emasmi? O'shalarni esla va bolangga bilib muomala qil. Qulog'ingda qolsin, ota-onasidan chiroyli muomala ko'rmay o'sgan bola katta bo'lsa, johil, bemehr odamga aylanadi, bundaylardan faqat baxtsizlik tarqaydi, o'g'lim!

### **Nasihating qachon o'tmay qoladi?**

O'zini tutolmay, ayoliga qo'l ko'tarayotgan yoki og'zidan bodi kirib-shodi chiqib so'kinayotgan erkakni yaxshilab kuzat. Undan ozor yeyayotganning ahvolini ko'r. Atrofdan olayotgan qarg'ishlariga guvoh bo'l! Va uning o'rniga bir zum o'zingni qo'y, tasavvur qilki, shu sen! Hamda bu kepatangni bolang ko'rib turibdi deylik!

O'g'lonim, agar bolangning ro'parasida shu ko'yga bir marta tushgan bo'lsang ham, kezi kelib, unga nasihat qilolmay qolasan! Aybini aytding deguncha, ichida ustingdan kulaveradi. Ko'zлari "o'zing-chi?" deb turavera-di! Seni hurmat qilmay qo'ydimi, unga nasihating toshga suv sepganday gap! Qani ayt-chi, o'zingning bolangni o'zing yetaklay olmasang, kim bo'lding endi?!

### **Farzandli bo'lish aziyatli bo'lishdir**

Bizda otalarining ishini ko'rsatib, bolalarini tarbiyalab kelganlar. Bu ona uchun, ayniqsa, faxr bo'lgan. Bolang haqida havas bilan "ota o'g'il" desalar, ota uchun ham har qanday mukofotdan yuqoridir! "Otlar o'rnini toylar bossin" deydi xalq. Ilohim, hamisha shunday bo'lsin!

Atrofdagi hamma yaxshi odamlar yaxshi insonlar-ning farzandlaridir. Ammo gohida tappa-tuzuk oila va

durust hisoblangan kishilarning bolalarini noma'qul yo'llarda ko'rib qolamiz. Nega shunday?

Masalan, o'zлari xo'p yaxshi inson-u, ammo ichkilikka ruju qo'yganlar xususida: mast holatda, hatto keksa onasi-yu bolasiga beodob baqirayotgan, idish-tavoq sindirayotgan erkakni, o'zini yo'qotib, jo'ralari o'likday ko'tarib kirayotgan yoki uyida ham, mehmondorchilikda ham beo'lchov ichganidan har gal behuzur bo'lib, boshini paqirdan ko'tarolmay qoladigan erkakni bir zum o'zing deb bil va bolalarim ko'rib turibdi deb faraz qil! O'g'lonim, qani ayt-chi, erta-indin yaxshi ko'rgan o'g'ling ro'parangda, elning oldida shu basharada tursa, iztirob chekmaysanmi? Yoki shu turishdagi odamga kipriklaringga qo'yib o'stirgan qizing yo'liqishini istarmiding?

Farzandli bo'lish aziyatli bo'lish demakdir! Ya'ni: ming fe'ling yaxshi bo'lib, bittasi chatoq bo'lsa ham kuning qaltis! Qaltisligi shuki, seni kuzatib, izma-iz o'sib kelayotgan bolang talay fazling bir chetda qolib, o'sha birgina xatoingni ilib olishi mumkin. Sening mingta yaxshi tomoning unutilib, birgina xatoing bolangga ko'chib tursa, birgina ichib qo'yishing bir umr yiqqan ilm-u tajribang va husni kamolingni beobro' qilsa, ahli ayolingga yedirayotgan bisyor rizq-u, kiydirayotgan kimhob-u atlasingni tatittirmasa, alam qilmaydimi?!

Ota bo'lган o'g'lon, qo'rq, bitta xato ish qilishdan ham qo'rq, bolang ko'rib turibdi!

### **Farzandlaringga rahm qil!**

Bolalaringga faqat halol luqmani yedir! Mehnatingga rozilik bilan berilgan haqnigina ol. Bilgil, birovning haqi, norozi qilib olingan mol o'zingga ziyon keltirmaydi, ammo bolangning bittasini o'g'ri qiladi, kazzob qiladi yoki yaxshi bir bolangni fojiaga yo'liqtiradi! Farzandlaringga rahm qil, o'g'lonim!

## **Agar millioner bo'lsang ham ...**

O'g'il bolaning javobgarligi otaning bo'ynida. Yoshlikda qilgan xatolarining bolangda takrorlanishigi aslo yo'l qo'yma, otang senga o'rgatmaganni sen bolangga o'rgat. Bu bir tomonidan otang ikkingizning gunohlariningizni yuvadi. Qolaversa, bolangdan boshlab sulolang yaxshilanadi.

O'g'ling birinchi sinfga borgan zahoti maktabdan tash-qari vaqtlarini bo'sh o'tkazma. Nomina millioner bo'lsa ham, bolangga hunar o'rgat. O'rta maktabni bitirguncha, mahallangdagi hunarmandlarga shogird tushir. Nonvoylik, sartaroshlik, qassoblik, kosiblik, duradgorlik, oshpazlik ilmlarini ikki yil-ikki yildan kuzatsa ham, bola pishadi. Avvalo, odamlar bilan muomalani o'rganadi, mehnat azyat ekanligini, pulning qadrini biladi. Erkakning boshiga nimalar tushmaydi deysan, hunarga qo'li kelib qolsa, taqdir - palaxmon toshi, uni qayerga otsa, och qolmaydi, ahli ayolini ham xorlikka qo'ymaydi. Vaqt kelib, uy tutib, eshik ochganda, bolg'a-kosov ushlashni, igna, kapkir tutishni bilib olsa ham har-na! Bolasining sochini o'zi tekislab qo'ysa ham qancha yaxshi! Muhimi, ro'zg'orning hamma koriga yaraydigan epli erkak bo'ladi!

## **Asosiy burching ...**

O'g'lonim, niyat qilib qo'y, Xudo hamyoningga baraka bersin va bolang bog'chadan chiqmay turib, uning qobiliyatiga qarab, maxsus tarbiyachi-o'qituvchilar yollagin. Sen buyuk Sharqning bolasi ekanliging, dunyoni tebratib turgan ilmlar asosan Sharqdan taralgani yodingda tursin! Shunga ishonki, sening bolang xujayralarida ham bu ulug' zamin xosiyatlari mudrab yotadi. Ota-onaning Allohoji-yu bandalarining oldidagi muqaddas burchi shu iste'dodlarni uyg'otmoq, tikkalamoqdir. Ota-buvalari-

miz intiqlik bilan, yaxshi muallimlarni shaharma-shahar yurib daraklab, bolalarini mushtdekligida ularning etagiga solganlar. Ustoz-shogirdlik munosabatlari bizda muqaddas sanalgan. Ustozlarning obro'si shogirdlar-dagi hosilaga qarab belgilangan. Shu bois, muallimlar fidoyilik bilan tahsil bergenlar. Sharq shu tarzda ravnaq topgan. Xalq shu bois, ustoz degan zotni boshiga qo'ygan va hanuz "Ustoz- otangdan ulug'" degan gapni farzandlariga uqdirib keladi.

Razm soldingmi, o'g'lonim, otalikning mas'uliyati bolasiga nomi jaranglagan diplom olib berish emas, uni haqiqiy ilmli, hunarli qilib qo'yishdir.

### **Farzanding himoyaga yarasin!**

Sharqning hatto qizlari ot minganlar, kamon otishni, suvda suzish, daraxtma-daraxt yurishning usta-si bo'lganlar. Chavgon asosan qizlar o'yini bo'lgan. O'g'lonim, o'g'ling bilan bab-baravar qizingni ham jismonan pishitish payida bo'l. Ertangi avlodning sifati bugungi qizlarning ahvolotiga bog'liq.

O'zining himoyasiga yaraydigan odam bola-chaqaga kelgan xatarni daf qila oladi, o'z ostonasini asray olsagina, vatan himoyasiga yaraydi. Bolalaringni juda yoshlidan sport turlariga qatnashtir. Xonadoningda ham bir qator sport anjomlari va shug'ullanish imkonlari bo'lsin.

Aynan shu ishlar otaning vazifasidir.

### **Bilansanmi, yigitning sarasi kim?**

O'g'lonim, o'g'loningni maktabga kirgan zahoti har bozor borarda yoningda olib yur. Narsa tanlash, sav-dolashish ilmini, bozor muomalasini o'rgansin. Qishning g'amini yozda yeyish yo'llarini tushuntirib bor,

zahiradagi sabzi-piyoz, un-guruchlarni saqlash sirlarini yoshlidan uqdir.

Har bahor, har kuzda ko'chat bozorlarini aylantir. Bog'bonlarning so'zlariga qulqoq tutdir, toki bog' ishiga ishqi tushsin. O'g'lon bolam, yuragingga tugib qo'y, YIGITNING SARASI BOG'PARAST BO'LADI VA IMORAT SOLADI! Ko'chat ekkanlaringni, hovlingning hali u yerini tekislab, hali bu yerini oqlab, bo'yab yurishlaringni bolang ko'rib tursin. Shundagina sen yashagan joylar sendan keyin vayronaga aylanib ketmaydi!

### **Og'a-inilar bir-birini qachon suymay qoladi?**

Qachon ular hatto bir-biriga dushmanqa aylanishgacha boradi?! Qachonki, o'rtaqa ayollar tushgach va yana, ota-onalarning bolalarga noto'g'ri munosabatlaridan so'ng! Bandasini go'rida ham tinch qo'ymaydigan narsa o'zidan tarqaganlarning o'zaro noittifoqligidir!

O'g'lonim, ota-onalik - zargarlikdan ham nozik ish. Hech qachon ukasining oldida akasini so'kma. So'kish eshitish – uyatlari holat. Shu holatiga guvoh bo'lib qolgani uchun, ukasini yomon ko'rib qoladi. "Ukang yo akang sendan ming marta yaxshi, ishni falonchilardan o'rgan" qabilidagi tanbehlarni aslo aytma! Bolada o'sha jigarlariqa nisbatan g'ayirlik paydo bo'ladi! Hech qachon farzandlaringni birini biridan ortiq ko'rma va alohida ajratib maqtayverma. Boshqalarida o'ksinish paydo bo'ladi. O'ksinish ma'lum darajada sinishdir. Bu ham bolalar orasida zimdan nizo tug'diradi.

Hadisi sharifda: "Bolalaringizga xurmo sovg'a qilsangiz ham, teng taqsimlang. Agar biroviga bitta ortiq bergen bo'lsangiz, qaytib oling va uni yana teng bo'lib taqsimlang"-deyiladi.

Farzandlar o'zidan o'zi yomon-yaxshi bo'lib qolmay-

di. Ularning fe'li ota-onalar qilgan savob-gunohlar yoki ular berayotgan tarbiyaning to'g'ri-noto'g'riliqi natijasidir! Bolalarni birini biriga yomonlamaylik, biriga qanday tanbeh berganimizni ikkinchisi eshitmasin. Ular-dagi kamchiliklar bizning kasrimiz tufayli paydo bo'lgani uchun ham, ayblarini uyalib yurib, ichimizda uzrlar so'rab yurib, og'riqsiz bartaraf qilishning payida bo'laylik.

### **Ishing isitish bo'lsin**

O'g'lonim, farzandlaring ibrat olsin uchun ham (aslida-ku burching!), og'a-inilaringga oqibatli bo'l. Ular uchun bezovta bo'layoutganiningni, qay tarzda hol so'rash-laringni bolalaring ko'rib turishsin. Ayniqsa, egachi-singillarga otalik qilish erkak jigarning bo'ynida ekanligini o'g'lilaringga uqdirib bor.

Bolalaring bir-biriga sovg'a-salom ilinsa, o'zaro meh-ribonlik ko'rsatsa, rag'bat ber, oilaviy quvonch deb bahola. Kuchlisini zaifrog'iga posbon sayla. Ishing farzand-laringni bir-biriga isitish bo'lsin!

### **"Ota o'g'il bo'l" deymiz ...**

Birodar, Sharqning taomili shunday, sharif hadislar ham deydiki, "Erkak oilada bиринчи rahbardir". Otabobolarimiz bu udumga jiddiy rioya qilganlar va o'g'il bola zotiga yoshligidan talabni qattiq qo'yganlar. Hunar o'rgatuvchi ustozlar ham, maktab mudarrislari ham, ota-onalar ham yigitchilik ilmini uzliksiz singdirib borganlar. Erkak uyning qo'rg'oni, to'rt tarafdan keladigan yaxshi-yomon kunlarda oilaning balogardoni bo'lgan. Unga yukunganlar, unga suyanganlar. Undan o'rganganlar, unga maslahat solganlar. Chunki ularning ma'naviy bilimi, qo'lidan keladigan ishlari shu darajotda bo'lgan.

Onalar esa juftlarining bo'ylarini farzandlariga ko'rsatib, "Otangizga o'xshang, ota o'g'il bo'ling" deb tarbiya berib kelganlar.

Ammo bugun ishdan kela solib ag'anab yotadigan yoki kunda shirakayf kelib dunyodagi eng xunuk, eng uyatlari tomoshalarni ko'rsatadigan, yo choyxona-yu oshxonadan beri kelmaydigan erkak o'z bolasiga nimani o'rgatadi, to'g'rirog'i, u shu turishda murabbiy bo'lishga haqlimi?! Eri bo'la turib, ro'zg'ordagi erkakcha ishlarni doim o'zi bajaradigan ayolning o'g'li nimani ko'rib o'syapti?! Derazasining singan ko'zi bir yildan beri qo'yilmayotgan, uyi o'n yildan beri oqlanmagan, hovlilarini tikon bosib ketgan yoki suvining jo'mragi bir yildan beri buzilib yotgan erkakni ko'rsatib, yaxshi o'g'il tarbiyalab bo'ladimi?

Birodar, aytинг-chi, bolaning otasi tirik tursa, ammo uni bu turishda ibrat uchun ko'rsatib bo'lmasa, bu balolig' kunda ona nima qilsin, "Bolam, otangning aybginalari bor, sen xo'v Faloniya o'xshagin" deb, bolasiga qo'niqo'shni, mahalla-ko'ydagisi begona erkakni ko'rsatsinmi?! Eng baxtsiz ayol, eng baxtsiz farzand shu emasmi?

### **Ko'ring va qo'rqing...**

Ilm – nur, bolangiz nurni qabul qilib oладиган zamin, makon. Shu zamin TOZA bo'lsagina nur singadi, undan bog' unadi, yo'qsa, alafzor bo'ladi. Shu zaminning bog' bo'lishi uchun uning egasi sifatida, hurmatli ota, bolangizni nima bilan sug'orib, nima bilan oziqlantiryapsiz? Siz halol yo'l bilan pul topyapsizmi? Savdoda, oldi-berdi-da odilmisiz? Siz olib kelayotgan rizqda birovning haqi yo'qmi? Bolangiz birov norozi bo'lib bergen "sovg'a"ni kiymayaptimi? Sudxo'rlik bilan topgan foydangizni to'y, ehsonlaringizga aralashtirmayapsizmi? Agar shunday

xatolaringiz bo'lsa, ming dod soling, ming sakrang: bo-langiz – ifloslangan zamin, tarbiyani qabul qilmaydi! O'nta mamlakatda tahsil olsa ham, oxiri voy bo'ladi, ammo baxtsiz bo'ladi. Yashayveradi, ammo dardmand bo'ladi. Baxtli, sog'lom bo'lishi mumkin, ammo Yaratgan uni bag'ritosh qilib qo'yadi, kuch-quvvatdan ketgani-ngizda sizni mehrga, muruvvatga zor qiladi, xor qiladi!

Bu mening to'xtamim emas, dunyoning, yashashning falsafasi shunday. Atrofga yaxshilab qarang, chor atrof isbotga to'lib ketgan! Ko'ring va qo'rqing!.

### **Orada rizolik bo'lsin**

Ixlos qo'yib, qiynalib qurgan uyingiz, to'plagan mol-dunyoingizni sizdan keyin bolalaringiz talashib, sudlashib, sharmandalarcha xomtalash qilmasin desangiz, og'a-ingiz bilan hovli-joy, meros talashmang. Aksincha, ularni uylit-vatanlik bo'lishlari uchun yordamlashing, ular muruvvatingizni bilsa ham, bilmasa ham, topgani-ngizdan bir bo'lagini (ortinganingizni) jiqlariringizga ilining. Ha deb ayolingiz va bolalaringiz atrofida aylanav-ermay, qishloq-qirimlarda qolgan qondoshlarining uchun ham bezovta bo'ling, borib diydorlashib turing! Va bu ishlaringizni bolalaringiz ko'rib tursin. Ota-buvangiz o'tgan joylarni ularga ziyyaratgoh deb uqdiring, go'dakligidan yetaklab olib boring, mehrini bog'lang. Buni o'tganlarning ruhini shod etish deyiladi. Evaziga esa farzandlaringizda imon uyg'onadi, vijdon uyg'onadi. O'zingiz ikki dunyo saodatiga ega bo'lasiz, inshoollo!

Siz gaplarimni malol olmang, ensangiz qotmasin, ming bir bahona aytib, o'zingizni oppoq ko'rsatmang. Hamma o'zi uchun yashaydi, men dunyoga bir marta kelaman, deydig'an bo'lsangiz, erta o'tib, indinga o'ng tizzangizga birini, so'l tizzangizga yana birini o'tqizib

katta qilgan, joningizning ikki pallasi - o'g'il-qizingiz siz tirik turib, bir-birlaridan tonib ketadilar. Ota-onasining o'limida ham ters qarashib, xo'mrayishib fotihachi kuza-tadigan xudobexabarlar yo'q deysizmi!

Jon o'zingizniki, dunyodan o'shanday azoblar bilan ketmayin desangiz, yaroqli paytingizda og'a-inilaringiz ko'nglini va rizoligini olib qoling, birodar!

### **O'g'illarini nega "siz"laydilar?**

Andijonda o'z farzandlarini chaqaloqligidan sizlab gapiradilar, ayniqsa, o'g'illarini! Buni bugungi andijonlik o'ylab topgan emas. Uning zamirida bir hikmat borki, mazkur udum allaqachonlardan beri yashab kelyapti. Bu "Siz o'g'lonsiz, bolam. Oilani tikkalab turguvchisiz. Siz borsiz, demak biz xotirjammiz, sizni hurmat qilmay, kimni hurmat qilaylik" degan ishora emasmi? G'urur, or tarbiyasi shu emasmi? Bunday e'tibor bolada "sizlanish"ga loyiq bo'lishga harakat uyg'otmaydimi?

Bola birovni ayashni ham, mehr-sadoqat ko'rsatishni ham, erlik, ayollik ilmini ham asosan uyidan oladi. Siz - novda, bolangiz g'unchangizdir, birodar!

### **Oriyatdan ayrilgan inson emas!**

Bir yig'indan chiqib kelayotsam, qirq bilan ellik o'rta-sidagi devqomat bir erkak juda mustar holda, maslahatlik ishi borligini aytdi. Chetroqqa chiqib eshitib ko'rdim. Uning puldor o'tgani, dunyoda eng sevgan mashg'uloti pul topish bo'lgani, o'ldirsa ham pul o'ldirsir deydigan-lardan ekanligi shundoqqina ko'rinish turardi. Ma'lum bo'ldiki, u uyidan chiqib ketgan. Va nima uchun chiqib ketish sabablarini aytta ketdi! Sanog'i yo'q pullar top-gani, ayoliga oltin idishlarda ovqat yedirib, zarlarga

o'rab, yer sharida uni olib bormagan birorta qimmat kurort qolmagani va hokazolarni ipga tizganday sanar edi. Va "Menday erdan ajrashishi nonko'rlik emasmi" deya bo'g'ilardi. ( Mening esa ko'nglim behuzur bo'lди. Bola-chaqasiga ketgan sarfini minnat qilgan erkakday xunuk maxluqot yo'q dunyoda!) So'ng ayolining uni qamatishgacha borganini aytib, ko'ziga yosh oldi.

Falokatingiz aribdi, pulga sig'inib yuborganingiz uchun, Xudoyim sizga shunday qismat beribdi. Endi Al-lohdan boylik emas, avvalo xotirjamlik so'rang va hayotingizni qaytadan quring,- dedim.

Yo'q, opa, – deydi u mo'ltirab, – men oilamga qaytishim kerak. Qanday yo'l tutsam, xotinim men bilan yarasharkin?

Gapining paynovidan anglab qoldimki, u bola-chaqasi yoki ayoli bilan birga bo'lmoqqa emas, xotinning qo'lida qolib ketgan mol-dunyoga sheriklikni tiklash uchun yarashmoqchiga o'xshaydi. Suhbat davomida jo-yini topib, uning fikrini o'zgartirish, yuragiga yo'l topish, gunoh-u savobga misollar keltirib, qalbining ko'zini ochishga chandon harakat qildim. Ammo uning dili qulf edi, bu johilga Yaratganning o'zi yordam qilsin! U tinmay "o'g'lim bilan qizim katta bo'lib qolishdi, men ularning yonida bo'lishim kerak," degan gapni pesh keltirardi. Asil maqsad esa haligi! Bu erkak shu qadar betoqat edi-ki, mol-u davlatdan ayr-u tushgandan ko'ra, ayoli botirgan balchiqda emaklab yursa ham mayli, quruq qolmasa bo'lди! Uning uchun or-nomus, hamiyat, elning nazari bir tiyin! Yigitchilikaptalsa ham mayli!

Birodar, aytинг-chi, bu otaning, bu er-xotinning o'g'li, qizi ertaga qanday tutum tutadi va jamiyatga qanday bola beradi?

\* \* \*

Yana o'sha erkakning suhbatiga e'tiboringizni tortaman.

Qizim pul so'rab keladi, ortinganimni beraman, hech qoniqmaydi. Bir kuni mashinangizni berib turing, bir-ikki kun minib beraman, dedi. Berdim. Ha deganda qaytaravermadidi. Qidirib topdim, ha desam, kirakashlik qilyapman, sizning bergenningiz nimaga yetardi, axir pul topishim kerak-ku, agar mashinani qaytib olsangiz, o'zimni savdoga qo'yaman, dedi. Shuning uchun, indamay qolaverdim, - deydi ko'zini joydiratib!

Bo'g'ilib qoldim. Bu odamning o'zbek tilida gapirayotganidan, millatdoshim ekanligidan, uning erkak ekanligidan nomus qilib ketdim. Qiz bilan ota orasidagi muzokarani qarang! Shohona uylarda yashab turib, onasi tirik turib, bo'yiga yetgan qizning kirakashlik qilishi sizga qanday eshitildi? Bu hol otani bezovta qilmayapti, qizining keyingi shartidan sal g'ashlanib turibdi, xolos. Axir u bir tup rayhonday qiz bo'lsa, ertalabdan kechgacha necha yaxshi, necha yaxshimas odam mashinaga tushib, chiqib tursa! O'sha yaxshi-yomon nigohlarning o'zi uni kirlantirmaydimi?!

Har kimning ham bolasi bunday qilolmaydi, otasi shu erkak bo'lgani uchun qizi shunga jur'at qildi, daraxti arzon bo'lgani uchun, danagi sho'r chiqib turibdi.

Bu qiz hozir shaytoniy ishtiyooqqa to'lgan, otasidan bir ishora bo'lsa bas, ya'ni "mashinani qaytar" buyrug'i bo'lsa, tamom, "o'zini savdoga qo'yish"ni boshlab yuboradi. Qo'ng'izdan qo'ng'iz, suvarakdan suvarak tarqaydi.

Kimdan kim bino bo'lganini ko'rib turibsiz, birodar!

Yo Rab!

Ki erkak qandayin erkak yuzida yuzta rang bo'lsa,  
Ki u er qanday er, ahli ayolin holi tang bo'lsa.

U qay zotki oti er-u so'zida quvvati yo'qdir,  
 Qizu o'g'lin huzurinda ibrat-u izzati yo'qdir.  
 Gulni gulga, sherni sherga, yigitni erga o'xshatg'il,  
 Vatanni erkagin tikla, o'g'li bor yerga o'xshatg'il!

### **Shirin dushmanlaring**

Hali peshonangda "farzand" degan shirish dushmanlarga ega bo'lish qismati bor. Hamisha qindagi qilichday yoningda turadigan ayoling bo'ladi hali! O'shalarning oldida tiling qisiq, boshing xam bo'lmasin. Ro'zg'or degan g'or filni ham yutib yuboradi. Ana shu qiyinchiliklarni daf qila oladigan bo'lib ro'zg'orga kirgin. Ro'zg'or tavakkaliga oshiqligi otish o'yini ham emas, og'zini ochib, yeymان-ichaman deb turgan bola-chaqani bir och, bir to'q qoldirib bo'lmaydi. Qora qozoningni qaynatishga yetadigan, soatning chiqillashiday bir maromda rizq keltiradigan tayinli mashg'uloting bo'lsin. Bilib qo'yki, oting sustlashgan zahoti ayoling oldinga o'tib ketadi. Ro'zg'or tebratishda ayoliga sorbonlikni bergen erkak esa bazingning emasdir! Ayoli evlagan ishni udda qilolmay, yer chizib o'tirgan erkak bizdan emasdir! "Bo'lar bola boshidan" degan naql esingda tursin. Aybingni yopib turgan ota-onang, ayoling ochguvchidir. Bolalaring esa olamga yoyguvchidir, o'g'lonim, ular paydo bo'lguncha puxta bo'lib ol!

### **Atrof o'quvxona**

Atrofingga yaxshilab qara, to'rt tarafing o'quvxonadir. Insonni maktab kursisigina emas, hayotning o'zi dono qiladi. Faqat berilib kuzat va astoydil ma'nisini uq! Karvonini buzmay don orqalab yugurayotgan chumoli senga mehnatkashlikni o'rgatadi. Arg'imchog'ini uzmay

uchib o'tayotgan laylaklar intizomdan dars beradi. Zil-day asfaltni ko'tarib tashlab, nish urayotgan qilday maysa yashash uchun kurash qanday bo'lishini ko'rsatadi! O'zingni solishtir va ulardan ming bora zaifliging uchun har safar uyal, bolam!

Odamlarni kuzat, kim hammaga yoqayotgan bo'lsa, o'zing kimni havas qilsang, sezdirmay o'shangta taqlid qilaver. Buyuk yangilanishlar hamisha taqliddan boshlangan. Kiyinish-u hatti-harakat, yashash tarzigacha yaxshi odamlardan zimdan o'g'irlagin-da, o'zingga yuqdirib boraver, kimdan o'rganganing esingdan chiqqan kundan o'sha bilim o'z-o'zingniki hisoblanadi.

## **ONA – BUYUK MURABBIY**

### **Onaning yagona yumushi**

Ayol borki, ona bo'lishni orzu qiladi. Onalik esa bittagina yumushdan iboratdir. Ya'ni u - murabbiylik. Onalikka saylangan odam umrining oxirigacha shu kasbi korga ham saylanadi. U nafaqat bolasiga, balki juftiga ham murabbiydir. Jufti bilan farzandiga kerak bo'ladi-gan atrofdagi hamma odam va hamma narsaga murabbiy va himoyachidir! Onalik unvoni va saltanatiga ega bo'lgach, ayolning yuragi qayta yaraladi, jami faoliyati, falsafasi shu sultanatning iqlimiga moslashadi. Ayol ona bo'lgach, o'zini unutadi, qatordan chiqaradi. Hatto uning o'zida o'zi uchun joy qolmaydi: xayoli bolasida, ko'zi faqat uni qidiradi, tilida faqat u, dilida faqat u, qo'li doim unga nimadir yasaydi, oyog'i bolasining tashvishi bilan u yoqdan bu yoqqa yugurgani yugurgan. Aqli raso ayol borki, onalikning yo'lida bittagina umrini qurbanliqqa qo'yadi! Bu mo'jiza zotni Yaratguvchiga hamd-u sanolar va tasannolar bo'lsin!

Ayol borki, onasining tutumini tutadi. Erkak zoti borki, umrining poyonigacha onasining damlagan choyi, pishirgan ovqatini qumsab o'tadi. Onasini yo'qotgan odam borki, to yetgan joyigacha uning nasihat va vasi-yatlariga amal qilishga harakat qiladi. Bundog' o'ylab qarasang, bu dunyoning asosiy tarbiyachisi ONAI MUHTARAMALARDIR! Ularning poyi qadamlariga ming tasadduq bo'laylik!

## **Sochi jambalak paytidan boshlang**

Qush borki, inida, odam borki onasida ko'rganini qilar ekan, ilm degan narsani avvalo ayol zotiga bersin! Uning fe'l-u atvoriga poklik bersin! Yuragiga g'ayrat va shijoat, o'zidan MURABBIY yasab olguncha iroda, sabr, qanoat va salomatlik bersin!

Bolasi hali zaminga tushmay turib, ona unga berarining to'qson foizini berib bo'ladi. Ona joni, qoni, suti bilan bolasining sifatini yasab bo'ladi. Shuning uchun ham, onalikka tayyorlashni qiz bolaning sochi jambalak paytidan boshlash kerak.

## **Qizlarga kitob bering**

Qizlarimizni yoshlidan kitobxon bo'lishiga intilaylik. Kitob uning xayollariga qanot beradi, tafakkuri o'sadi, inson ruhiyati bilan tanishtiradi. Kitob ko'rgan kishi odamlar bilan muomalani o'rganadi. Kitob unga dunyoni ko'rsatadi. Hayrat beradi, sevinch va qayg'u qayerdan bino bo'lishini bildiradi. Axir, bu ulg'ayish degani. Va qizimizning bu bisoti bir kuni bolasiga bexato o'tadi.

## **Bahorday bolalar beradi**

Qiz farzandlarni sayr-u sayohatlarga ko'p olib chiqmoq kerak. Toki uning ko'zları kengliklarni, tog'larini, daryo-ko'llarni ko'rsin, ruhiyati, tomir-tomirlari yayrasin. Lolazor qirlarni ko'rib tuyg'ulari alvonlansin! Gullagan shaftolizor, olmazorlar ichida yuraklari gulga to'lib ketsin! Ana o'shanda undan bahorday bolalar dunyoga keladi!

## **Ta'bi nozik bo'lsin**

Musiqani, ayniqsa, milliy musiqamizni bolamizga beshikdalik paytidan eshittirib boraylik. Tasviriy san'at, milliy hunarmandchilikka mushtayligidan boshlab e'tiborini tortaylik, toki undan tarqaladigan nasning ta'bi nozik bo'lsin, umrni nima bilan bezashni o'rgansin, zavq-shavq bilan yashash sirlarini biladigan bo'lsin.

## **Nigohlari xunuklikni ko'rmasin**

Qiz bolasi bor uyda aya-buvilar doim orasta yursinlar, yarashimli kiyinsinlar. Qizlar go'zallikka tug'ma intiluvchandir, ular, ayniqsa, o'z onalarini eng chiroyli bo'lismeni xohlaydilar. Bu payt ularda did shakllanayotgan bo'ladi, siz o'z turish-turmushingiz bilan qizchangiz huzurida unga mudarrislik qilyapsiz, ko'zlarini zeriktirmaylik, nigohlarini xunuklikka ko'niktirmaylik.

## **Kayfiyati bilan hisoblashing**

Tunov kuni bolalarimning gurungi qulog'imga chalindi. O'ttizga yaqinlashib qolgan kenjatoyim bog'cha bola paytlarini eslab, zavqlanib derdi:

Tug'ilgan kunimizda ayam yangi, chiroyli to'shaklarga o'tqizardilar, eslaysizmi?! O'sha kuni hech kim ish buyurmasdi, noto'g'ri ish qilib qo'ysak ham urishmasdilar, podshoh bo'lib yurardik-a!

Opa-akalari gur-r etib unga qo'shila ketishdi ... Tug'ilgan kunlarida qanday yayragan bo'lsalar, eslayotganda ham o'shanday yashnab, charaqlab so'zlardilar. Ko'rdingizmi, inson ruhiyati – mo'jiza. Go'dakligida xush ko'rgan bir lahzani o'nlab yillar o'tsa hamki, bag'riga bosib yasharkan. Bu degani o'ttiz yil burun bergen arzimagan rag'batimiz ularni hanuz boyitib, qalban o'stirib kelmoqda ekan!

Farzandlarimizning odamoxun, ko'ngilparvar bo'lishini xohlasak, ularning yuragini sindirib qo'ymaylik, kayfiyati bilan hisoblashib katta qilaylik.

### **Bolalarning har bir to'g'ri ishini payqaylik ...**

Qizchalarimizga bir yarim, ikki yoshidan boshlab, ro'molcha taxlash, sochiq taxlashlarni o'rgataylik. Kirlangan qo'lni, shira tekkan yuzni darhol yuvishni odat qildiraylik. O'yinchoqlarini o'z joyiga, kiyimlarini o'z joyiga qo'yishini qattiq nazorat qilaylik. Bu tartib uning fe'liga aylanib ketsin, shundagina bolasiga ham o'tadi.

Insondag'i rag'batga ehtiyojmandlik Allohdandir. Bolalarning har bir to'g'ri ishini payqaganimizni o'ziga bildiraylik va tashakkur bildirishni ham unutmaylik. Bola kichkina joni bilan bizni rozi qilishga tirishib, tirmashdi va roziligidimizni oldi. Ilohim, bu insoniy fazl va rohatlar uning bolasiga ham o'tsin!

### **Bolalar aslimizni tashiydilar**

Biz – daraxt, bolalar mevamiz emaski, ular shig'il pishganda odamlarning oldiga qo'ysak, bir o'tirishda yeb, duo qilib ketaversalar va shu bilan ishimiz tugasa! Bolalar aslimizni, naslimizni asrlardan asrlarga tashuvchilardir! Yaralishiga biz sababchi bo'ldik, aslida ular Allohning ne'matlaridir! Xo'sh, bu ne'matlarning ta'mini biz buzib qo'ymadikmi? Bolalarimiz nimaga yaroqlig-u nimaga yaroqsiz?! Ularni shu turishlarida odamlar orasiga qo'yib yuborsak, hech kimga ziyoni bo'lmaydimi, yaxshi inson bo'lib yashay oladimi? Birodar, siz o'zingizga shu savollarni berib ko'rasizmi va qo'rqib ketasizmi? Rosti, men juda qo'rqaman ...

Ona qobirg' alari ostida bino bo'lgan kurtak qanday qilib insonga aylanadi? U onasining jon tarkibidagi jami unsurlardan shimib, yuragidan yurak ko'chirib, fe'lidan rang olib, onasi siqilsa kichrayib, yayrasa yayrab odam shakliga kira boradi. U bir ilohiy mavjudlik, u ziyrak qulqoq va o'tkir ko'zdir - qorinda turib, tashqi muhitni eshitadi va ko'radi, bitta ta'sirdan gurkirab o'ssa, biridan tug'ilmay turibooq zaha bo'ladi!

Hurmatli ona oyim, nabirangizga murabbiylikni qizingiz voyaga yetmay turib boshlang.

Hurmatli qaynona oyim, keliningiz kelgan kundan boshlab jonini parvarishlang, yuragini yashnating, toki u sizga jismonan va ma'nан butun bola tug'ib bersin!

### **Yuklik qizim!**

Senga ona bo'lish nasib etib turibdi. Bola sening joningdan yaraladi va senga bu yaralma uchun buyuk mulaliflik unvoni beriladi. Qanday martabada ekanliging hamisha yodingda tursin! O'z joningni, salomatligingni asrasang, bolangni ham asragan bo'lsan. Tartib bilan ovqatlanmasliging, asabingni saqlay bilmaganing, zo'riqib mehnat qilishing, o'ta sovuq, o'ta issiq ichra bo'lishing, toru tang kiyinishlarining va hokazolar ichingdagi bolani azoblash, jazolashdir! Bolang biron bir aybli yoki nozik tug'ilsa, sababchi o'zing va faqat o'zingdirsan! Chunki u sening badaningga yopishib turibdi, sen orqali nafas olib turibdi, yagona aybdor sen bo'lsan!

### **Nozik davr**

Emizikli payting bola uchun yanada nozik davrdir. Qo'lingdagi bir parcha go'sht sening iqlimingga qarab har soniyada o'zgarib turadi. Har bir harakating bi-

lan uning yo yaxshi, yo yomon qismatiga muhr bosib borasan. Agar uning ko'zlariga shukrona bilan boqib, uning borligidan yayrab, baxtiyorlik bilan chiroyli duolar tilab, niyati shirin allalar aytib emizsang, bolangning butun jismi nurlanadi, ruhiyati chamanzor bo'lib ketadi, tomirlarida sog'lom va kuchli xujayralar uyg'ona boradi.

### **Hech kimni yomon ko'rma**

Oyim qizim, sen yuklik va emiziklik paytingda hech kimni yomon ko'rma, bola bu holatingda sut emas, nafrat emadi, katta bo'lsa, odamovi, hammadan yomonlik kutadigan bo'lib qoladi!

Birovni yomon ko'rmaslikning iloji bor: biz ming bo'g'ilaylik, hammani yoppasiga o'z didimizga moslay olmaymiz. Sening avloding boshqa, tarbiyang boshqa! Senga yoqmayotgan odam esa butunlay boshqa bog'dan, farq qiladi-da! Musichadan chumchuqlikni, bo'ridan qo'ylikni so'rolmaymiz-ku, har odamni o'ziday qabul qil, u imkonida borini namoyon qilyapti, unga talablar qo'yma, o'ziga munosib muomala topishga urinib ko'r!

### **Agar birovni qarg'asang ...**

Agar emizish paytida birovni qarg'ab, jahl bilan o'tirsang, bolang sut emas, qarg'ish, g'azab emadi. Bu degani ona bo'la turib, dushmanning ishini qilding: norasida jonga nafrat, andishasizlik urug'ini ekding, katta bo'lsa, har kimdan kir qidiradigan, salga jahnga minadigan no-do'st, alamzada bo'lishi mumkin.

### **Ko'zda yig'i bilan bola emizma!**

Yuklik va emizikli paytingda o'zingni qo'lga ol, past-kash va mayda tuyg'ulardan xalos bo'l, ya'ni o'rinsiz rashk,

vaqtinchalik yo'qchiliklardan o'ksish (har qanday qiyinchilik va yo'qchilik o'tkinchidir! ) va ko'zda yig'ing bilan bola emizma! Ayni vaqtida bola sutmas, xuddi shu narsalarni emadi! Xudo ko'rsatmasin, u ulg'aysa, tund, hyech narsadan ko'ngli to'lmaydigan, bo'lar bo'lmasga ko'z yosh to'kaveradigan, irodasi, shukronasi yo'q, rohat nimaligini bilmay o'tadigan tushkun kimsa bo'lib qolishi mumkin!

### **Bilgin:**

Boshqorong'i yoki emizikli ayol ko'ngli nima tusa-sa, yeishi shart. Chunki u narsani onaningmas, bolaning badani so'raydi. Bizning udumda qo'shni kelinning ko'zi nimaga tushsa, uminib qolmasligi uchun, ketidan albatta o'sha narsadan nasiba chiqariladi. Chunki baliq suvdan tashqarida qanday betoqat bo'lsa, ko'ngli sust ketgan narsani yemasa, kelinlar shu ahvolga tushadilar. Qolaversa, bolaning ham bir murvati zaif tug'iladi.

### **Nega sut qochadi?**

Ba'zan onalarda sut qochadi. Va bu bexosiyat sanaladi. Qachon va nima uchun sut qochadi? Onalar bir narsadan qattiq qo'rqsalar, o'ta yomon xabar eshitsalar yo onaning salomatligida inqilobiy o'zgarish bo'lsa, shu hol ro'y beradi. Mana shu o'rinda Yaratganning qudratiga tan bermay ilojimiz yo'q! Va har bir insonga Uning cheksiz muhabbat va muruvvati qaratilganining yana bir karra guvohi bo'lamiz: ona quvonib emizsa, bola sutmas quvonch emadi, yig'lab emizsa, ko'z yoshini emadi deyapmiz. Yuqorida aytganimizday, ona juda qattiq siqilsa yo qo'rqlas, uning suti bola uchun juda xatarli narsaga aylansa kerak. Shuning uchun go'dakkinaning g'amini Alloh yeysi va onaning sutini O'zi to'xtatadi, bola omon qoladi!

## Qaynona oyim va kuyov yigit!

Anovi bola emizib o'tirgan juvon shunchaki bir inson emas, sizning avlodingizni, umringiz davomini, ikki dunyoingizni obod qiladigan surriyodingizni dunyoga keltirgan Allohning mo'jizasidir! Unga osmon bo'lib, boshida panohlik qiling, zamin bo'lib, uni o'stiring, ko'kartiring! Chunki u shu turishida yuz foyiz SIZ UCHUN zahmat chekyapti. Ko'ksida bolasi bor ayolning yomon - yaxshisi yo'q! Axir u o'zidan ODAM yaratyapti, unga ko'mak bering, uni qo'llang, qo'lтиqlang! Undan nuqson qidirmang, o'zingizga nomunosib saylamang! U sizning niyattingiz, savob va gunohlarining, atrofingizdan olgan duo yoki noroziliklar evaziga taqdiringizga bitilgan ulush! U - qismat! Siz shunga munosibsiz.

Yuklik yo chaqalog'i bor kelinni o'ksitmangiz, dilini og'ritmangiz, to bolasini ko'krakdan ajratguncha, kirpi bo'lsa-da yumshog'im deb turingiz.

Bola emizayotgan ayol birovdan qo'rmasin, cho'chimasin. "Ana, hozir bir narsa deydi, mana aybimni aytadi yok bugun ham ichib kelsa, nima tomosha ko'rsatar ekan deb" vahima va havotir ichida yashamasin. Alqissa, bolasi hurkak, jur'atsiz va qo'rkoq bo'lib ulg'ayadi. Bu zotning aynishidir, birodar!

## QAYNONA HAM ONA KABIDIR

### Biz bog'bonmiz

Odam Ato bilan Momo Havo bir-birlarini ko'rdilar va o'zaro ma'qul keldilar. Ammo Jabroil alayhissalomga "nikoh o'qilmaguncha ko'rishmay tursinlar" degan vahiy keldi. So'ng insoniyat tarixida birinchi nikoh o'qildi va uni Jabroil a.s. o'qidi. "Guvoqlikka esa O'zim o'taman", - dedi Haq taolo. Demak, yodimizda bo'lsinki, har bir ni-kohda Yaratganning O'zi guvohdir.

Yana Hadisi sharifda "O'zi ruxsat bergen ishlar ichida Allohning eng yomon ko'radigani taloqdir" deyilgan. **Oila Alloh tuzgan muqaddas uyushmadir.** Shuning uchun har bora taloq so'zi yangraganda Arshi a'lo larza-ga kelar ekan. Bu - Yaratgan bezovta bo'ldi, norizo bo'ldi degan gap. Bu - bandasi u dunyo-yu bu dunyoda buning uchun javob beradi degan gap. Bundan har kimni O'zi asrasin.

Qo'ynimizdan endigina uchirma bo'lgan, hali yuragi-ga shayton g'ulu solib turgan g'o'r bolalarimiz bu nozik-chilikni qanday his qilsinlar! Yangi oila yangi ko'chat ekanligi, unga ziyrak bog'bon darkorligi, bog'larning payhon bo'lmasligi parvarishga bog'liq ekanligini bu jovidiragan yoshlar qaydan bilsin? Xuddi shu jarayonga javobgar, otalik-onalik martabasiga saylangan bizlar-miz-ku! O'sha bog'bon biz-ku! Va bu bog'bonlikka yillab duolar qilib, zo'rg'a yetishdik-ku! Agar bizning gu-vohligimizda, ko'z o'ngimizda oilalar buzilar ekan, guno-hi ayniqsa, biz - onalarning, bo'ynidadir, birodar!

## **Allohning oldiga qay yuz bilan boramiz?**

Farzand degan buyuk ne'mat saodatmand kishilar-gagina nasib etadi. Odamdan odam bino bo'lishi takrori yo'q inqilob! Qosh-u ko'zi, fe'l u atvori, hattoki ovoziga-chá o'zingga o'xshab turgan bu mavjudot joningning parchasidir. U yoningda tursa, jism-u joning butun. Nari ketsa, yarimtasan! Farzandlik oilalardagi ajrim ularning kelajagi uchun dunyoning to'fonga to'lishi, quyoshning ko'kdan ag'anashi, yuraklarning o'rtasidan darz ketishidir! Bir-biridan ayrilgan bu kishilar endi umrlarining oxirigacha nur ko'rmay, sovqotib yashaydilar. Bir shoira aytganiday, doimo yuraklariga yomg'ir to'lib turadi. Bolasi gullarning bo'yini emas, otasining hidini sog'inib yashaydi. Otasi esa buyuk-buyuk maqsadlarni emas, bolasining ko'zlarini qidirib o'tadi! Bolasidan ketgan otaning hech qachon qaddi baland bo'lmagay, tirik yetim o'sgan o'g'lon yoki qiz hech qachon chimildiqda baxtli o'ltirmagay! Ona bo'lsa, allasi g'arib, otalikka yetsa, hamisha yuragini bir qush cho'qib turadi!

Qaynonalikka yetib, bu fojealarining oldini ololmasak, o'z bolamizning inini o'zimiz butun saqlolmasak, Allohning oldiga qay yuz bilan boramiz? Bolasining uyini buzilishiga sabab bo'lgan ona o'z bolasining uyini o'zi kuydirgan qotil emasmi, majnun emasmi?! Bu qismatga hyech qaysimizni yo'liqtirmasin, ilohim!

## **Toki qiz boqqanning ohiga qolmang**

Qiz bola tug'ilganidan boshlab, hech qaysi ota-onasi: "Katta bo'lsa, meni boqadi yoki menga u qilib beradi, bu qilib beradi" demaydi. "Bolam Xudo xohlasa, aqli, eng chiroyli qiz bo'ladi, eng yaxshi odamlarga uzatamiz, o'sha yerda baxtli-taxtli bo'ladi", deya tilaydi. Shu tarzda yigir-

ma yil muttasil uning aqliga aql, joniga jon qo'sha-qo'sha, o'zлari bo'rday to'zib boradilar. Bir qo'l bilan farzandni parvarish qilsalar, bir qo'llari bilan sandiqqa sep yig'adilar. Va buni zavq-u shavq, ming rizolik bilan qiladilar.

Birovning qizini kelinlikka olib ketar ekansiz, biling-ki, ota-onaning yigirma yillik ijodini, shuncha yilgi umrini olib ketyapsiz, ularning orzu-umidlarini, farzandiga o'tib qolgan jon tomirini olib ketyapsiz. Qizlari voyaga yetguncha ota-onasi unga qo'shlashib xizmatkor bo'l-dilar. U endi ulg'ayib xizmatga yarab qolganda, o'roqda yo'q, mashhoqda yo'q, xirmonda hozir bo'la qoldingiz-da, birovning beba ho basini qaytib bermaslikka, umrbodga olib ketyapsiz.

Birodar, bir zum to'xtang-da, menga bir javobni aytin: onasidan ayr-u tushib ketayotgan shu g'o'rgina qizga ona bo'la olasizmi? Kamini kechirasizmi? Yaxshisiga quvonasizmi? Shu jovdirab turgan niholning katta daraxt bo'lishida bog'bon bo'lish qo'lingizdan keladimi? Keladi desangiz, qo'l cho'zing. Guman qilsangiz, avval o'zingizni bog'bonlikka tayyorlab oling. Toki bilib-bilmay gunohga botmang, toki qiz boqqanning ohiga qolmang...

Yaxshi yoki yomon qaynona bo'lish yosh-u qarilik, ko'p tuqqan, oz tuqqanlik, o'qigan yoki o'qimaganlikka bog'liq emas. U ayolning fe'lida cho'kib yotgan asliga, iy-moniga, niyatiga bog'liqdir.

Agar sizning aslingizda yillar tagida ko'milib ketgan uyatli ishingiz bo'lsa, ya'ni sizdan yoki ota-onangizdan xato ketgan joylar bo'lsa, tinmay tavba joizdir. Boisi bu qaytimli dunyo — onangizga qilganingizni bolangizdan, qaynonangizga qilganingizni keliningizdan ko'rishingiz aniqdir. Alloh hech narsani javobsiz qoldirmaydi.

Qur'oni Karimning deyarli har sahifasida "Alloh ke-chirguvchidir" degan jumla takrorlanib turadi. Haj sa-

fariga yaxshilarning orasida kurmaklar ham aralashib qolayotganiga ko'nglim xijil tortar, u yoqqa faqat munosiblar borishi lozim, deb qovrilar edim. Ammo bu ham Yaratganning cheksiz marhamatlaridan biri, dargohining kengligi ekan. Haj ibodatini o'tagan kishi onadan qayta tug'ilgan kabi poklanar ekan. Mana seni tozartib qo'ydim, endi u yog'iga adashmasang ajab emas, der ekan.

Allohning ishi bandasiga mayoq bo'lmog'i lozim, **qaynona bo'lish degani yangi tug'ilgan oilaga mu-allif bo'lish deganidir**. Ajab emaski, shu bahona yaratgan egam sizning bor gunohingizdan kechib yuborsa! Niyat qiling, bu yog'iga sizdan atrofga ozor yetmasin, xatolaringizni bolangiz takrorlamasin. Iloho, kelin kelgan kundan boshlab o'zingizga ham qayta yangilanish, afzallashish nasib etsin!

### Ishora kattadan boshlanadi

Katta falsafani qo'ya turaylik, oddiygina itning fe'lini kuzating. Agar mayinlik bilan yemak tutib, bir bora boshini silab qo'ysangiz, har ko'rganda talpinib kela-veradi, ovqat bermasangiz ham boshini silashingizni kutib suykalaveradi. Agar ovqatni zarda bilan irg'itib bersangiz, bergen narsangizga siz ketganingizdan keyingina yaqinlashadi. Bordi-yu, uni turtkilab, oyog'ingiz bilan nuqib ko'ring-chi, yoningizga kelarmikin? Kelmaydi! Qo'polligingiz takror bo'laversa, sizni ko'rganda, "vov!" deydigan va nari qochadigan bo'ladi.

Kelin esa inson! Uning itchalik ham oriyati bo'lmassisimi? Bezdirsangiz, nari ketadi-da! Kelin tobe, siz kattasiz. Ishora kattadan boshlanadi, tobe kishi ergashuvchidir!

## Kelinning uzr so'rab turishi go'zal ...

Kelinchagimning sharpasidan uyg'onib ketsam, andisha bosadi: saharlab shuncha ishni qilibdi-ya, o'zimning qizim uxlab yotibdi. Onasinikida bo'lsa, bu go'dakki-na ham erkalanib yotardi hozir. Darvoqe, yoshligimda o'zim qanday edim, shu kelinchalik tutumim bormidi yo yo'q, deya o'zimni solishtiraman.

Yuzimni yuvar-yuvmas: "Aylanayin-a, ko'p ham qo'lingizni sovuq suvga uravermang," – deya alqashga tushaman.

Gohida uxlab qolsa, shosha-pisha qaynotasiga: "Siz suv seping, men supuraman", deya imlayman. Ishga tushib ketamiz. Kelin bechorani ming xijolatlik bilan uydan chiqishini, "Ayajon, o'zim qillardim", deb tipirchilashini ko'rsangiz! "Sizga shugina yordamni ham qilmaylikmi!" deyman yumshoqqina!

Kelinning uzr so'rab turgan shu holati go'zal, qaynonaning samimiy munosabati undan ham go'zal!

## Yutug'ini topganingiz sari ...

Qur'oni Karimda "Hamma narsa niyatga bog'liqdir", degan joyi bor. Kelinga: "Bu kelin emas, o'zimning bolam bo'lib qoladi" deb qarasangiz, ko'zingiz faqat yutug'ini topib keladi. "Bu kelin, hech qachon el bo'lmaydi, boshidan hushyor turish kerak" deb yotsirasangiz, uning faqat kamchiligi ko'rineraveradi.

Yutug'ini topib, shukrona aytganingiz sari, kelinning chehrasi ochilaveradi, sizning charaqlagan kunlaringizni Alloh ko'paytiraveradi. Kelinni xafa qilgach, sog'lig'ingiz yomonlashsa, ko'nglingiz qorong'u bo'lsa, bilingki, bu Allohnинг javobi. "Berma mo'minimga ozor", degan joyi bor. Kelinimga ona bo'lib qolaman, deb niyat qiling. Bo-

laga ko'krak tutganda yetmish ikki tomiringiz iyib kelganday, Xudo niyatingizga yarasha ko'nglingizga shafqat eshigini ochadi. Kelinga suyumli bo'lib yashash gashti o'z bolangga yoqib yashashdan ming bora rohatliroqdir!

### **Ekkaningizni olasiz**

O'g'lingizni kelinning oldida aslo, aslo so'kmang, kamchiliginı aytmang (Umuman, bola borki, kichikdir, kattadir, birovning guvohligida tanbeh berib bo'lmaydi). Er yigitga ayolining oldida ota-onadan gap eshitishday og'riqli narsa yo'q. Bu harakatingiz bilan, birinchidan, o'g'lingizni o'zingizdan sovutasiz. Ikkinchidan, o'zingizda odob yo'qligini ko'rsatasiz. Uchinchidan, kelinning tarbiyasini buzasiz.

Nafaqat bu, balki bu yosh oilaning farishtasini o'z qo'lingiz bilan ketkazasiz, endi sizdan andoza olgan kelin o'g'lingizga dag'dag'aga tushadi. "Qandoqligingni onang aytdi-ku" deydi! "Nimangni hurmat qilaman" deydi! Tadbirkor kelin bo'lsa, har siz o'g'lingizga qo'pol gapirgani ngizda, u yumshoq gapiradi. Sizdan topmagan e'zozni bolangiz ayolidan topadi, qarabsizki, onamdan ko'ra ayolim yaxshi degan xulosaga keladi. Xo'sh, buning og'rig'i qalay?! Ammo alam qilmasin: ekkaningizni olyapsiz!

### **Kim kelinini yomonlaydi?**

Birov so'rasa, so'ramasa, kelinini osongina yomonlaydigan qaynona, bilingki, o'z davrida qaynonasini uchraganga g'iybat qilib kelgan nomard kelindir.

Kelinini maqtagan qaynonaning kelini emas, avvalo o'zi yaxshidir! Yoshlik degani g'uj-g'uj xato degani, xatosini yashirib, yaxhisini oshirayaptimi, bu qaynonaga, inshoolloh, kelinidan astoydil buyurgusidir!..

## Otasining ishini takrorlab qo'ymasin!

Siz o'g'lingizni kelindan qizg'onyapsiz. Shu rashk sizni tobora bezovta qiladi. Boisi shuki, siz tabiatan xudbinsiz, o'z kelinligingizni o'ylayverasiz. Juftingizga onasini dedirmay qo'yanlareringiz, et bilan tirnoqni ajratib yuborganingiz esingizga kelaveradi. Kelnim ham meni o'g'limga yomonlayotgan bo'lsa kerak, o'z tomoniga buriib olayapti-yov, o'g'lim bugun ochilib gaplashmadi, kelning kasri bu... degan o'ylar iskanjasida qolasiz. Kelin paytingizda o'zingiz gunoh yo'lidan borgansiz... Ro'parangizdag'i qo'shkaptarday kelin-kuyovga gumon ko'zi bilan qarab, gunohingizni yana ikki qilmang. Tavba deng va bular men qilgan xatoni qilmasinlar, deb tilang! Yo'q, aytganim aytgan, deb bezdiraversangiz, o'g'lingiz ham otasi qilgan nomardlikni qilib qo'yishi, ya'ni sizga ters o'girilib olishi hech gap emas!

## Kelin xizmatkormi?

Ayting-chi, kelin farzandingiz qatori farzandmi yoki xizmatkormi? Agar farzand bo'lsa, nega qizingizga buyurmagan ishni kelinga buyurasiz? Nega qizingiz bajargan har bir ishga shukur keltirib, dilingizda-yu tilingizda minnatdor bo'lasiz-u, kelining bajargan ishini ko'rmay, bajara olmagan ishini sanab yurasiz? Qizingiz xato qilsa kechirasiz, xafa bo'lsa yupatasiz. Nima uchun kelinni kechirmaysiz, kayfiyati bilan ishingiz yo'q? Kelin qilgan ovqatni yeysiz, u supurib-sidirgan joylarda yelpinib yotasiz, ammo tilingizda tinmay uning g'iybatি bo'ladi? Bir erkakni epaqaga solib yurish o'zi g'urbat. Uyning xizmati, arning xizmati, bola injiqligi dastidan cho'zilib-cho'zilib uzilishga kelgan kelinda tinmay kesa-tiq qilasiz?

## **Kelinning o'rniqa qizingizni qo'ying**

Bir insofga keling-da, tasavvur qiling: siz kelinga qilgan piching, zardalarni birov qizingizga qilyapti. Shu torligingiz bilan chidab tura olarmidingiz? Keliningizning onasi shu kungacha bir og'iz indamadi. Tanangizga o'ylab ko'ring, nega u sizni boplab qo'yishga shoshilmayapti? Bolasi o'gaymi yoki kelinning onasi onamas, toshmi sizningcha? U sizni avaylagani uchun, hurmatingizni saqlagani uchun o'zini bosib turibdi. U sizning insofga kelishingizni Allohdan tinmay tilagani tilagan!

### **Bu ona sha'ni uchun sharmandalik!**

Keliningiz bilan o'g'lingiz inoq bo'lsa, titraysiz. Kelini bilan o'g'lining suhbatini poylab yuradigan xudobexabar ayollar ham yo'q emas. Buning otini g'ayirlik, o'g'ilni qizg'anish deyiladi. Bu kundoshlik bilan teng narsa. Bu ona sha'ni uchun sharmandalik, bu uyatdan o'zingizni ehtiyyot qiling, birodar!

### **O'zingizni fosh etdingiz**

O'g'lingizni qizg'onishingizni bolasidan uzoqlashib qolgan onaning alami, deb tushunish mumkindir. Ammo siz kelindan qaynotani ham qizg'ona boshladингiz. Keliningiz qaynotaga hurmatni oshirsa ham, uyda chiroyli kiyinib yursa ham g'ashingiz keladi. Ko'zingiz izidan qolmaydi, nima dedi, nima qo'ydi — olazaraksiz. Tabiatan ota qizga, qaynota kelinga mehribon bo'ladi. Eringiz sho'rlik dastingizdan kelinga odatiy gaplarni aytishga ham qo'rqadi. Chiroyli kelin olib boshqalar baxtiyor bo'lsa, siz keliningizni aynan shu chiroyini ko'rgani ko'zingiz yo'q. To'xtang, oyim, mana shu joyda o'zingizni aslida kim ekanligingizni ochib qo'ydingiz: demak, ayol

sifatida sizning o'zingizga ishonchingiz yo'q. Yoshligingizda lov etib ko'ringan erkakka tez berilgingiz kelib turgan, ya'ni tabiatingiz yengilroq bo'lganidan, ehtimol, gunohdan o'zingizni asrashga kuchingiz yetmay, umr bo'yи armon qilib yurgan joylaringiz bordir. Ko'zingizni oching, birodar, gunohdan qo'rqmaysizmi?

Allohdan bu ayolga men iymon tilayman. Toki u jis-midagi ayollik badnafsligini yengsin, tiysin. Toki undan tarqalayotgan avlodga bu qusuri o'tib qolmasin.

Dunyoda eng yomon ko'rganim — ayolparast erkagu erkakparast ayoldir! Bular hamisha gunoh qilishga tayyor, xatarli insonlardir.

### **O'zingiz qanday kelin bo'lgansiz?**

Kelinini nari-beri qilavergan qaynonaga deyishyapti: "Uyingizni orasta ushlasa, ovqatingizni qilsa, siz kapkir ushlasangiz, supurgi tutmasangiz, bir og'iz rag'bat so'ziga yaramaysizmi?" - "Qilgan bo'lsa, uning vazifasi!" ters javob qiladi u.

Bu ayolning vijdonidan so'raging keladi: kelinligingizda o'sha vazifani o'zingiz bajarganmisiz, deb! Kelin fidoyi mehnatni asosan qaynona-qaynotaga yoqish uchun qiladi. Aksari holatlarda qaynnasini kuydirib ado qilgan kelinlardan yomon qaynona chiqadi. Haligi qaynona o'z davrida ixlos bilan kelinlik qilgan bo'lsaydi, qo'li ko'sov, sochi supurgi bo'lgan bo'lsaydi, birovning ko'nglini olish rohat-azoblarini o'z badanida tuygan bo'lsaydi, keliniga bunday toshbag'ir bo'lmasdi!

Bu ayolga ikkiyoqlama uvol bordir: uni rohat ko'rmay o'tgan qaynonasining ohi bir tomondan tutsa, qo'lida ozorlanib yashayotgan kelinning armoni ikkinchi tomondan tutgusidir!

## “Tug‘iladigan qiz bolaning to‘lg‘og‘i ham achchiq bo‘ladi”

Bir gap quloqlarimizga mixlanib qolgan: “Qizing tushgan mahalla itiga ham egilib salom ber” emish. Bu bizning ko‘nikmamizdagi noto‘g‘ri jihatlarimizdir. Adolat qilinsa, aslida menga qizini berganlarga yukinmoq joiz. Bolasini jonidan uzib olib kelganim uchun, qizimni mehmon qilib o‘tqizib, kelinni xizmatga solayotganim uchun, uning hatto otasi ismini o‘chirib o‘z nomimga ko‘chirib olganim uchun ulardan umrbod qarzdorman. O‘g‘ilni onasi qiynalib tuqqan bo‘lsa, qiz bozordan sotib olinmagan. Onam rahmatli aytardilar: “Tug‘iladigan qizning to‘lg‘og‘i ham achchiq bo‘ladi”, deb! Qiz bola o‘z joyini topib ketguncha, ota-onasiga ignanining tepasida yashaydi. Kelinning uncha-muncha kamchiligi uchun uning onasiga xo‘mrayish yoki bepisand bo‘lish iymonli odamning ishi emas. Kerak bo‘lsa, uni o‘zingiz bop qilib o‘zgartirib olasiz. O‘zingiz ham shu kungacha kimdandir nimanidir tinimsiz o‘rganib kelyapsiz-ku! Keliningiz hali sizning yarim yoshingizda, bilganidan bilmagani ko‘p. Beayb Parvardigorning o‘zi!

Endi o‘g‘lingiz haqida gapiRAYlik. Xo‘s, qani aying-chi, uning hamma ishi tekismi? Ba’zi xomliklaridan ichingizni it tirnab yuradi-ku! Buni kelin taraf bilmaydi va yuragi uvushmaydi deysizmi?

Aslida har ikki yosh risoladagiday yo‘lga tushib olguncha qudalar xufiya-yu oshkor bir-birlariga maslakdosh, hasratdosh bo‘lmoqlari kerak. O‘g‘il tuqqanim uchun, kamchiligidan bisyor bo‘lsa-da, men zo‘rman, xohlasam salom beraman, bo‘lmasa yo‘q deb tursangiz, jabr o‘zingizga bo‘lur. Hadisi sharifda shunday deyilgan: “Har bir qo‘pol, quruq, gerdaygan, beqanoat va dimog‘dor odam ahli do‘zaxdir”.

## Musulmonchilik asta-sekin ...

Kelinlarimning biri ko'p andishali, halol, mehnat-kash qiz, ammo taom pishirishlarga juda usta emas. Uni ovqatga urinayotganini ko'raman-da, eh, yana o'xshamay qolsa-ya, deya bezovta bo'laman. Shu asnoda qo'shni chiqib qoladi-yu, oshxona oldidan o'tar ekan, kelinimga: "Ha, ovqat qilyapsizmi?" deb luqma tashlaydi. Paytdan yutaman-da, deyman: "Bolam kelib, qo'llarim uzayib ketdi, och qolsam, boqadiganim bor endi! Hali ko'rasiz, opasi, qizim shunaqa pazanda bo'lib ketadiki, mahal-laning hamma kelinlari mening qizimdan o'rganishga chiqadi!.." Shu gap bilan kelinchagimdan ko'p yaxshi ishlar kutayotganimni u bildi va ko'p o'tmay qo'shni: "Kelingiz yaxshi, qiziqvuchangina ekan, mendan falon taomlarning tavsiyasini yozib chiqib ketdi", dedi. Bir qu-vonib qo'ydim. Demak, ish jildi.

Kattadan botmaydigan bir ishora bas, kichik u yog'iga o'zi g'ildirab ketaveradi.

### **Kelin sizning maktabingizda o'qiydi**

Kelin — bola, hayotga endigina kirib kelayotgan jov-diragan jon. Hyech vaqt uni ota-onasi darvozangizdan zo'r lab kiritib, shuni olsang ham, olmasang ham olasan demagandir. Xaridor bo'lib, qo'ylar berib, to'ylar berib o'zingiz olib kelgansiz. Endi bu yog'i Farmonbibi ayt-ganiday, sizning maktabingizda o'qiydi. Lekin hayotda ozurda holatlarni ko'rgan odam sifatida qulog'ingizga shularni aytay: kelinning bir ishi sizni ranjitsa, avval ik-ki-uch yaxshi ishini eslab, minnatdorchilik izhor qilib, so'nggina shunday yaxshi ishlar qilgan odam, shuni cha-toq qilibsiz-da deng, og'rig'i yengil bo'ladi.

### ***Kelin – bolangiz!***

Hargiz piching, kesatiq ishlatmang, u dushmanning usulidir.

### ***Dilozor kofir qavmidandir***

Kelinning ota-onasi haqida salbiy gaplarni kelinga eshittirib aytmang, siz bilan uni bog'lab turgan nozik ip uziladi. Musulmonchilikning asosiy belgilaridan biri Halimlikdir. Dilozor ming ibodat qilsin, baribir kofir qavmidadir.

### ***Qizini sizga egib beradi***

Qizidan ko'nglingiz to'lmasa ham, qudalarga marhamatli bo'ling – sizdan quvonsa, qizini sizga egib beradi.

### ***Ayolning yaxshi-yomonligi qachon bilinadi?***

Ayolning yaxshi-yomonligi kelin olganda ma'lum bo'ladi.

### ***Kelinlarga albatta ishimiz tushadi***

Tilingizda doimo duo bo'lsin. Yildan yilga orqaga ketayotgan jonmiz, kelinlarga malolimizni keltirmaydigan yagona malham ularning o'ziga eshittirib qilingan duodir.

### ***Ota-onasi borlar ko'proq siqiladilar***

Yetim yigitlar emas, ko'proq ota-onasi tirik yigitlar oiladan ko'p siqiladi. Ko'proq shular yurak va asab kasaliga mubtalo bo'ladilar. Ularning bag'ri butunligi qarerga bordi?

“Xotining undoq qildi, xotining bundoq qildi” deb ona siqishtiradi. “Onang meni mana bu jafolarga qo’ydi” deb ayoli ming’irlaydi. Ikkalasini kelishtirish g’o’r yigting qo’lidan keladigan ish emas! Yig’lab-yig’lab yozilib olay desa, u erkak! Tishlarini g’ijirlatib, yutishdan boshqa iloji yo’q, qarabsizki, ichi bevaqt to’kila boradi...

### ***O’g’lingizga yomonlamang***

Kelinni o’g’lingizga yomonlamang, sochingizning oqi bilan unga siz chora topolmaysiz-u g’o’r yigit nima qiloladi?

### ***O’g’lingizning boshi baland bo’lsin***

O’g’lingizni kelinga maqtang, uni eshitib o’g’lingiz sizga yanada yaqinlashsa, ikkinchi tomondan, juftining oldida boshi baland bo’ladi.

### ***Chirog’ingizni yoquvchi ular***

O’zimdan keyin qizlarim xor bo’lmasin desangiz, kelinning ko’nglini ovlang. Eshigingizni ochib, chirog’ingizni yoqib qoladigan, qizlaringiz kelsa, ko’rpacha solib, sizning o’rningizga qozon osadiganlar shular!

### ***Bolalarim sochilib ketmasin desangiz ...***

O’zingiz to’ng’lab tursangiz ham, qizlaringizni kelinlarga himmat va mehr ko’rsatmoqqa chorlang, hatto majbur qiling. Bizdan keyin jigarlarni bir-biridan judo qiladigan ham, birlashtiradigan ham shu kelinlar.

### ***Qaynona odil bo’lmasa ...***

Qaynona odil bo’lмаган уйда har kuni qiyomat.

## ***Kimga qiz berish kerak?***

Kelin olib gapini tashqariga chiqarmagan ayolga qiz bering.

## ***Qaynona iqlim yaratuvchi***

Keliningiz qovog'i uyulib, ochilmay qolsa, eng yaqinda turgan siz aybdorsiz — sovuq havo tegaversa, tegaversa, shig'il meva qilgan daraxt ham ko'sovga aylanadi-da.

## ***O'zingizni o'zgartiring***

Eringizning urug'i ham, keliningiz ham, o'g'lingiz ham, qudangiz ham ko'zingizga yomon ko'rnaversa, demak, gap o'zingizda ekan. Qur'oni Karimda shunday deyilgan "...Aniqki, to biron qavm o'zlarini o'zgartirma-guncha Alloh ularning ahvolini o'zgartirmas".

## ***Ko'rgan kunlaringizni bir eslang***

Kuni kecha o'zingiz ham kelin edingiz. Mustarlik bilan javdirab turardingiz – qaynonamning nega qavog'i soliq, qaysi ishim yoqmadi ekan? Qaynegachim xomush ko'rishdi – bilmay gunoh qilib qo'ydimmi, deb bezillag-aningiz bezillagan edi.

Ertalab hammani yeb-ichirib, kiyim-boshini yal-ab-yulqab chiqarguningizcha ancha vaqt o'tadi. Uyni yig'ishtiraman deguningizcha tushlik taomning hozirligi boshlanadi. Qo'lingiz kapgirdayu hayolingiz to'planib qolgan kirda. Taomni ham chala yeysiz-da, kirga tushasiz. Kech kiradi, yana qozon. Oraliqda unisi kelib, bunisi ketib turadi. Keyin dazmol, yana oshxona... Buning ustiga sizga yoqqan, yoqmagan odamlarning bariga birday

iljayib turishingiz kerak! "Yaxshilab ovqatlaning", demaydi qaynonangiz. Astoydil ovqatlangani tortinasiz, qimtinibgina yeb turib ketasiz.

Og'ir ish bo'lmasa-da, bir-biriga ulanib, davom etaver-gan harakat, hammaga ma'qul tushaman deb, asablarning tarang turishi zo'r keladi, tinkangiz quriydi. Dam olgani esa haqqingiz yo'q. Ishdan kelgan kuyovingiz yonboshlab yotadi, o'qishdan kelgan qaynsingillar bir-bir uqlab chiqishadi. Siz kelinsiz, ishdan kelsangiz ham, o'qishdan kelsangiz ham birday hovlining u boshidan bu boshiga bo'z qo'yib yurishingiz shart! Bolalarim charchaydi, nega bu charchamaydi, demaydi qaynonangiz!...

Bugun esa o'zingiz qaynonasiz, bir shirin jon qo'lin-gizda xuddi shu ahvolga tushib turibdi, ko'rgan kunlari-ngizni bir eslang-da, unga rahmingiz kelsin.

### **Kelinning ham joni shirin**

Qo'shni ayol qo'sh kelinini kechki dasturxon yig'ishtirilganidan keyinoq "kechgacha charchadinglar, qani uy-uylaringda dam olinglar", deb kiritib yuboradi. Sizning qaynonangiz unday emas, to oxirgi odam ko'chadan qaytib, darvozani qulflamaguncha, televi-zorning tomoshasi tugab, birinchi xo'roz chaqirmaguncha, sizga uqlashga ruxsat yo'q. Tungi 12 bo'ldi. Sudralib kirib ketasiz, ichingiz yig'laydi, onam bo'lsa hozirgi holimni ko'rib, u qilardi, bu qilardi deya o'ksinasiz. Zirqiran suyaklaringiz to'shakka shundoqqina to'kiladi-yu qotadi.

Yana sahar turishingiz kerak. Kech yotganingiz uchun biroz uqlab qolsangiz, ko'ring tomoshani! Qaynonangiz qattiq gapirmaydi, ta'na qilmaydi, ammo nigohlarning sovuqligi, alik olishlarning ohangi, idish- tovoqlarning bir-biriga urilishi naq yuragingizni chaqadi...

Siz juda tarbiyali edingiz – “xafaman” demasdingiz. Siz juda oriyatli edingiz – “charchadim” demasdingiz. Qaynonangiz yarayapti-yu, deb ish buyuraverardi. Indamayapti-yu, deb toshbag’irlikda davom etaverardi...

Ichingizga sola-sola erta qaridingiz. Yuta-yuta dard oshirdingiz. Mana bugun o’zingiz ham qaynona bo’lib turibsiz. Kelinday yayrab o’tmagan kelinligingizni armonlaridan endi chiqing. Ro’parangizdagি kelinni o’zingiz deb biling. Uning sizdan yashirib turgan dardlarini, istihola qilib aytolmayotgan charchoqlarini uqib turing. O’zingizday bir onaizorning shirin joni u. Salga so’lib, salga egiladi. Dunyoga kelganiga endigina yigirma yil bo’lgan novda u. Ellikka, oltmishga kirib biz adashmiz-u, u adashmasinmi?

Ota-onasining issiq bag’rini tashlab, bog’ingizni ko’kartirgani keldi u!

Ayollikning do’zaxiy azoblarini bo’yniga olib, o’g’lingizni o’zidan ko’paytirgani keldi u!

### **Yutqizgan qiz tomon**

Qudalaringiz oyda – yilda bir ko’rinadigan kuyovga ega bo’lsa, siz umringizning oxirigacha, kechasi- kunduzi xizmatingizni qiladigan qizlik bo’ldingiz!

Qizlaringiz uyi bilan ovora bo’lib ketadi. Kuch-quvatingizni ham sizga bog’lab qo’yan emas. Ochiqsangiz osh, chanqasangiz choy tutadigan, boshingiz yostiqqa yetsa, tonggacha uxlamay chiqadigan shu kelin. Qizlaringiz kelsa, qo’liga tugun tutadigan ham shu – kelin.

Iloho, har kimki farzand ko’ribdi, oshini oshab, yoshini yashab, bolalarining farog’atini ko’rsin. Ammo kundler kelib, bu foniy dunyodan ketar bo’lsak, orqamizdan eshigimizni ochib, chirog’imizni yoqib qoladiganlar ham shu – kelinlar!

## ***Uyalganidan yaxshi bo'lib ketsin***

Qizimiz kelin bo'ldi, o'sha yerda unib o'ssin, orqasidan rahmat eshitay desak, qudamizni boshimizga ko'taraylik, bir yaxshi ishini ikki deb ko'rsataylik, yomonini yashiraylik. Uning yaxshi odam ekanligiga o'zini shu qadar ishon-tiraylikki, uyalganidan fe'llari erib ketsin.

## ***O'g'limiz kuyov bo'ldi***

Kelinimizning ota-onasini shu qadar qadrlab, ko'ngli-ni shunday topaylikki, toki qizini bizga quyumli va vadofor qilib egib bersin. Bunga katta kuch ketmaydi – ozgina ziyraklikgu shirin til bo'lsa bo'ldi. Agar ota-onalar to'ydan keyingi ikki yilda shu zaylni tashkil qilolsalar, hammayoq obod bo'lgay...

## ***Necha yil yashaysiz?***

Goh halol, goh harom aralashtirib terib-tugib to'y qilasiz, yigirmatalab ko'rpa qoplaysiz – zahlar chiritaldi, sichqonlar yeydi, doshqozonlarda oshlar damlaysiz, qo'sh tandirlarda nonlar yoptirasiz – ortganini mollar yeydi! Birodar, bu tirishib tirmashishingizdan, jizg'anak bo'lishingizdan muddao ne? O'zingiz nechayilyashamoq-chisizki, yo qirqta joningiz bormiki, yarmini havoga sarflasangiz! O'zingizning bittagina joningizni qachon o'ylaysiz? Dam olish joylari nimaligini bilasizmi, necha marta sanatoriya bordingiz? O'zingizni ayang, birodar! O'zini ayagan, birovni ham ehtiyoq qiladi. O'zimizga hamisha shunday savol berib yuraylik: bugun necha kishini ko'nglini oldim? Necha odam mening huzurim-dan yuragi yashnab chiqib ketdi.

Navoiyda shunday bayt bor:

*Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,  
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.*

### **Eng nozik ustozlik**

"Ustoz" degan so'zning ma'nosi juda kengdir. Bu yorug' dunyoda nimaiki bunyod bo'lgan va bo'layotgan bo'lsa, ustoz-shogirdlikning mevasidir. Nimanidir qo'shningdan o'rganasan, do'stingdan, oilangdan, kitobu matbuotdan, tabiat, hattoki jonivorlardan-da nimadir olasan. Ba'zan farzandingdan ham bir narsalar o'rganib tanang yayraydi. To'rt taraf saboq va o'sancha shogird.

Qaynona-kelinlikni olaylik. Eng nozik ustoz-shogirdlik shu emasmi! Ro'zg'or degan muqaddas uyushma-ning bugungi holatiga razm solib, yuragim uvishadi. Har bir oila jamiyatning bir g'ishti. Ammo bu g'ishtlarning butunidan sinig'i ko'payib ketayotgani, oilaviy ajrimlar ning katta qismiga qaynona-kelin nizolari sabab bo'layotgani hammaga ayon.

Kasbiga noqobil o'qituvchi o'quvchisidan shikoyat qiladi. Kelinni yomonlab yuradigan qaynona ham xuddi shundaydir. Avvalo, Xudo yorlaqagan odam kelinli bo'la-di – shuning o'zi davlat. Oila iqlimiga kelinning, ya'ni yangi bir havoning kirib kelishi katta voqelik! Har qanday voqelik sodir bo'lganda esa o'zgarishlar, siljishlar, yangilanishlar bo'lishi tabiiydir.

Yangi farzand ko'rsangiz, hech qachon uni uylar qu-rib, seplar yasab, hovlilargacha bashang qilib kutib ol-maysiz, lekin kelin kelsa, shunday qilasiz, o'zingiz past uyga surilib, kelinni baland uyga joylaysiz. Buni hayajon va rizolik bilan qilasiz. Sababi, kelin avlodimizni ko'paytirgani, bolamizning yonida bola bo'lib, tolsak suyagani, ketar bo'lsak, chirog'imizni o'chirmaslik uchun keladi.

Shundoq voqelik sodir bo'ladi-yu, nega tarang tortmayin! Kelinga bo'lgan lutf va marhamatlarim avvalo unga bo'lgan hurmatim izhordir. Qolaversa, (mana shu ustozlikning boshlanishidir) hammayoqni sozlab kutishim – kelinning ko'zi boshidan boshlab orastalikka o'rgansin deganim, ust-boshimni sarishta tutishim – kelin meni ko'rib uyda ro'dapo bo'lib yursa bo'laverar ekan demasin, deganim. Ayb ish qilgan oilam a'zosiga ovozimni ko'tarmay, beposhna gap aytmay, imo-ishorali tanbehga o'tishim – kelinning tili-yu etini qotirib qo'ymay, qolaversa, onasi bo'la turib, o'z bolalarimni shu qadar yuz-xotir qilayapmanmi, kelinning ularga hurnatsizlik qilishiga yo'l yo'q deganimdir.

### ***Onamdan keyingi onam***

Farzandlar aksari aytganimizni emas, qilganimizni qiladilar. Kelin mening uyimga chetdan kirib keldi, to sharoitni uqquncha xatolar qilishi bor gap. Men uning adashishlarini marjonga tizib sanamay, avvalo, to'g'risini o'zim qilib ko'rsatishim zarur. Buni halimlik bilan, ustozlarcha beminnat bajarishim kerak. Xudo bergen to'rt kelinim bor, qo'shganlari bilan qo'sha ulg'aysinlar. Onamdan keyin onam, farzandlarim ham bilmaydigan sirlarimni aytadigan ishonch tog'larim, haqiqiy mehr va izzat ko'radigan manbalarim — shu kelinlarim, u dunyo-bu dunyo ulardan roziman...

Agar ularning yangilikida birontasining uyiga be-parvoligini sezsam, bildirmaygina kirib yig'ishtirib chiqardim. Qizarib-bo'zarib uzr aytishga tushsa: "Vaqtim bor edi, sizga yordam qildim-da", deb qo'ya qolardim. Shu kifoya, keyin uning o'zi jonsarak bo'lib qoladi...

Yangi kelin davlat imtihoni topshirayotgan, qaltirab turgan talabaga o'xshaydi. Oilaning har bir a'zosi uni

zimdan kuzatib turadi. Shuncha hayajon va iztirobi-ni mening kulbamga bag'ishlab tursa-yu, bu jindakki-na jonga nega ona bo'lib rahmim kelmasin, nega unga qo'rg'on bo'lmayin?! Xatosini yopishim, kamini to'ldi-rishim, yupatib turishim unga madad beradi, qolaversa, menga mehri tushadi, yana qolaversa, mehnatini rozilik bilan qiladi. Hatto onamizning suti bizga qarz bo'ladi-yu, kelinning menga xizmati qarz emasmi! Rozilik bo'lmas ekan, uyimizda baraka bo'lmagay!

### *Ishi bitayotgan odam siz-ku!*

Kelinning guruchday yaxshi ishini ham sezganimni bildirishim kerak. Maqtovga hali loyiq bo'lmasa, hech yo'q duo tarzida rag'batlantirish joiz. Oramizda shunday qaynona bo'lguchilar bor. Birov tuqqan, birov boqqan bir inson kelib, o'z egasiga emas, yetti yot begona, ya'ni sizga ovqat qilib, uyingizni tozalab, o'tingizdan kirib, kulingizdan chiqib tursa-yu, bir og'iz: "Baraka top", demaysiz-a! Qo'sha-qo'sha sholcha, gilam yuvib, mehmon-ga borsangiz, savat-savat pishiriqlarni qo'lingizga tutsa, yana hadik bilan ko'zingizga jovdirab tursa, bir og'iz: "Qizim, charchab qolmadingizmi, yeb-ichib oling endi", deyishga yaramaysiz. Vaholanki, birdaniga shuncha ishi ni qizingiz ham, o'zingiz ham qilmaysiz. Nega mammun-likni bildirmaysiz, ishi bitayotgan uy sizniki-ku! Kelinga ochiq chehra bermay, kibr saqlab nimani yutdingiz? Kelinding yuragi sindi, sizga bo'lgan ixlosi muzladi, norizo bo'ldi, oilada nimadir "chirs" etib darz ketdi!

### *Gunohingizni oshirmang!*

Yana shundaylaringiz bor: o'z qizingizning ko'rgan tushidan boshlab, kechagi yegan ovqatigacha so'rab su-rishtirasiz-u sizga to'shak solib, og'zingizga kunda issiq

choy tutayotgan kelinning sog'lig'ini, uyiga borib kelsa, ota-onasining tinchligini, ishlarining borishini til kelib so'ramaysiz-a! Yangi ko'yak kiysa, ko'rmaganga olasiz, birovlar uni maqtasa, eshitmaganga solasiz. Bularni kelin ko'rib turadi. Yuragining singani endi uning yuzida ham ko'rina boshlaydi. Tabassumi o'chadi, qadamida xorlik sezadi, bu navjuvon novda gullashning o'rniga sarg'aya boradi. Uning ustiga tilingizda tizgin yo'q. "Fallonchining kelini undoq kulib turarkan, pistonchining kelini quchoq ochib ko'rishar ekan, yigit bo'lmay o'lasanmi, xotin tergash, xotin so'kishni ham bilmaysan", deya mahallaga eshittirib shovqin solasiz. Keliningiz sayroqi bulbul edi, gung qilgan siz; ochilgan gul edi, kul qilgan siz; olov bo'lib kirib kelgandi — o'chirgan siz. U rezina qo'g'irchoqmiki, ezib tashlasangiz ham, tishlab otsangiz ham birday iljayib turaversa!

Siz ham, kelin ham Allohning ne'matlarisiz, Haq yaxshi niyatda bergen til, dilni kibrga, birovga ozor berishga sarfladingizmi, javobini berasiz. Ro'parangizdagi ne'mat – kelinni xor qildingizmi, gunohingiz ikki barobar oshdi.

### *Birovning asraganini ayang*

Yana shundaylaringiz bor: keliningiz chiroyli bo'lib, o'ziga qarab yuradi (bu aslida — omadingiz, etagi so'kilib, qoshi o'sma ko'rmay, Said Ahmad aka yozganiday, yonningizdan o'tsa kir sovunning hidi kelib tursa yaxshimi?!) Yuragingizda shayton uyg'onadi, nega ishga chiroyli bo'lib ketyapti, birortasiga ilakishmadimi, deya qaynotaga gap yedirishga tushasiz. G'aflatiy eringiz uning izidan poylab ham ko'radi. Bu tinmagan jag'ingiz aybnomalar to'qiyveradi. O'ylab-netib o'tirmay bir kuni shartta: "Nega kechikib keldingiz, kim bilan yurganingizni biz qayoqdan bilamiz", deb yubordingiz. Xudo bexabarlik bu!

Balki kelinning avlod-ajdodi o'ta pokdomon suloladir. Balki keliningiz poklarning poki, ne-ne joylar orzu qilib yetolmagan bir malakdir. Balki sha'n, oriyat keliningiz va uning ota-onasi uchun ikki dunyo narxidan qimmatroq turar! Hali gunoh yo'q, hali guvoh yo'q. O'zingiz pul sarf-lab, onasidan qog'ozga o'ralgan qantday qabul qilib, oq shohiga o'rabi olib kelgan keliningizni birov emas, o'zingiz bulg'ab chaqiryapsiz, uyingizni o'zingiz portlatyapsiz. Uy buzar siz emasmi?! O'g'lingiz dovdiraydi, kelin-kuyov bir-biriga mo'ltiraydi. Ketay desa, kuyovidan yomonlik ko'rmagan, bolasi bor. Qolay desa, eng xunuk gap aytildi, oriyat jismi jonini uzadi. Kelinning ota-onasi u yoqda vayron. Dil buzar siz emasmi?! Qilmishning qidirmishidan qo'rqmoq joiz. Siz birovning asraganini ayamadignizmi, Xudo sizning asraganingizni urib qo'yadi.

Mana shu men sanagan qaynonalar ham karvon ergashtirib borayotgan ustozlar. Ularni qancha-qancha yoshlar kuzatib bormoqda. Qisqaroq o'ylaydiganlari ularning izidan ketsa, dog' qolgani shu. Yomon ishlarning teskarisini qilib borsalar, ortimizda bog' qolgani shudir.

### ***Allohdan hyech kim qochib qutulolmaydi!***

Bir ulug' yoshdagi qaynonaning ko'lday ivib yig'layotganining guvohi bo'ldim. Nabirasi obdon kuydirayotgani, oltmishdan oshib qolgan o'g'lining bundan adoyi tamom bo'lganini aytib bo'zlardi. "Bunga men aybdor-man"- deydi u, - kelinimning menga ozorlari haddan oshgach, "Ilohim, bolangdan tortgin" deb yuborgan vaqtlarim bo'lgan, voh, demasam bo'lar ekan,"- deb o'z boshini o'zi mushtlar edi!

Qaynonaga ozorlik bo'lgan u kelinning o'zining bitagina keliniga qilganadolatsizligini ham kuzatgan-

miz. Yaratgan unga dilbar kelin berdi – orasta, pazanda, chevar, muomalali, chiroyli. Ammo u hamisha iddaoda, qachon ko'rmang, kelinga hamlaga tayyor turadi, o'qlangan qurolday o'q yog'dirgani yog'dirgan. Ko'ringanga tinmay yomonlab charchamaganini aytmaysizmi! Bir yoshli, uch yoshli nabiralariga "Hamma yomon ishlaring onangga o'xshaydi!" deb baqirib-chaqirishlarin aytmaysizmi! Kelin esa sukutda. Shu holatning ichida o'n yildan ortiq yashab kelayotgan bo'lsa-da, bu battol qaynona-ning yuziga hargiz tik qaramadi, javob toshini otmadni ...

Bugunlik kunda esa uni bittagina o'g'li naq olovgina-ga o'tqizib qo'ydi! Kulfatdan qanday qutulishni bilolmay karaxt! Bu ayolning qaynonasiga berib kelgan azoblari, endi esa bittagina kelinini qon yig'latishlari javobsiz qoladimi deysiz! Alloh bor va hech bir bandasining yaxshi-yu yomon ishini javobsiz qoldirmaydi. Allohdan hech kim qochib qutulolmaydi!

## KELIN BO'LISH SAODATI

### **Kelin oyim!**

*Nega kelin tushdilarda karnay chalinadi?*

Ro'zg'or muqaddas uyushma bo'lgani uchun ham, karnay-surnay, taronalar bilan uning boshlanishiga ishora beradilar. Ro'zg'or mushkul bir faoliyat bo'lgani bois ko'plashib duo berib, madad tilaydilar. Iloho, bu duolar ijobat bo'lsin!

Xo'sh, nechun chaladilar karnayni?

Nazarimda shunday: ikki dilning, ikki avlod taqdiringning bog'lanishi ulkan hodisotdir. Karnay yangi bir avlod poydevori qurilayotganini to'rt tomonga ovoza qiladi, bu qutlug' marosimga guvohlar yig'adi. Karnay shavq bilan na'ra tortadi, falonchining qiziga xaridor bo'lib keldik, deya kelinning atrof mahallasini oyoqqa turg'azadi. Hovli-yu tor ko'cha, ayvonu tom odamga to'ladi. Qizi chiqib ketar ekan, shu uyning ulug'i titroq ovoz bilan duo beradi, yoshu qari "Omin" deya qo'shilishadi.

Kelinni olib qaytgan karnaylar endi kuyov maskanida bong uradilar: "Hoy yaxshilar, eshitmadim demanglar, bir pokiza gavharni olib kelyapmiz, u sizlarga farzand bo'lajak! Chiqa qoling, yaxshi niyat bilan qarshi oling," deya hammani qo'zg'atib, hayajonga soladi. Bu kun karnay-u surnay, nog'oraning gijbadabangidan butun mahalla jami hasrat, nadomatlardan chekinadi, hamma shu ikki yoshga baxt tilash bilan mashg'ul bo'ladi...

Aziz o'g'lon va muhtaram qizoyim! El duo berdimi, tamom, shu zahotti cho'ng mas'ullik yelkangizga tushadi. Bu mas'ullik sizni hamisha ro'zg'orni asrab-avaylashga

undab turishi loizm. El duosi elning nazari demakdir. Ro'zg'orni ehtiyot qilmaslik nazardan qolmoqlikdir. Bu esa ulkan fojiadir – nazardan qolganlarning oilasi ham, avlodи ham hech qachon ungan emas, o'sgan emas.

### *NEGA KELINCHAKNI KO'TARIB OLADILAR?*

Karnay sadolari ila kelin, kuyov darvozasi oldida katta gulxan yoqiladi. Darvoqe, nechun yoqadilar olovni?! "Kelinchak, seni olovday muhabbat bilan kutyapmiz" deganlarimi bu? Yana: "Kelinchak kuyovning xonadoniga olovday mehr bilan kirib kelsin" degan orzularimi? Yoki: "Jami noxushliklar ichkari oralamay, yangi ro'zg'orning ostonasida kuyib bitsin", degan ma'nolarda olov yoqilar balki.

Olov tinmay charsillaydi, uning atrofida charx urib raqs tushayotgan Andijon yigitlarining tovonlari chandon gursillaydi. Shu oraliqda bir necha yigitlar kuyovga to'n kiydirib, shohi qiyiq bilan belini sirib bog'lab, kelinni ko'tarib olmoqqa sozlaydilar, so'ngra kelin o'tirgan mashinadan uy ostonasigacha bir-birlariga qo'l berishib, kuyov muhofazasi uchun zanjir sifat jonli yo'lak hosil qiladilar. Karnay esa "Mard bo'l, she'r bo'l, bo'l, bo'l, bo'l!" kabi zarb usullarni boshlab yuboradi. Kuyov shu asnoda kelin tomon yo'naladi. Karnayning betoqat, tezob hayqirig'i, yigitlarning madad beruvchi qiyqiriqlari ostida kuyov kelinni dast ko'tarib chimildiqqa olib kelib qo'yadi. Bu Andijon to'ylarining eng ko'rimli, hayajonli manzaralaridan biridir.

...Kuyov qo'llarini cho'zganicha kelin tomon odimlar ekan, mening xayolimga bir o'y uriladi. Shoир qalbim bilan kuyov o'ylarini o'qiyotganga o'xshayman, mana kuyovning ko'nglidan kechayotgan gaplar:

*Yulduzlar ichida oy saylaganim, keldingmi-ya!  
 Qizlarning orasidan hur saylaganim, keldingmi-ya!  
 Tushlarimni rostga aylantirib kelasan-u,  
 Seni ko'tarmay kimni ko'taray!  
 Duolarimni chinga aylantirib kelasan-u,  
 Seni ko'tarmay kimni ko'taray!  
 Otamning ushalgan armoni bo'lib kelayotganim,  
 Kel, kaftlarimga qo'n!  
 Onamning dardiga darmon bo'lguchim,  
 Seni ko'tarmay kimni ko'taray!  
 Opa-singlimni topishtiruvchi bo'lib kelayotganim,  
 Og'alarimni kenishtiruvchi bo'lib kelayotganim,  
 Kel, kaftlarimda olib kiray seni!  
 Ro'zg'orimning barakasi, kel,  
 Xonadonimning istarasi, kel!  
 Mening nomimda bog'lar yaratasan-u,  
 Seni ko'tarmay kimni ko'taray!  
 Yaxshimni oshirarim, yomonimni yashirarim,  
 Posbonim kel,  
 Qo'llarimga qo'n,  
 El oldida tabarruk qilib olib kiray seni!*

Shunday yuksak umidvorlik bilan kuyov kelinchakni qo'llarida tutib bormoqda... Men esa bezovtalik bilan kelinni so'roq qila ketaman:

Oy deb saylangan kelinchak, kun deb tanlangan kelinchak, senga berilayotgan baholarga munosiblik haqidagi o'yladingmi?

Qur'онни, nonni, farzandni kaftda ko'taradilar. Buning boisi ayondir. Ammo seni ne uchun ko'tarmoqdalari? Mag'zini uqdingmi buni? Ro'zg'or Tohir-Zuhrolik, Layli-Majnunlik emasligini, ro'zg'or cheki yo'q kurash, yutish-yutqazishlar maydoni ekanligini yod etib yur!

Ogoh bo'l, bu ostonada sening qo'ling bilan tuzaluvchi bemorlar, so'zingdan yasharuvchi umrlar, eping, uddang bilan yechiluvchi mushkullar, sening mehr va mahorating bilan ulanguvchi uzilganlar izlaringga zor bo'lib turibdi. Shuning uchun ham ko'tarib yuribdilar seni! Sen bu xonadonga haloskor bo'lib kirmoqdasan.

... Ichkarida esa yangalaring "Yor-yor"i eshitiladi:

*Kelin demang bog'ingizga  
Qumri keldi, yor-yor,  
Ota-onangiz darmoni  
Umri keldi yor-yor.  
Endi dildan g'am to'zibon  
Payhon bo'lur yor-yor,  
Kelinchakning har so'zidan  
Rayxon unur, yor-yor...*

Iloho, qadamlaring qutlug', nafaslaring issiq kelsin qizoyim!

### ***Kelin oyim!***

Gapni eng xatarli narsadan boshlay qolay. Jismi-ningzning jami a'zolarini Xudo hurlikda yaratdi, ya'ni ko'z, qulqoq, qo'llar, oyoqlar... bari erkin. Ammo, taas-subki, til degan narsaga ko'p hadik bildirdi. Dastavval unga tish atalgan toshlardan ikki qator qo'rg'on qo'ydi. Hadigi ortaver vergach, lablarni darvoza sayladi. Bu ham xavotirli bo'laver vergach, tafakkurni unga soqchi tayinladi. Allohki qo'rqqan narsadan bandasi qo'rmasinmi? Tog' ko'chib o'limgan, o'qqa uchib o'limgan odam bir og'iz so'zdan tugashi mumkin. Yomon til xohlagan kishini bemor qila oladi. Yarog' bilan odam o'ldirgan kimsaning oti qotil va undan umrbod seskanib o'tadilar. Lekin er-u farzandlarning asablarini, kayfiyatini, yuragini kunda

bir necha bor o'ldirib yuradigan ayolga kim deb qarash kerak? Uning jazosi nima?

Mehribonlik uylariga nazar soling. Ona ham jonga tegishi mumkinmi, ona-ya?! To'shakka qadalib yotgan ona ham hech yo'q bir og'iz maslahati bilan bolasiga darmo'n bo'ladi. Onasi yuzga kirib o'lganlar, to'ymadim deb yig'laydilar, yana yuz yil yashasa bo'lardi, deya bo'zlaysilar.

G'aribxonadagilar esa, Xudo meni kechirsin-u, bolalarini tillari bilan, fe'llari bilan zada qilganlar-ov! Seni tug'ib qo'ydim, seni boqib qo'ydim, deb ta'na qilganingiz zahoti Ollohning qahri keladir. Farzandni sizga Xudo bergen. Ta'nani unga qilyapsizmi? Hamma e'tiboring menga bo'lsin, topganing menga bo'lsin, hali mendan qarzing ko'p dedingizmi, hamma savobingiz kuyadi! Axir ona-bola ko'chadagi yo'lovchimi, qo'shnimiki birga-bir qilib hisoblashsa! Bola bizning tanimizdan, jonimizdan o'sib chiqadi-ku?! Bola bizning o'zimiz-ku! Aslida, onaning eng yomonini ham farzand qo'lida ko'tarishi kerak. Bu uning burchi! Ammo o'z bolasini tinimsiz yaralab, tili bilan nashtar sanchishga qodir onadan mehribon bola qanday tug'ilsin? Bug'doydan bug'doy, kurmakdan kurmak unadi!

Demak, kelin oyim, hali bag'ringizda bola degan g'uncha tugilmay turib, niyat qiling, fe'lingiz sozlan-sin, toki sizdan hech kim ozor yemasin, otingiz **MEHR** bo'lsin, odatingiz **HALIMLIK** bo'lsin. Taqdirning hukmi shu: tili shirin onaga bola – **ROHAT**, tili yomonga esa bolasni – o'zidan chiqqan **JAZODIR!**

## ***Tilingizdan ketgan xiyonat***

Juftingiz bilan nonushta qilyapsiz. Shu payt qaynonangizning ovozi keldi: "Yaxshi bor, bolam. Albatta, tushlik qilgin, och yurmagin, bo'ptimi?!" "Oyim ukanngizni kuzatyaptilar, omon bo'lsinlar, juda mehribonlar-da, – deysiz choy uzatayotib kulib turib yumshoq-qina qo'shib qo'yasiz, – lekin sizga unaqamaslar, sizdan uncha xavotir olmaydilar".

Erkagingizga bu gap malol keladi. Onam menga joni-ni ham berishi mumkinligini sen qaydan bilasan, deydi ichida... Bu gap o'tdi-ketdi.

Bir kuni o'g'li charchab turgan paytida onasi bitmay kelayotgan bir chala ishni eslatadi. Har safar xijolat chekib "Esimda, onajon" deguchi o'g'ilning ko'ngliga bu gal "Nega endi shu ishni faqat men qilishim kerak?" de-gan zardali o'y keladi. Bu ham o'tdi...

Kunlardan bir kun yana onasi bir oz ginali gap qilib qoladi. Onaning ko'ziga biror marta ko'z qadab qaramagan o'g'il birdaniga: "Nima, men o'gaymanmi, yo boshqa o'g'illaringiz osmondan tushib, men yerdan chiqqamanmi?" deb baqirib yuborganini bilmay qoldi! O'zining o'shqirig'idan erkakning o'zi ham karaxt qotdi. Xona-donni go'zal qilib turgan nafis qobiq jaranglab sindi, nozik bir tor uzildi. Onaning boshidan bamisolli qaynoq suv quyildi. Yo'q, yo'q, boshiga emas yuragiga quyildi – "jaz-z-z" etdi bir narsa ko'ksida!..

Xo'sh, kelin oyim, endi nima bo'ladi? Shu holat ma'qul-mi sizga? O'zingizning ham rangingizda rang qolmabdi. Hovliga ilon kirganday bu sovuq vaziyat siz tufayli sodir bo'ldi. Eshilibgina choy uzata turib, tilingizdan ketgan xiyonatning hosilasi bu! Et bilan tirnoqning orasiga nish urish bu!

Tog'ni talqon qilishga qurbi yetadigan erkakning bir ojizligi bor, dunyoni hushyor qo'riqlashga qodir erkakning bir g'ofilligi bor-ki u ayolidan ehtiyot bo'lmaydi! Ayolning bir ishorasi bilan insoniylikdan chiqadi, ayolning bir gurgurt chaqishi bilan dunyosiga o't qo'yib qarab o'tiradi.

Ta'kid: Siz bu notavon erkak qoshida yomonlik kel-tiradigan ishoralardan tiyiling! Ko'rdingizmi, tilin-gizning qilday gunohidan filday ko'ngilsizlik bino bo'ldi. Hali buning qaytimi bo'lmaydi deysizmi! Faqat uning bolangizga qaytgani yomon, kelin oyim!

### ***Juftingiz manqurtga aylanib qolmasin***

Kelin oyim, siz chiroqli gapirasiz, juftingizga yoq-adigan qilib apairasiz. Erkak zoti maqtovga besuyak bo'ladi, bu sizga qo'l keladi. "Onam sizni undoq suyadilar, opam sizni bundoq maqtaydi. Akam sizga mana bu ko'ylakni berib yuboribdi, hurmatingizning balandli-gi-da bu!" deganingiz sari erkagingiz sariyog'day eriy ketadi. Qarabsizki, hayit-arafalarda avval sizning onangizni yo'qlab, keyingina o'z onasini kiga keladi. Sizning opa-ukalaringizni to'rt-besh yo'qlagandan keyin, o'z egachi-singlisinikiga bir bora kirib qo'yadi. Sizga bu hol xijolatlik tuyulmaydi, hatto yoqadi. Tappa-tuzuk yigit qo'lingizda manqurtga aylandi. "Men kamolga yetguncha onamning ikki ko'zi qon-u yiringga to'lgan, avval o'sha mushtiparimni ko'ray", demaydi. "Xotininning urug'i uch-to'rt marta ko'nglimni olgan bo'lsa, jigarlarim meni ulg'aytirdi, yemay yedirib, kiymay kiydir-di. Shu tovusday tovlanib turgan xotinni ham shular olib berdi — izlarini o'pib, avval shularning ko'nglini olishga shoshilay", demaydi! Chunki u sizning yetovingizda.

Erkagingiz faqat siz tomonga yukinib, ota-onu va jigarlaridan nari bo'la boshladimi, ogoh bo'lingki, u erta

turib indinga sizdan kechib, sizga orqa o'girib, xotinin-ing etagida namoz o'qiydigan, sizni zor qaqshatadigan o'g'il bo'lib taqdiringizga qaytadi!

***Siz erkagingizga og'a-inisini hech qachon yomon demagansiz.***

Ular kelsa-ketsa joningizni sadaqa qilib kutasiz. Hatto birovlargalarda minnatdor gapirasiz. Erkagingiz o'ktam yigit, qo'lidan kelsa, hammaga yaxshilik qilsa! Jigarlaridan hech narsani ayamaydi. Ammo bu ketayotgan sarf-xarajatlar ba'zan yuragingizning tagida g'ashlik paydo qiladi. Eringiz esa tinmay yaxshilik bilan band! U hech qachon buni rahmat eshitgani yo atrofga ko'rsatgani qilgan emas — uning fe'li shunday.

Kelin oyim! Oraga yana siz oraladingiz:

— Ukangizga olib bergen kostyum rosa yarashibdiya, akasi borlarning baxti bor-da, — dedingiz.

— Singlingizga yasattirib bergen javoningiz uyini yashnatib yuboribti. Qizi tushmagurning og'ir-bosiqligini qarang, o'rnila bo'lsam, bo'yningizga osilib rahmat aytardim, — deb qo'ydingiz!

— Mana ikki oydan beri akangizning ishini qilayapsiz. Rahmat sizga. Kimning ukasi o'z tirikchiligidan qolib akasi uchun o'lib yetibdi. Sizlarga juda-juda havasim keladi, — deysiz niqtab tezda-tezda...

Bundoq qarasa, gaplaringiz shirin. Hech kimni qarg'amatapsiz, mana bu ishi xato demayabsiz, yaxshilikni to'xtating ham deganingiz yo'q. Faqat yuragiga sezdirmay tariqdekkina gumon urug'ini solib qo'ydingiz. Erkak mo'rt-da! "Darvoqe, o'lib-tirilib ularga ilinaman. Demak, atrofda mendaqasi kam. Nega jigarlarim xursandchilagini menga bildirmaydi? Xo'sh, qani ular menga nima qilib berdi-yu men nima qildim", degan o'rgimchak

tushadi o'ylariga. Va miyasida aylanaveradi, aqli uning to'riga o'ralashadi, qarabsizki, bir kuni akasi kelsa... muzday so'rashadi va unga norizo tarzda tikilib qo'yadi: "Ishingni qulday qilib qo'ydim, rahmating qani?", deydi u ko'z! "Urintirib qo'ymadimmi, holing qalay, deyishga yaramayabsan-a!", deydi u nigoh..

Kelin oyim, nim qochirimlaringiz ish berdi – og'a-ini orasdagi jannatiy ko'prikka o't ketdi! Jigarlarning qiyg'os gullagan, ularni yayratib, yashnatayotgan bahoriga qor ufurdingiz! Minnat fasli boshlandi! Eringiz og'a-inisiga qilgan yaxshilagini hisob-kitob qila boshladi! Bu orqaga ketish, bu tanazzuldir! Bir-birini rozi qilgan jigarlarni Ol-loh yorlaqaydi. "Kimki rizqim ulug', umrim uzun bo'lsin desa, qarindosh-urug'lariga mehr-oqibatli bo'lsin", deyiladi Hadisi sharifda.

Minnatni qo'zg'otib, duo olib turgan bog'ingizga garmsel chorladingiz. Vodarig'!

### *Ayol zargardir*

Manman degan erkak ham ayolning gapiga laqqa tushadi. "Xotinidan qo'rqqan erkak erkakmi?", deydi ko'ksiga urib ayrimlari. Haqiqatan ham ayoli undan ziril-laydi. To ko'chaga chiqib ketguncha atrofida bo'z qo'yib yuguradi. Ko'zlari hadik bilan unga jovdirab turadi. Shuning uchun erkakning ko'ngli to'q – "gah" desam ayolim qo'limga qo'nadi, uyda xo'jayin menman, deydi! Asli-da esa, asosiy ishlar ayolning xohishi bilan boshqarila-di: ayoli kimni maqtasa, erkak o'shangi iljayib qaraydi, kimni yomonlasa, o'shani yomon ko'radi. Ikki og'izgina xezlab qo'ysa, qo'shni bilan urishib chiqadi, ozgina gap yedirsa, xotini aytgan odamni borib mukofotlab keladi...

Kelin oyim, men bu o'rinda erkakdan g'azabga min-yapman, uni laqmaga ham chiqarmayman. Balki Alloh

ularni bizning foydamizga yaratgandir. “Mana senga zo'r, ammo g'o'r zot. Senga bergenim — tafakkur bilan undan **YAXSHILIK YASAYSAN**”, degandir. Bunday o'ylab ko'rsangiz, kuchga to'lgan bilagi, ixtiroga qodir aqli, yuragida sherdai shiddati bilan erkak **QUYMA OLTIN**. Ammo uni shu turishda na pul qilib bo'ladi va na chak-kangga qistirgani gul!

Ayol esa **ZARGAR!** Umr bo'yi erkagidan oilasi uchun kerakli narsa yasashga urinib o'tadi.

Kelin oyim, ilohim, insofli zargar bo'ling!

### *Nomingiz topishtiruvchi bo'lsin*

Kelin oyim, oilangizga uzoq-yaqin bo'lgan kishilar-dan ozorlansangiz, ichingizga yutib turing. Obdon mulohaza qilgachgina erkagingizga sezdiring. Yo'qsa, sizning gapingiz bilan bir sovigan kishisiga u qayta isi-may qo'yadi. Keyin chandon o't yoqsangiz ham o'rniga kelmaydi. Juftingizga u egachi-singildir, tog'a-jiyan yoki onadir yo sizning qavm-qarindoshingizdir, har ehtimol-ga qarshi, ular haqida erkakka faqat yaxshi axborotlarni aytish lozim.

Deylik, siz juftingizga yaqinlari haqida hech yomon gap aytmaysiz. Lekin bu siz uchun hali yutuq emas, bu bilan hali sizning nomingiz yaxshi emas. Boisi, uylan-gan erkak uchun ayol tayanch nuqta, iqlim yaratadigan manba bo'lib qolarkan. Ayol bamisli dirijyor – qo'lidagi cho'pi qayoqqa qimirlasa, oiladagi kuy shu yoqqa o'zga-raveradi. Balki bu tabiiydir, shunday bo'lishi kerakdir. Demak, erlarimiz g'ofil qolsa, biz aybdor! Odamgarchili-gi sust ketsa, bizda xato! Juftingiz opasini yoki singlisini yo'qlamay qo'ydi. Siz bormang demadingiz, faqat eslat-madingiz. O'zingiz esladningiz, lekin bormasa bormas, xarajat kamroq bo'ladi deb, atayi aytmadingiz yoki yo-

dingizdan ko'tarildi. Gohida eslatsangiz ham bormasligi mumkin. Ba'zan shunday gaplarni eshitamiz: "Menda nima gunoh ming marta opangiznikiga boring, boring deyman, hatto yig'lab ham undab ko'rdim, bormadi", deydi! Demak, o'sha jigarning bir gapi yo u yashaydigan muhit uni itarib turadi, u tomonning yurak tortadigan iliqligi kam. Kelin oyim, mana shu o'rirlarda juda hush-yor turish kerak: erkakka ochiq xitob, so'ppaygan taklif singmaydi. Eng yaxshisi, siz joyini topib o'sha qayinsingil yoki qaynog'angizning yaxshi ishlaridan gap tash-lab boring. Ularning erkagingiz haqidagi yaxshi gaplarni qo'shib-chatib eslatib turing. Yana shunday gaplarni ham deb turing:

– Eshikdan akangning yo ukangning kirib kelishi quyoshning kelishi bilan teng bo'larkan, tunov kuni aka kelganda chunon yayradim-da!

– Qaynonam sizlarni yaxshiyam o'g'il-qiz qilib tug'ib-dilar. Akasi ko'rganda qiz bolaning hamma g'ami unutiladi.

Yoki:

– Xudo xohlasa, hayit kelsa, opangizning uyiga saharlab kirib boring. Dadasi tirilib kelganday bo'lsin. Bilasizmi, ernen uyi jannat bo'lsa ham, ayol kishi ostona poylab jigarini kutadi!

Yoki:

– Bugun tushimga singlingiz kiribdi. Sal xomushroq ko'rdim-da, tinchmikan?

...Va hokazo! Shunday gaplar asnosida juftingizning jigariga moyillashayotganini, isib borayotganini shundoqqina sezib, mazza qila borasiz. Dunyoda uzilganni ularashday, yarimlarni yaxlitlashday farog'at bormi?! Kelin oyim, esingizda bo'lsinki, jigarlar o'zlari hech qachon bir-biridan sovumaydi, ularni oraga kirgan begonalar

ajratadi. Bunday hollarda hamisha hadik va guman kelindan bo'ladi. O'sha yomon nom sizdan soqit bo'lsin.

Yana o'ylarsiz, shuncha zaxmat bir kelinga ko'p emasmi, bolamni boqamanmi, jigarlarni topishtiramanmi deb! Uzoqni ko'zlasangiz, shunday qilasiz. Sizning nomingiz topishtiruvchi bo'lsin, yaxshiliklarni uyushtiruvchi bo'lsin. Javobiga o'g'illaringizga o'zingizday insofli, iymonli, jon ozig'i kelinlar kelajak!

### *Bizning sharqona odobimiz*

O'g'il bolalar onalariga suykaluvchan bo'ladilar. Ona sifatida aytamanki, o'g'illarimga ko'proq bog'liqligimni, har safar ular haqida o'ylasam, yuragimda tog'lar yukselayotganini sezaman. Ayol borki, men kabidir.

Kelin kelgach, bir bulbuling ikkita bo'lganday, ikki oy, ikki quyosh uyingga baravar tushganday bo'ladi. Xonadoning kamalak rangiga belanadi. Sururdan boshing aylanadi. Lekin shu bilan birga, o'g'lingning sendan asta-sekin uzilayotgani va kelin tomonga bog'lanayotgani sezila boshlaydi. Yaxshi ona "O'g'lim o'z juftini topti-da, hali bular yosh-da" deya o'zini yupatadi. Kaltabin ona esa "Kecha kelib, o'g'limni o'ziga qaratib oldi-ya" yoki "O'g'lim kelinni mendan a'lo ko'rди-ya" degisi keladi. Birinchi ona yuragida mung tursa-da, o'zini bu holatga oson ko'ndiradi. Keyingi battol ona esa, shu ondan boshlab, kelinchnakning xatolarini izlashga tushadi. Nafaqat ona, opalar ham, singillar ham nihoyatda yashirin holda, sal bo'lsayam kelinchakdan jigarlarini qizg'onadilar. Buyuk Sharq odobida kelinlik ilmi katta ilm hisoblangan. Kelin oila muvozanatini saqlaydigan o'q tomiridir. Uning har bir xatti-harakati hisobda turadi va momolarimiz bu borada shunday yo'l tutgan ekanlar:

1) kelinchak oila a'zolari qoshida kuyoviga hech qachon yuzlanmagan;

2) kuyov ham uydagilar eshitadigan joyda kelinning otini atab chaqirmagan, hatto umr bo'yи er-u ayol bir-birlarini farzandlarining nomi bilan chaqirganlar;

3) atrofdagilar qarab turganda, kelin-kuyov bir-biri bilan pichirlashib gaplashmagan;

4) kelinning oila a'zolari oldida kuyovga noz-istig'no qilishi yoki kuyovning kelinga atoyi lutf qilishi uyat hisoblangan.

Kelin to oilaga kirishib, kuyovning xonadoni uni farzandday suyub qolgunga qadar, yuqoridagi usul muolaja o'rnida bo'lgan yo aytish mumkinki, o'shanday yo'l bilan kelin kuyovning yaqinlariga botmaygina singishib borgan...

Kelin oyim, shu kuyov sizniki — umringizning oxiriga cha ming aylanib, ming o'rgilib yashayverasiz. Faqat o'zin-gizni shunday tutingki, kuyovga ham obdon o'rgating-ki, go'yo o'g'llari sizdan ko'ra ota-onasini, aka-ukalarini ko'proq yaxshi ko'radi va shuning uchun ularga doim e'tibor beradi. Ana o'shanda siz malol kelmaysiz, oiladagilar xotirjam yashaydilar, o'zingizga ham kelinlik tatiydi.

Nafsilamrini aytganda, opa-singillar uchib ketadigan qushlar, ota-onaning yo'li esa darvozaga yaqinlashib qolgan. Ularni ko'rib qolish, suhbatlashib, erkalanib-yayrab qolish ham o'g'il uchun g'animat! Ota-onsa bola boqib emas, kelin ko'rib, qiz chiqargach ko'proq aziyat chekadir. Ularning kun botarida duosini olib qoling, kelin oyim!

*Avvalo, ayolning ta'bi pok bo'lsin!*

Qush uyasida, kelin onasida ko'rganini qiladi. Uyadagi ishlarning xato bo'lganligini anglab turib ham uni takrorlab qo'yaverar ekan bandasi...

Kamolga yetgach, keyinchalik oilalik bo'lganimdan so'ng ham, onamning ba'zan jahl ustida aytib yubo-

radigan ayrim so'zlaridan og'rinar, bunday qattiq gapni atmang, deb norizolik bildirardim. Yigirma beshga kirdim – unday gapdan o'zimni tiydim. O'ttizga kirdim – aytmadim. O'qiganman-da, onamdan ko'ra madaniyrozman, deyman o'zimcha! O'ttiz beshga kirdim, bolalarim avji to'plonchi bo'lgan, ketma-ket og'riydi, hech narsaga ulgurolmayman, asabim qaqshagan. Bir kuni to's-to'polonning ichida o'sha men yomon ko'rgan xitob jaranglab eshitilyapti-ku. Va uni aytayotgan o'zim edim! Ana sizga "uya"ning ta'siri!

Kelin oyim, hatto musavvir ham bola ko'chirganday nusxa ko'chirolmaydi. Katta bo'laversin, to'g'risini o'rgatib qo'yaman, deb g'ofil bo'lman. Bolani birov deb o'ylang va aybga sanaladigan ishlarni uning oldida qilmang. Yashirib yurgan xatolaringizni kun kelib, bolangiz o'zining misolida oshkora qiladi. Bola onaning tili bilan aytganini yoki urib-so'kib o'rgatganini emas, uning qilagnini oladi. Oshxonangiz to'la yuvuqsiz idish, kunda shu. Oshxona shunaqa bo'ladi deb ko'nikyapti qizlaringiz. Oilangizdagilar narsalarni xohlagan joyiga qo'yib ketaveradi, chunki uyingizda hech narsaning o'z joyi yo'q! Kecha tiktingan ko'ylagizingiz yuviladigan kirlarga aralashib yotadi – qizingiz uchun ham andoza. Kiyim javoningizni ochishingiz bilan ichidagi matohlar boshingizdan quyilib tushadi. Tokchalarda chang bosgan buyumlar yig'lab yotadi... Qaynonangiz keladigan kun hammayoqni jon talvasasida bir qator qarab qo'yasiz. Boshqa kunlari esa, axlatning ichida non yeb, axlatning ichida uxlayverasiz! Shuning ichida qizingiz ham ulg'ayyapti!..

Sizga endi gapirishning foydasi yo'q. Sizning suyagingiz shundayligicha qotdi endi. Faqat bu bexosiyat tutum qizlaringiz bilan boshqa xonadonlarga ham o'ta-

jagi uchun yig'layman. Sarflangan pulni-yu qo'yavering, birovlarning qizlaringizga bag'ishlaydigan umrlari uvol bo'lajagi uchun yig'layman.

Kelin oyim, dunyoda duolar son mingta! Ammo sizga faqat pokizalik tilayman. Pokiza bo'lmasangiz, uyingizga boylik kelmaydi. Kelsa ham barakat bo'lmaydi! Barakat bo'lsa-da, tinchlik bo'lmaydi.

Alloh, avvalo, ayolning ta'bini poklasin ekan...

### ***Behafsala ayol – eng xunuk ayol!***

...Bir kuni eshik ochsam, qo'shni erkak yuzida xijolat bilan turibdi. "Aybga buyurmasangiz, bir iltimosim bor, – deydi qizarib, – uyatli joyga ketayotgandik, o'rtog'ingizni uyingizga tushiray, soch-pochlariga bir oz e'tibor qilib qo'ying". Ketidan chimirilgancha ayoli chiqdi: "Ko'rmaysizmi, bu erkakning oliftaligini! Bejanib o'zimni bozorga solamanmi?" deydi. Ko'p ham urinmadim, uning quloqlarini berkitib, ro'molini o'xshamlik qilib o'ratdim. Qosh-ko'ziga qalamni hazilakamiga bir-ikki tegizib edim, oyday bo'ldi-qoldi. Husnini o'zi ko'mib yurar ekan. Bu ayol sodda emas, kamtar emas, borib turgan erinchoq va g'ofildir. Bilingki, o'ziga qaramagan ayol uyinga ham yaxshi qaramaydi. Bolasiga ham xuddi shunday! Bundaylar bilan yashaganlar esa hech qachon baxtli bo'lmaslar. Ayol bo'la turib zavqi bo'lmasa, go'zallikdan yayramasa, uydagilarga ham tinmay malohat ularhib turmasa, hammayoq kul rangiga kirib, uning boqqan bolalari ham to'nka tabiat bo'lib qolmaydimi?!

Avvalo, ayol o'zi uchun bejanadi. Oynaga qarab, "hayriyat, ko'rinishim yomon emas, xudo xohlasa, hali yaxshiman, qarib ketganim yo'q" degan yupanch topish ilinjida o'ziga oro beradi. Qolaversa, atrofdagilarning ko'ziga botmaslik, bo'lar-bo'lmas ko'rinish bilan kayfiyatlarini buz-

maslik uchun o'zlariga qaraydilar. Yarashiqsiz tikilgan kiyim bilan, yirtiq yoki etagi so'kilgan ko'yak, yoki o'ngib yer rang bo'lib ketgan ro'mol, yoyinki xunuk turmaklangan soch bilan yurish yon-veridagilarga, ayniqsa, yosh-larga yomon ta'sir qiladi, ularni didsizlikka ko'niktiradi.

Bir kuni bog'cha boladan so'rayapman:

- Sen nimani juda-juda xohlaysan?
- Ayajonimni chiroyli bo'lishini.

Ana sizga kichik bolaning katta orzusi! Go'zallikka ehtiyoj bola bilan birga dunyoga kelarkan. Uning ko'zini shu paytda tilagan narsasi bilan boyitilsa, dunyoda did-siz odamlar qolmaydi. **Go'zallik sabog'ini oilada faqat ayol beradi va o'zining misolida!**

### ***Ortiqcha mehr ko'rsatish xorlik keltiradi***

Siz kelin bo'ldingiz. Onangiz sizga bo'lgan muhabbat-tufaylimi, yoki qudalarga o'ktamligini ko'rsatmoqchi bo'ladimi, haytovur, kunda, kun orada tugun jo'nataveradi. Ota-onangizning topishi yaxshi. Uning ustiga siz ham telefonda buyurtma berishni qo'yiamsiz! Bir necha yilki, shu ahvol.

Kelin oyim, shu o'rinda aqlingizni yig'ing va tahlil qilib ko'ring:

Birinchidan, atrofdagi kelinlarning orqasidan har kunda tugun kelyaptimi? Kelmayotgan bo'lsa, nima uchunligini o'ylab ko'rdingizmi? Ovsinlarning o'ksib qolishi mumkinligini ham hisobga olyapsizmi?

Ikkinchidan, ota-onangiz kon emas, erta turib indinga imkoniyati torayib qolsa, tinmay oqayotgan ariq to'xtab qolsa, unga o'rganganlarning muvozanati qanday bo'ladi?

Uchinchidan, tushgan joyingiz o'ziga to'q oila. Nega ular qudaning oziq-ovqat tashishidan oriyat qilmayapti-

lar. Bezovta bo'lmanglar, bir kelinni evlab boqib olamiz demayaptilar?! Ularning oriyati qani? Va yana bir xatarli tomoni bor: "Quda bekorga og'zi-burnimni moylayotgani yo'q, boshqa qudalari mening darajamda emas shekilli, demak, men qudachilikni zo'r qilyapman, qolaversa, o'g'limga qizidan o'n marta chiroylirog'ini olib berishim ham mumkin edi-da, shuning uchun poyi-patak bo'lyapti", degan gumroh fikrlar tug'ilib qolishi mumkin.

Yana buning ustiga: bora-bora kuyovingizning g'ururi sust ketadi. Qaynotaning kaftidan don yeishni o'rGANADI. Va xudo ko'rsatmasinki, kunlardan bir kun "Boyvachcha otangga ayt, u olib bersin, bu olib bersin" yoki "Bor, otang boqib olsin" deb qolishi ham hech gapmas!

Qiz bola tushgan joyi yog' yesa yog' yeydi, tosh yesa tosh! Boriga shukr qiladi, yo'g'iga sabr! Ro'zg'orning qiziqi shu yerda!

Kuyovning ostonasiga qudalarning kunda-kun orada iljayib kirib kelaverishi ham o'zbekchilikdan emas. O'rni keladi, qolaversa, el qatori hayit-arafalar, marosimlarda yarashig'i bo'laveradi.

Kelin oyim, "ko'p berma, ko'ngil qo'yma" degan gap kuyganlarning gapidir. Birovga keragidan ortiq izhor qilingan mehr-muruvvat xorlik keltiradi. Shu qulog'in-gizda bo'lsin...

### ***Erkakka hamisha rag'bat kerak***

Juftingiz bozor qilib kelganda chehrangiz hamisha ochiq bo'lsin. Chunki olomonning ichida savdo qilish, yukni uygacha keltirish aziyatli ish! Erkagingiz nima olib kelgan bo'lsa ham, o'sha narsalar tugaguncha ko'nglingiz to'lmanini bildirmang. Qilgan yaxshi savdosini bot-bot maqtab turing: "olgan kartoshkangiz biram yaxshi-ya, choyni zo'ridan olibsiz-da, guruch tanlashga ustasiz-da", kabi lutflar

erkakni tarbiyalaydi, uning ko'ngli o'sadi, keyingi gal yana-da astoydil bo'ladi. "Nega qolgan narsalar haqida indamay-siz, ular yoqmadimi?" deydi u. "Yo'q, ular ham yaxshi", deb qo'yasiz qisqagina. O'sha yomon narsa tugab juftingizni yana bozorga yo'llayotgandagina yotig'i bilan "O'tgan safar go'sht yoki sabzining falon aybi borligidan olib qo'yibsiz. Endi o'sha tomonlariga ehtiyyot bo'ling", desangiz kifoya.

Umuman, kelin oyim, ro'zg'orga ilinib qimmatmi, ar-zonmi, qo'lida nimanidir ko'tarib kelganki, erkak **YAX-SHIDIR!** Ularga rag'bat berib zukko bozor qiladigan, olib kelgan buyumlarini boshimizga qo'yib yurib, ro'zg'orga qayishadigan, bolalarni chug'urlatib rahmat ayttirib yu-rib bolam-chaqam deydigan qilib olamiz-da!

### *Erni er qilish mashaqqati*

Erkakning yana bir zaifligi bor. Puli tugab qolsa, qovog'i tushib, tegmanozik bo'lib qoladi. Shunday paytlarda sizga tinchlik kerak bo'lsa, unga noxush gaplarni aytmay tu-ring. Dunyoning puldan ko'ra ming marta go'zal ne'matlari borligiga ularni ko'rib, tuyib maza qilishga chorlang. Bolalarning yaxshi ishi, shirin gapidan atrofdagi chiroyli ishlardan gapirib chalg'iting, tor dunyosini yoriting.

Kuch ketadigan, vaqt, kayfiyat ketadigan, balki mab-lag' ketadigan muammo va maslahatlarni juftingizning puli bor paytiga to'g'rilang. O'shanda kayfiyati yaxshi bo'ladi. Ishingiz oson bitadi.

"Ayol yuragiga qil sig'may turganda ham, hamma ishga balogardon-ku", demang, "Erlar nega bunday", deb siql-mang. U kuchli salohiyat Ayolga berilgan, erkakda yo'q. Insondon imkoniyatida borini talab qilish kerak. Kaptar-dan bulbullik, olcha daraxtidan o'rik so'rolmaymiz-ku!

"Erni er qilish" mashaqqati shu bo'lsa kerak...

### *Agar jahlingiz chiqsa ...*

Kelin oyim, oila, ro'zg'or degani hamisha bir necha fikr va fe'lning tinmay to'qnashuvi, munozaraga kirishuvি demakdir. Gohida bir onadan tug'ilganlar bir-biriga singmay qoladi-yu, chetdan kelgan kelin ancha-muncha ilg'anishi turgan gap.

Gap qaytarish beodoblik! Ammo har gal indamay qo'yaversangiz, asta-sekin yelkangizga va boshingizga oyoq qo'yib yuborsalar, vaziyatni yengillatadigan javob toping, sizda ham o'tish mumkin bo'lмаган chegara borligini ozgina sezdiring. Lekin, xafa bo'lsangiz, jahlingiz chiqsa, jahlingizni chiqargan oxirgi narsa haqidagi na gapiring. Hargiz eski-tuski ginalarni sanamang, ozor berganni qarg'amang, atab chaqirmang, ovozingizni ko'tarmang! Chunki bu to'qnashuvdan keyin, xayrlashib chiqib ketolmaysiz. Yana hayot bor. Shu uyda bir necha yildan beri yashayapsiz. Qanchadan-qancha yaxshiliklar, chiroyli kunlar albatta bo'lган. Nega ularni unutasiz-u hamma xato yoki yomon ishlarnigiga xotira xaltangizda to'plab yurasiz?! Ko'ngli, fe'li qora odam shunday qiladi, yodingizda bo'lsin!

Birovni yomonlaydigan odam avvalo o'zini qaritadi. G'iybatchilik, ginachilik yomon elektronning ichida yashash demakdir. G'aybulla as-Salom "Tolibnoma" kitobida: "Devorning ham qulog'i bor, u odamlarni tinglab yashaydi. Ichida kulgu, mehr-muhabbat shevalari, kuy-qo'shiq yangragan imorat nuramaydi. Ammo haqorat, yig'i, janjal bor xonardon zimdan to'kilib boradi", deydi. Kelin oyim, sizning shevangizdan nafaqat kishilarning, balki sizga qulq solib yashayotgan imoratlarning ham bag'ri butun bo'lsin.

\* \* \*

Mana o'zingiz kelin bo'lib ko'rdingiz. Kelin o'zidan o'tganini o'zi biladi-yu, xudo biladi: birovlar uchun xizmat, har bir qadamingga qator nazoratchi, qisinib ovqatlanish, qisinib gapirish, bir paytning o'zida ham-maga "tez yordam" bo'lish... osonmi? "Ro'zg'or" degan sinoatu "bola" degan shirin dushman ushlab turmasa, har daqiqada uchib ketging keladi bu dargohdan...

Kelin oyim, o'z uyingizda qayinsingil yoki qayne-gachi tarzida keliningizga bergen ozorlaringizni endi yu-ving. O'zingizdan kichik qayinsingilning sizga tepadan qarashi, hatto tanbeh berishi joningizni og'ritganda, kim edim-u kim bo'ldim deb, ichingiz yig'laganda keli-noyingizdan xayolan uzr so'rab qo'ying. Uning yuragiga o'zingiz sanchgan tikonlarni olib tashlashni niyat qilib qo'ying.

Agar onagizni haqiqiy sevsangiz, unga sadoqat ko'rsatmoqchi bo'lsangiz, onangizning kelinlarini eriting, ularga yoqib oling. Chunki, kattalar yoshiga yosh qo'shilgan sari eskirib, fe'llari toraya boradi. Bundan bu yog'iga ota-onangizning yoqadigan ishidan yoqmay-digan ishi ko'payishi aniq. Va ularning hamma ishi kelinga tushib turadi. Ota-onangiz aytmagan minnatdorchilikni kelinga siz aytib turing, ular ilinmaganini siz ilinib tu-ring. Oralariga ko'prik bo'ling, ikki tarafni bir-biriga tu-shuntiruvchi, isituvchi bo'ling.

Birovga yomonlik qilib hech kim rohat topgan emas. Sizdan minnatdor bo'lgan keliningiz sizni rozi qilish uchun ham ota-onangizga muhabbat bilan xizmat qila-di. Sizning bu "yamoqchi", bu "suvoqchi" lizingizdan hamma manfaatdor: ota-onangiz mehr ichida, keliningiz xursand, o'zingiz xotirjamsiz.

### ***Dilozor bo'lmang***

Senga ko'z, qulqoq va tafakkur berdim, ehtiyotingni o'zing qil deydi Alloh. Ko'ring, eshititing va tanangizga o'ylang: akaning xotiniga qattig' dilozorlik qilib kelgan bir ayolni bilaman. Bir qizi bebaxt bo'ldi, ikkinchi qizining farzandi turmadi, uchinchi qizi kasalvand. Bir nabirasi nogiron tug'ilди, ikkinchisi yana aybdor...

Shaharni vayron qilishdan ko'ngilni vayron qilish yomon. Dilozorga Allohnинг javobini ko'rib turibsiz.

### ***Ko'rpachasidan ma'lum bo'ladi...***

Onam rahmatli dangal ayol edi. O'zi bilgan ayrim xonadonlarning to'yiga ham kirmsardi. "Uy tutmay o'lsin shu ayol, umr bo'yi to'shamgi oqarmay o'tdi-ya", der edi astoydil kuyinib. Kelinning chatog'i ko'rpachasidan ma'lum bo'ladi.

Uyimizda kam-u ko'st ko'p edi, ammo hech qachon kir to'sham bo'lgan emas.

### ***Onasini eslatib turing ...***

To'y kechasi chimildiqqa kirib ketayotgan o'g'lini bir bor chaqirib o'ziga qaratish udum emish. Toki onasining chorlab turgan ovozi qulog'iga, nigohi nigohiga yozilib qolsin uchun, toki ayolning poyiga muk tushmasdan, ortiga bot-bot qarab, onasining ko'zini izlab turishi uchun...

Kelin oyim, yaxshi kelin atalay desangiz, juftingizga ortda qolgan onasini tez-tez eslatib turing...

## KUYOVGA MASLAHATLAR

Sen kuyov bo'lding. Chimildiqlar nasib etgani muborak bo'lsin, o'g'lim! Yodda tutki, juftlik qog'oziga sen zaminda imzo chekyapsan-u nikohing aslida osmonda o'qiladi. Nikoh muqaddasdir, nikoh ilohiy! Shuning uchun bu ikkilikni "jufti halol" deydilar.

Endi qanoting qo'sh bo'ldi, ota-onangning bag'ridan uchib chiqding, go'shang, toming alohida endi. Oila degan mamlakatning sultonidirsan, amringni ta'zim bilan eshitayotgan anovi oyim esa vaziringdir.

Uylandingmi, tamom, so'zingda, o'zingda, tutumlariningda kunda bir yetuklik, ulug'lik alomatlarini ko'rsinlar. Qanoting qo'sh bo'lib, oydan uzilgan bir suluv senga mahrami jon saylanib, o'ng-u so'ling shoyi adreslarga burkanganda gurkirab o'smasang, shig'il gullamasang, seni qurshab turgan jannatiy imkonlar ning uvoli tutgay!

### *Chimildiqda aytiladigan birinchi gap*

Ishing zo'r bo'lib, martabang chandon ko'tarilib, tash-qarida hamma senga ta'zimda bo'lsa-yu, uyingda tinchlik, totuvlik bo'lmasa, bari bekor! Yer kurrasida g'imirlab yurgan-ki odam uyim, bolam-chaqam deb yuradi. Ko'chadagi ishlarini jadallik bilan bajarib, xonadoniga yugurgani yugurgan. Qizig'i shuki, inson yaxshi uyiga ham, yomon uyiga ham talpinaveradi. Shunisiga qarab, bu uydan yo baxtli, yo baxtsiz, yo butun, yo yarim odamlar chiqadilar. **"Oila" deb atalgan panohistonda yaxshi iqlim yaratish uchun esa ayolga ayollik, erkakka erkaklik ilmi suv, havo qadar zarur!**

O'g'lonim, hozirgi senga yetkazadiganim – dastlabki juda nozik ilm, yodingda tut: **erkak kishini asosan qulog'i yetaklaydi va uni ko'p balolarga giriftor qiladi.** Kelinchakka chimildiqda aytadigin birinchi gaping shu bo'lsin:

– “Ilohim, siz bilan birga hammamizga saodatli kunlar kelayotgan bo'lsin. Ammo aytib qo'yay, men oila a'zolar-imsiz bir bo'lakman, butunligim ular bilan. Meni dunyoga keltirgan mualliflarim, tumshug'ida suv, don berib voyaga yetkazgan xaloskorim – shu oilamdagilar. Ularning past-u baland fe'llari o'zimga ayon. Balki biridan sevinib, biridan kuyub yurarman, ammo qandayligidan qat'iy nazar, ular mening mulkim, mening qismatim, mahrimga tushgan, yoqmay qolsa, kechib yuborolmayman! O'rtaga qo'yadigan birinchi shartim shu: hech qachon jigar-bag'irlarimni menga yomonlamang. Siz tufayli hyech biridan ko'nglim qolmasin! Qo'lingizdan kelsa, ularni menga issiq ko'rsating, yomonlarimni yaxshi qilib bering! Agar bu iltimosimni bajarmasangiz, sizdan ikki dunyo rozi emasman!”

Mana shu gapni aytish qo'lingdan kelsin, o'g'lonim!

### ***Eng uyatli ish***

Hali ulg'ayguningcha o'zing guvoh bo'lasan, ayol zoti haqida “falonchi turmushga chiqqandan keyin yaqinlaridan kechib ketibdi” degan gapni hech kim eshitgan emas. Ammo uylangandan keyin aka-ukasi, amma-xolasi, hatto ota-onasidan nari bo'lib ketgan erkakni qadamda uchratib boraverasan! Buni UYAT deb bilgin, er uchun qaro yer bo'lish shu, o'g'lonim!

Yaratgan senga boshing to'la tafakkur berdi, qulog'ingga tushgan gapni avval unga uzat, tahlil qil! Atrofingdagi senga taalluqli bo'lgan jami mavjudlik sendan birday bahra olsin va bahra olishi shart! Chunki ular

doin senga nimanidir o'tkazib, uzluksiz nima bilandir ta'minlab turadi yoki bir paytlar ta'minlagan! Ularning baridan qarzdorsan. Ollohgaki bergen ne'matlari uchun tinmay shukrona aytish vojib ekan, bandalarining – u otang bo'ladimi, onang bo'ladimi, jigargo'shangmi, bari-bir, hamma yaxshiligi – qarz! Ularga orqa o'girib ketib bo'lmas, ketsang-da yo'ling unmas, niyating ushalmas!...

### ***Kuyovlik ham qarzdorlikdir***

O'g'lonim, ota-onangdan ko'rgan mehr-muhabba-tingga gap yo'q, ammo hayotingda eng yuksak izzat-hurmatni kuyov bo'lganiningda qaynona-qaynotangdan ko'rasan. Millatimizning taomili shunday, bolasiga, hatto o'ziga ilinmagan hurmatni, mukofotni kuyoviga tutadi. Sochlarining oqi bilan kuyovi qoshida ta'zimda turadi. Xullasi, uni bolasidan a'lo ko'radi.

O'g'lonim, sen bu muhabbatlardan rohatlan va shu bilan birga bir o'ktamlik qil: ular o'g'illariga ko'rsatmagan yaxshiliklarini senga beryaptilarmi, sen ham goh-gohida ularga o'g'illari qilolmagan muruvvatlar ko'rsat, qadlarini ko'tarib qo'y. Avvalo kuyovdan hargiz umidvor bo'linmaydi, aslida esa ulardan sening qarzdorliging katta! Gulday qizlarini jonlaridan uzib, umrbodga senga berib qo'ydilar, uning ustiga bir uy mol ham qo'shib berdilar, bu ham yetmaganday, topganlarini ostonangga tashiganlari tashigan. Ustiga ustak seni kaftlarida tutishlarini qara!

O'g'lonim, sening ham ularga muruvvatpesha bo'lishing yigitchilikdandir!

### ***Kuyovlikka yarashiqli bo'l!***

"Ulfating qarg'a bo'lsa, yemishing go'ng" degan gap bor. Kuyov bo'lgan zahoting ko'chadagi joyingni bil, ar-

zon jo'ralarni yig'ishtir. Uylanish – ko'p qatori risolaga tushish degani, shu kungacha sen faqat o'z urug'-avloding nazari ostida yurgan bo'lsang, kuyov bo'lgach, endi seni kuzatuvchilar butun bir avlodga ko'payadi. Yurt orasidagi yurish-turishing bilan nafaqat o'zingning, balki qaynota-qaynonang, qayinbo'yinlaring sha'nini ham himoya qilib yurasan yoki teskarisi!

Shunday bo'lib ol-ki, senga ulangach, qudalarning obro'siga obro' qo'shilsin. Hattoki, sening andishangni qilib, o'zlarining ayrim qusurlariga chek qo'yinsinlar.

Bu – sharofatli kuyov bo'lganining, o'g'lonim!

### ***Kuyov bo'lish qatorga kirish demakdir.***

Endi maslahat ovoziga egasan. Quda taraflarning to'risi seniki. Uka-singillaring taqdiri haqidagi maslahatlar se ning ishtirokingsiz o'tkazilmaydi. Endi mahalladagi, qarindosh-urug' orasidagi fotiha lozim joylarga, janoza marosimlariga o'z nomingdan qatnashishing shart. To'ylarga-yu, bemorlarni yo'qlashga ota-onangdan tashqari, alohida sovrin va o'z tuguning bilan borasan. Taomil shunday.

### ***Ayolingni asray bil***

Oila a'zolaring oldida ayolingga ha deganda e'tibor be-raverma. So'z qotaverma. Tashqarida, do'st-u qadrdon-laringning orasida juftingni ta'riflama, u haqda gapirging kelavermasin! Boisi, bir savol paydo bo'ladi: tegrangda ayolingdan boshqa azizroq odam yo'qmi? Ular ta'rifnishga arzimabdimi? Va hokazo... Oila mustahamligi qachon darz ketadi? Boshqalarni bir tomonga surib, hadeb bir kishini maqtayverishdan! Qolaversa, ayoling parda ortida asraganing, oriyatingga o'ragan gavharingdir. O'z asraganini esa risoladagi erkak o'rtaga solavermaydi!

***Har bir harakating hisob-kitobda,  
ko'zingni och, o'g'lonim!***

O'g'lonim, kelin kelguncha uyingdagilar uchun bola eding, uncha-munchaga sendan gina qilmasdilar. Kuyov bo'lgan zahoting katta kishiga qanday qarasalar, seni shunday taftish eta boshlaydilar: endi sen uchun eng qaltis joy - oilang, yaqinlaring! "Ro'zg'or" degan xilqatning hyech qaerda yozilmagan qonunlari, hukm va jazolari bor. Ko'pincha sening xatolaring uchun ayoling javob beradi. Ehtiyyotsizliging bois, bitta o'zing bir necha kishiga ziyon yetkazasan. Bir jon senga turmushga chiqib farog'at ko'rmoqchi edi, ko'rsin! Ota-onang seni uylantirib orzu-havasga erishmoqchi edilar, erishsinlar!

Ko'chadan kirarkansan, so'zing bilan ham, ko'zing bilan ham avval onangni izla, otangni ziyyarat qil, ahvollarni so'ra, so'nggina ayolingni ko'r va bolangga e'tibor qil. Bilginki, ota-onangning bitta ishi qolgan, u ham bo'lса, kunda sening eson-omon ishdan kelishingni kutish! Sen esa kela solib, ayolingni so'rading yoki bolalarining alqashga tushding. Shugina xatoingning kasrini ko'r: ko'zim tegmasin deb, seni hatto o'zidan ham qizg'anib o'tgan ona seni butunlay egallab olgan kelindan qizg'onmaydimi!? Muvozanat bundan tarang tortadi, qaynona-kelin mojarolari boshlanadi.

Onalar ham ikki xil bo'lgich. Bag'ri kengi aytadi: "Xudoga shukr, bolam ko'chadan kelsa, kutib oladigan ahil ayoli, ovuntiradgan bolalari bor, endi xavotir olmasam ham bo'ladi. Huzurimga uncha yugurmayaptimi, demak, bolam mensiz yashay oladi, endi mening tirgovuchligimga ehtiyoji qolmabdi,"- deb o'zini ovuntirgan bo'ladi. "Bolam meni kamroq o'ylab qoldi", degan dahshatli fikrni o'zidan haydashga urinadi. Va g'ash ko'ngliga: "Hadeganda kasal bo'lib, uni ham chiqimdar,

ham bezovta qilyapman. Bu bolamga jabr, asta ketib qo'ya qolsam, unga yengilroq bo'larmidi,"- degan dilgir o'ylar keladi! Bola-chaqasi bilan o'ralashib, onaday g'animatidan chetlab qolgan o'g'lonim, ko'ryapsanmi, voli-dang ming rizolik bilan o'ziga o'lim so'ray boshladi...

Bag'ri tor ona aytadiki: "Bu kelinning ishi! Kecha ke-lib, bugun o'g'limni xushidan judo qildi-ya, o'g'limning og'zidan oti tushmaydi-ya, bola tug'ib berdim deb, bo-lamni egalladi qo'ydi!"... va hokazo. Qarabsizki, kelinning hamma ishi yomonga chiqaveradi. Bu holatni tug'dirgan sen bo'lding, sening beparvoliging bo'ldi!

Uylanganingdan keyin egachi-singil, aka-ukalaring-ga ko'proq mulozamatda bo'l. Ko'rар ko'zga o'zingni ayo-lingga e'tibor bermayotganday tut.

Xayit-arafalarda saharmardondan birinchi onang-ni yo'qla, keyingina qaynonang va boshqalarga bor. Cho'ntaging ko'targan eng yaxshi narsani ota-onangga tortiq qil. Onang aslo sovg'a so'ramasa ham, sovg'a kel-tirmaslikni tayinlasa ham, hech qachon huzuriga quruq borma! Bolaning qo'li uzatgan ne'mat ota-onaga janna-tiy rohat beradi.

Ota-onang qay ahvolotda bo'lishidan qat'iy nazar, atrofdagilardan oriyat qilma, bag'ringga bos. Bemor bo'lsa, hech kimga ishonma, o'zing yemak ber, o'zing pokizala! Qo'llaringda ko'tarib yur, kulib gapir, kulib eshit. Ularning bu dunyoda farzandlaridan, ya'ni sendan boshqa xaridori yo'q! Duo qilishni bilmaydigan ota-onaga ham muhabbat ko'rsataver, seni Yaratganning o'zi ko'klarga ko'taradi. Kimki kam bo'lmahti, kimki aziz-u mukarramdir - ota-onasidan duo olgan insonlardir. Ota-onangni kaftingda tutganining bolalaring ko'rib tur-sin, javobiga, o'g'lonim, ular seni boshlarida ko'taradilar!

## ***Juftlik mas'uliyati***

Er-u ayolga nisbatan el orasida “ikki yorti – bir butun”, “uzukka ko'z solganday”, “yulduzi yulduziga to'g'ri” degan iboralar ishlatiladi. Bu gaplar bari nisbiy. Aslida, erkak va ayol musbat va manfiy voqyelikdir. Ular mijozlaridan boshlab didlarigacha, ruhiy dunyolaridan tortib ovozlarigacha bir-biriga mutlaqo nomutanosiblar va hamisha orasidan o't chiqib turadi! Er ham, ayol ham shu qarama-qarshiliklar ichra umrguzaronlik qiladi, aqlilar juftidan chatnayotgan o'tda joni kuyib ketmasligi va o'zi ham yonidagi hamroxini yaralab qo'ymasligi uchun, qilning ustida yurganday yashab boradilar. Bular uy tutishda tadbirkorlardir. Oila do'kon emas, istirohat bog'i emaski, zerikib qolsang qaytib chiqaverGANI! O'g'lon bolam, sen bu holatdan hayratlanma, aksincha, unga tayyor tur.

To'y niyat qilgan ota-onas, odatda, “o'g'limizning boshini ikkita qilib qo'ysak” degan gapni ishlatadi. E'tibor berdingmi, juftlik bir tan-u, bir jon bo'lmoqlikdir. Ammo uning boshi ikkita! Birlikka aylangan bu qarama-qarshilikning oti endi - ro'zg'or! Ro'zg'orning hayot-mamoti shu ikkala boshga bog'liq.

“Oilada arning gapi o'tishi kerakmi yoki ayolning gapi? ” degan bahs mantiqsizlikdir! Ro'zg'or kimning qaysi gap bilan rivoj topsa, o'shangan amal qilinadi.

## ***Senga yuz foiz mos keladigan juft yo'q***

O'g'lonim, umr yo'ldoshlarni hech qachon “juft atir-gul”, “qo'sh bulbul” va yo “ikki yulduz” demaydilar – “qo'sh ho'kiz” deydilar! Va bu eng haq ta'rif!

Qo'sh ho'kizday yonma-yon, zo'riqib mehnat qilsangina ro'zg'or degan zil yuk joyidan jiladi. Er-u ayol bir

tomonga qayishsagina, umumiyl til topa olsagina bitta kuchga aylanadi. Oilada til birligi, kayfiyat birligi suvdir, havodir! Ikki yaxshi birlashgan taqdirda ham, juftiga moslashish uchun o'zini, albatta, o'zgartirishi kerak! Shunday deyish mumkinki, hayotda hech kim oila ostonasiga ro'zg'or uchun to'la-to'kis tayyor bo'lib kelmaydi. Uning sir asrorini ichiga kirsanggina bilib o'rganasan. Har bir oila, har bir inson - bir mamlakat, o'z iqlimi, o'ziga xos yashash qonunlari bor va u bilan hisoblashmoq va o'rni kelsa, sabru qanoat bilan o'zingga ko'ndirmoq kerak bo'ladi.

O'g'lon bolam, shundan xulosa qilki, sening ko'nglinga, oilangga yuz foiz to'g'ri keladigan juft hech qachon topilmaydi, didingga ellik foiz mos kelsa bo'ldi, faqat asli toza, fahm-farosatli, ziyrak bo'lsa bo'ldi, teng yarim fe'lini o'zingga moslab o'zing yasab olasan.

### *Chol bo'lguningcha "sevaman" dema!*

Insonning bir mo'rtligi bor: muddaosiga yetguncha joniqib ketadi, yetgan zahoti xotirjam tortib, erishgan narsasiga talpinishi tugaydi. Er-u ayol o'rtasida o'zaro intilish bo'lmasa, yashashning qizig'i qolmaydi. Juft bo'lish degani bir-biriga ko'nglidagi borini shag'al mashinaday to'kib solish emas. O'g'lonim, qulqqinangda tut, ayo-lingni yoqtirishingni hyech qachon o'ziga aytma! Shu masalada bir umr o'qilmagan kitob bo'l. O'shandagina u atrofingda aylanaveradi, juftimga yoqamanmi, yo'qmi degan savol uni bezovta qilaveradi va faqat senga yo-qish uchun afzallashishga tushadi, qarabsanki, hayoting go'zallahadi...

Erkak uchun ham, ayol uchun ham tuyg'usini sir tut-gan juft maftunkorroqdir.

## **O'zingni sharmanda qilma!**

Endi so'z RASHK haqida! Umr yo'ldoshing - muqadas nikohdan topgan halolu poking! To oxirgi yo'lingga-chá senga yelkadosh bo'ladigan hamrohing shu. Hech kimga aytilmaydigan gaplaringni aytadigan mahraming shu. Duru gavhar farzandlar beradigan xazinai yagonang – shu ayoling!

Avvalgi kitoblarimda ham rashk haqida odamzodning shu boradagi zaifligiga afsuslar chekib yozganman! Erningdir, ayolningdir zoti suyuq-quyuqligi, ma'ni dun-yosining kengu torligi rashk masalasida ochilib qoladi. Dunyoda eng kir, jirkanch nafs shahvoniy nafsdir! Juftiga xiyonat qilgan yoki shunga moyil odam o'sha nafsga yo'liqqan bad insondir! "Muhabbat" degan tabarruk so'zni bu yerga aralashtirma! Muhabbat yurakda bo'ladi, tomirlaringning tolalarida bo'ladi, yonida jufti turib, o'zgaga jismonan talpinish bu nafs, shahvoniy nafs, hayvoniy nafsdir!

Ey, o'g'lon! Juftni qizg'onishni ham sen muhabbat deb uqdirma! Bu-da nafs! To'g'ri, rashk – yaxshi ko'rishdan tug'iladigan tuyg'u. Ammo u tilga chiqmay, ko'ngillarning tubida simillab og'riq berib turadigan shirin bir tuyg'u. Qulog'ingda qolsin, sha'riy er-xotinlikning qoidasi shu - umrdoshday bebahoh kishingni rashk qilib, badxulqlarning ro'yxatiga yozish uchun guvoh kerak, musulmonchilikning talabida hatto to'rtta guvoh kerak! Ko'zlar ko'rib, qo'llar tasdiqlagan xujjat kerak, isbot kerak! Ammo bugun senu men ko'rib turgan rashklarning to'qson foizi-GUMON! Qur'oni karimda gumon qilguvchilarga eng og'ir jazo bitilgandir! Qanday qilib, oppoq nikohingga o'rab, yenglaringning ichiga yashirib yurgan gavharingni gumon bilan ming ifloslik ichra tasavvur qilasan?! O'z haloliningi, qanday qilib, xayolan

bo'lsa-da, xaromlarga qo'shib sanaysan! Bu ayoling-ga xiyonating-ku axir?! Hoxlagan paytida aynib ketishi mumkin deb hisoblagan kishing bilan bir uyda qanday yashaysan, bola-chaqa orttirasani?! Xalqda "o'g'ri hammani o'ziga o'rtoq, g'ar hammani g'ardek sanaydi" de gan gap bor. O'zi suyuq yoki suyuqlikka moyilligi boru, qulay sharoit bo'limgani uchun hozircha aynimay tur-gan odamlar juftini asossiz tarzda rashk qilaveradi. Sen o'zingni sharmanda qilma, bolajon!

**Ro'zg'ordagi ENG KATTA BAXT ER-XOTINNING  
BIR-BIRIGA ISHONCHIDIR!**

### ***Til-u qo'lingning egasi bo'l!***

Ro'zg'or – bamisli billur go'sha. Uni ehtiyo lab, yaraqlatib, jaranglatib, ko'zingni, o'zingni yayratib ya-shaydigan ham - sen! Xomlik qilib, chil-chil sindirib, siniqlarida umrbod tovonlar ingni qonatib yuradigan ham – sen!

O'g'lonim, ayoling yoningdagi doimiy xaloskoring, uyingning ustuni, shirindan shirin farzandlar beruv-chi mevali bog'ing, peshonangga xudo qo'ndirgan baxt qushidir! Unga aytildigan birinchi nojo'ya gapdan til-ingni tiy! Qo'lingning birinchi yugurishini to'xtatib qol! Xatar shuki, bir marta yugurgan qo'l yuguraveradi, bir marta so'kkan til so'kaveradi, bundan esa oilang befar-ishta, bolalaring beibo bo'ladi...

### ***Yigitchilik bu labzdir!***

Muqaddas nikoh o'qilayotganda "Juftimni bemor-u sog' paytida boqaman, havfu xatardan qo'riqlayman, farzandlarimga rahnamolik qilaman" deya Ollohg'a qa-sam ichgansan. O'g'lonim, yigitning o'zi sinsa ham, ORI-

YATI sinmasin! Yigit boridan ayru tushsa tushsin, lekin labzidan chekinmasin, o'g'il bolani mard qilib turadigan uning ichgan qasamidir - to'rt muchang sog' turib, ayo-lingning qo'liga mo'l tirama, tuproqqa chumoliday qo-rihsang qorish, ammo ahli ayolingni o'zing boq, ayol-ning topganiga qozon qaynatish sen uchun uyat bo'lsin!

### ***Ori yo'q erkakning o'zi ham yo'q hisobda!***

Bir tanishim qiz uzatdi. Kuyovning kasbi-kori, ko'ri-nishlari binoyiday. Yigit kelinni bir marta ham chertma-di, haqorat qilmadi, ammo ikki yil o'tar-o'tmas, qizlarini ajratib oldilar. Sababi, uch aka-uka qachon qaramang, ishdan kelgach, suhbatlashib yo televizor ko'rib o'tiri-shaverar, ikki kelin va bo'yiga yetgan singillari mahal-laning narigi boshidan qo'sh paqirlab suv tashir ekan. Va yana bir sabab: elektr haqini vaqtida borib to'lamagani uchun kuyov bolaning kelinchakni qattiq koyiganini eshitib qolibdilar. Bori aybnoma shu!

O'g'lonim, "shuginaga shunchami?" deyishing mum-kin. Muqaddas nikohni buzib, balki qizning ota-onasi xato qilgandir! Ammo shu kuyovning o'rniغا o'zingni qo'yib ko'r: o'zbek mahallalari ma'lum, yosh-u qari erkaklar hali u, hali bu darvozaning tagida gapni maydalab o'tirishni yaxshi ko'radilar. Ularning past-u baland fe'lligi bor, shularning nazari oldidan parda ostidagi ma'sumala-ringning hadeganda u yoqdan bu yoqqa o'taverishlari du-rustmi? Uning ustiga sen tirik bo'lsang-u, uyda ayg'irday ag'anab yotsang-u, ayoling tamoshabin erkaklar yonidan ikki paqir yuk bilan qiyshayib-mayshayib o'taversa! Ori-yating shuni ko'tarsa! Uning mushaklari uzilay deb tashib kelgan suvini uyalmay, xotirjam ichaversang!?

Shu kuyovning onasi ellik yoshdan sal o'tiboq vafot etdi. Jigari irib bo'lgan ekan. Aytishlaricha, bu ayol ke-

linligidan boshlab, paxsani ham o'zi urib, guvalani ham o'zi quyar ekan... Noshud erkagi esa, ayolidan keyin hech yo'q tirik yurishni ham uddalamadi, ko'p o'tmay qazo qildi, 19, 17, 10 yoshli bolalar uylanmay, joylanmay sargardon qolib ketdilar...

### ***Ayolni asragan avlodni asraydi***

Ota-buvalarimizning ma'naviyati qanday bo'lganini eshit: erkak kishi ko'chadan o'tib borarkan, biror darvoza oldida paqir ko'rдimi, darhol bu ko'chaning anhorini topib, suv keltirib qo'yib o'tar ekan. Eshik oldidagi bo'sh paqir bu xonadonda dastyor yo'q degan ishorani berarkan. Tanishmi, notanishmi, ayol kishiga og'ir yuk ko'tartirish millatning erkagi uchun oriyat bo'lgan.

O'g'lonim, ayolingni bozor, loy ishlaridan, molxon'a tozalash, suv keltirish, kunning tig'i, sovuqning zahridan asra! Sen uni ayashga qasam ichgansan! Va bu qasamning ijrosi, avvalo, o'zingga kerak - ayolingni ayasang, avloding butun bo'ladi!

### ***Gap yana ORIYAT haqida***

Bir shaharning hokimi koyinib: "Bir kuni o'nga ya-qin ayol shikoyat bilan kelBDi. Biri gaz, biri suv va yana boshqa-boshqa masalalarda. Ovozlarining jarangi xonani ko'tarib yuboray deydi. Kuzatib turarkanman, menga ularning jang-u jadali emas, boshqa narsa ta'sir qildi – bularning erkaklari qani deyman! Surishtirsam, hammasi erlik ekan! "Opajonlar, ertaga erlaringiz kelsin, o'shalar bilan gaplashay" deb kuzatib yubordim. Ertsiga azamatday-azamatday bo'lishib erlari kelishdi. Xonani ichidan berkittim-da ... aytadiganimni erkakchasi-ga aytib oldim"- degan edi.

“Sen mendan ko’ra gapga chechanroqsan,” – deb, nomahramlarning huzuriga ayolini ish bitirishga yuborayotgan erkakning hamiyati necha pullik? “Men chaq-qonroqman, siz uyda bolalarga qarab turing, falon yurt-dan mol olib kelay” desa, ayolini o’g’ri-yu to’g’ri, yomonu yaxshiga qo’shib yuborgan, yo’lda-cho’lda xalta-xalta yukni ortmoqlab, urinib-surinib yurgan jufti uchun vij-doni qiyalmagan, oriyati yig’lamagan erkak qanaqa erkak bo’ldi?!

O’g’lonim, bular shoir aytgan kabi “tiriklikda o’lik” kishilardir! Bu yo’l senga OR bo’lsin! Hunaring bo’lsa, mehnatdan qochmasang, muomalani bilsang, er emas, sher bo’lasan, boshing hamisha baland, xonadoning obod bo’ladi, ishon, bolajon!

### ***Farzandlaring unadigan zamin***

Ayolingning jismi-joni – farzandlaring unib chiqadi-gan zamin. Charchagan tomir, charchagan jon, charchagan asabdan hech qachon butun mag’izli bola unmay-di! “Ayol kishining joni qirqta” degan naqlni sen yomon ko’r, o’g’lonim. Ayolning joni bitta, u shu bir jonini qirqqa bo’lib yashaydi. Uning yonida yonbosari qancha kam bo’lsa, jufti qancha shudsiz yoki e’tiborsiz chiqsa, joni o’shancha ko’p bo’lakka bo’linadi. Xonanda kuylab, sozanda soz chertib yayraydi. Ayol esa uy bekalikni, ayollikni, onalikni joyiga qo’ysa, yetmish ikki tomiri yoziladi. Uyda, ko’chada o’zi-yu erkagining o’rniga yugurayotgan ayol – zo’riqayotgan, ayolchasiga yashashga oshina olmay, siqilayotgan jondir. Endi uning tiliga zo’r keladi – injiq, zahar bo’lib qoladi. Qarabsanki, bundan bola-chaqang ziyon ko’radi, o’zing asabiylashasan, oilada muvozanat buziladi!

Ayolning joni mingta ham bo’lishi mumkin va ming-

ga bo'linsa ham, ayol o'lmay yurishi mumkin. "Ana u, o'lmay yuribdi-yu" deb g'aflatda qolma! Endi sening tinching o'ladi, oilangning sifati o'ladi, shakling bor-u mazmuning o'ladi... Ayolingni asra, o'g'lonim!

### ***Eng beobro' erkak***

Ayoli nima desa, darrov "xo'p" deyaveradigan erkak ayollar bahosida eng beobro' erkakdir! Ayolingning taklifi to'g'ri bo'lsa ham, darrov ko'nma, o'ylab ko'rishingni ayt. Kerakdan nokerakni ajrat, faqat juda zaruriga ko'n. Bu, birinchidan, ayolingni gapni aytishdan oldin mulohaza qilishga o'rgatadi, qolaversa, seni ko'ndirish uchun atrofingda girdikapalak bo'ladi, yana qolaversa, "ha"javobing-ni intiqib kutgan ayolga har ko'nishing bir bayramdir!

### ***Chegarangni bil!***

Ayolingning yuklik bo'lishi, ko'z yorishi yoki issiq jon - bemor bo'lishi bor. Bunday paytlarda boshqa dastyor bo'lmasa, yana qaytarib aytaman, sendan boshqa hech kim qolmasa, uning qiyin ishlariga yordam berishing - burching! Unga aynan shu kunlarida asqot. Bolingga parvona bo'lgan kabi avayla!

Ammo uyingda o'rni kelsa-kelmasa, ayollar bajardigan ishlarga aralashib ketaverma. Chegarangni bil. Ayniqsa, ayolingning senga ish buyurishiga aslo, aslo yo'l qo'yma. Erga farmonbardorlik bizning odobda yo'q! Ayolidan cho'chib, yelkasini qisib turadigan erkak bizdan emasdir!

### ***Eng baxtsiz ayol***

Jufti ko'rimsiz ayol baxtsiz emas, yaxshi yedirib, yaxshi kiydirolmaydigan erkakka yo'liqqan ayol ham baxtsiz emas. Hatto farzandsizlik dog'ini tortayotgan ayol ham

unchalik betole emas. Ammo, o'g'lim, qulooqinangda shu so'zim jaranglab tursinki, eri ichkilikka berilgan ayol dunyoda eng baxtsiz, eng g'amgin, eng bechora ayoldir!

### **To'ydan keyinoq bong ur!**

O'g'lonim, ayolning sarishta yoki sarishta emasligi oilang taqdirini yo ravnaqqa va yo inqirozga olib boradi. Chunki yaxshi tozalanmagan idish, chala yuvilgan qo'l bilan tayyorlangan taom, chala supurilgan uyda yotib-turish kishining luqmasini xarom qiladi. Didini, niyatlarini chirik bosadi. Xarom luqma aralashgan joyda falokat bo'ladi, nosog' bolalar tug'iladi, ishlar orqaga ketadi!

Aytib qo'yay, ayolning chiroyi uning tutumida! Ivirsiq ayol dunyoda eng xunuk ayoldir! Nopokizalik kamchilik emas, u qondan o'tadigan yomon kasal, surunkali kasal! Uni qattiq turib davolamasang, bu dard senga ham yuqadi, kirlik ichra yashashga ko'nikib ketasan! Juftingning shu fe'lini sezdingmi, to'ydan keyinoq bong ur! Ya'ni, masalani shunday qo'yki, agar u saranjomlikni odat qilmasa, turmushidan ajrab qolishini his qilsin. Ayolingni ochiq muhokamaga qo'yma, onasiga kamchiligini das-turxon qilma, qaynona-kelinning, quda-andaning orasi buzilmasin. Juft seniki, o'zing qayg'ur. Yostiqdoshlikning savobi shunda. Talabchanliging (Erkak talabchanlikni uddalashi shart!) uning boshida qilichday tursin, yaxshi gap, nasihatlar bilan bundaylar tuzalmaydi. **Ular faqat kimdandir qattiq qo'rqsalargina va nazorat doimiy bo'lsagina risolaga tushadilar!** Ayoling sen yo'q paytda ham, nazoratchi qolmasa-da, oq yig'inib, oq taranadigan bo'lguncha vajohatingdan tushma.

Bunday fe'lli ayolga uchragan ayrim erkaklar armonlarini ko'chada ushatmoqchi bo'ladilar. Ular "juftlik" degani birinchi navbatda bir-birini tarbiyalash ekanligini,

bu ro'zg'orchilikning qarzi ekanligini bilmaganlardir. Bilsalar-da, bu ishga ixlos bilan kirishmaydilar yoki ular juft tutish borasida Xudo urgan shudsiz kishilardir!

Yoqimsiz ayoldan qochib, pokizasini topib olish eng oson ish! Ammo o'zing qochganing bilan bolalaring o'sha kir etakda qolyapti-ku! Bolalaringni falokat o'rab boryapti-ku! Qizing onasini naq o'zi bo'lib, o'g'ling xarom-halolning farqini bilolmay qolyapti-ku! Ularning g'amini kim yeysi?!

O'g'lim, onangga aytgin, avval onasini va uning tutumini obdon ko'rib, keyingina qizini tanlasin. Hamma balo ayoling chiqqan inda!

### ***Mushukka aylanib qolma!***

Ayoling senga qarab shang'illagan zahoti uyingdan farishta ketdi deyaver. Agar bu hol takrorlanaversa va bunga sen ko'niksang, endi sen er kishi emas, bamisli mushukka aylanding – hoxlasalar boshingni silaydilar, yo'qsa, tepib o'ynaydilar. O'g'lonim, bunday erkakning boridan yo'g'i ma'qul!

Ayoling na faqat senga, sening oldingda bolangga ham baqirib gapirmasin! Hurmatingni saqlasa, yoningda ovoz ko'tarmaydi. Sharqona taomil shunday.

Yana shuni bilki, ayoldan odob so'rashdan avval, o'zingni imtihon qil, non yeydigan, ilm o'qiydigan og'zingga xarom so'zlarni solma. Ba'zan uyidan odobli kelgan ayol beodob er tufayli, andishasizlikka ko'nikib qolishi mumkin. Yaxshi juft, yaxshi farzand xohlagan erkak avval o'zi ibratli bo'lib olsin!

### ***Xarom qadam***

Juftga xiyonat – nikohga xiyonatdir. Buni xarom qadam, shahvoniy nafs deydilar! O'g'lonim, bu zino! Uni

yigitchilikning o'tib ketadigan ishqibozligi deb bilma! Bir kuni tiyilaman va savob ishlarni ko'paytirib, aybimni yuvaman deb o'ylama! Inson tinmay o'zidan yaxshi-yomon nur tarqatib turadi, buning nomi sharofat va ka-sofat! Pok yoursang, o'zing ham, ahli ayoling ham sharofatli, ya'ni tinchlikda, rohat-farog'atda bo'ladi. Aksi bo'lsa, bilginki, har kuni sen bilan uyingga balo kirib keladi. Joningga jazo kirib keladi! Hamma ish orqaga ketadi, qo'ling nimaga teginsa, o'shangas kasring uraveradi. Puling ko'paygani, mol-u davlating ziyodaligi bir pul! Bisyorliklar yayratmaydi, chunki uni Xudo dilingga sig'dirmay qo'yadi. Hamisha ombir bilan yuragingni burab turadigan tashvishlar bir-bir kelaveradi.

Sen o'lib-tirilib, tavbaga yuzlanishing, tiyilishing mumkin. Ammo allaqachon poyezd jilib ketgan bo'la-di: o'g'ling jinoyatga qo'l urgan, qizing gap-so'z bo'lib bo'lgan, tabobatning kuchi yetmaydigan dardlar bada-ningga joylashib ulgurgan bo'ladi!

Ko'zingni och, o'g'lon! Ayol qiyofasidagi chiroyli shayton xonadoningga shuncha ko'rgulik olib kelmoqda. Eng yomoni shuki, bu xonavayronlikni u sening qo'ling bilan sodir etadi!

### ***Alloh buyurgan vazifang***

O'g'lonim, oila rahbari erkakdir. Bu unga Allah buyur-gan vazifa. Xonadonning issiq-sovug'i, ochin-to'qinli-gi, muhofazasi sening qo'lingda! O'ttizga kirmay o'tin bo'lgan ayollar, erkakshoda yoki tirikchilik orqasida dardmand bo'lib qolgan ayollar nomehribon, noshud va ro'zg'orboshilik burchini unutgan erlarga uchrab, shun-day holga tushganlar.

To'rt faslning iqlimini oilaga erkak olib kiradi: yerdan nimayki yangi unib, bozorga chiqsa, darhol namunasi-

dan uyingga keltir, ahli ayolingni bahramand qil. Ayolingga ham ota, ham ona o'rnidasan, bu tomning tagida sendan boshqa homysi yo'q, doim nenidir unga ilinib turgin. Rangi sarg'aysa, xushyor tur, kerakli choralar ni ixlos bilan qidir. Salomatlik uchun zurur bo'lgan yemak-ichmamlarni hamisha rasta qil va ketini uzma. Ayolingga so'ramasa ham yoki keltirsang, sevinishni bilmasa ham shunday qil! Kishi yaxshilikni avvalo Allohning roziligi uchun qiladi, bandalik burchini a'lo bajarish ham yigitchilikdan!

O'g'lonim, ayollikning g'alati dunyosi bor: bosh-qalarning tuyaga ortgulik mukofotidan uning uchun umr yo'ldoshi sovg'a qilgan bitta taroq ming bora azizdir! Ayolki bor, yuraklarining tag-tagida juftidan sovg'a olishni orzulab yashaydi. Sen hech qachon boyman, kam-bag'alman dema, arzondir, qimmatdir, vaqtı-vaqtı bilan ayolingga yo yemak, yo kiymak shaklida tortiq keltirishni unutma! U kutmagan, so'ramagan narsalarni olib kelib sevintir. Bayramlarda, uning uchun muborak saylangan kunlarda shunday e'zoz ko'rsatki, ota-onasi tirilib kelganday bo'lsin! Sen bu ishlarni og'rinmay bajar, ayolning bunday muruvvatni senga kunda qiladi-ku,adolat yuzasidan ham, hech yo'q ora-orada qarzni qaytarish kerak, o'g'lim!

### ***Ro'zg'orda rahbar ekanliging doim esingda tursin.***

Rahbar himoyachi, rahbar javobgar shaxsdir. Ayolning ovqat tayyorlaydigan, kir yuvadigan, dazmol qiladigan joylarda qulaylik yarat. Unga qo'sha-qo'sha kiyimlar olib bermasang ham, dam olish uylariga olib borib yayratmasang ham mayli, ammo ro'zg'orga ketadigan buyumlarini to'kis qil, qo'shnidan narsa so'rattirma!

Yaqinda bir erkakning gapini eshitib qoldim: "O'n olti yildirki, men ro'zg'orga gugurt, choy, sovun, tuz xarid qilmayman"-dedi. Havasim keldi. O'g'lonim, Xudo kaftingga baraka bersin va sen shu narsalarning hech yo'q bir yilligini g'amlab qo'y, avvalo o'zingning joning tinadi.

G'ayratli va jonsarak bo'l! Har faslga bir fasl ilgari tayyorlan. Qor yoqqanda ko'mir qidiradigan, sabzi-piyozi bitta ham qolmagandagina bozorga boradigan notavon bo'lma! Rejali, saranjom, g'ayratli erkak hech qachon rizqsiz qolmaydi, kambag'al bo'lmaydi.

### ***Men shunday kunlarni orzu qilaman:***

Biz yoshlarga oila ilmini fan sifatida o'rgataylik. Hatto ro'zg'or sirlarini o'qitmay turib, qizlarimizni uzatishga, o'g'illarimizni uylantirishga qo'rqaylik. Har kim bir umr yashaydigan o'z uyini obod qilishni bilishi lozim.

Ammo hayotda oilasining kattaligidan, yordamchi yo'qligidan, qozon-tovoq, sigir-buzoqning ichida yosh turib qarib borayotgan ayollarни ko'rsam, ham ko'channing ishi, ham uyning ishiga ulgurolmay, ichidan siqilib, qurib borayotgan guldek oyimlarni uchratsam, erkaklarimizning beg'am, behafsalaligidan o'ksinaman, o'g'lim. Erlari, otalari, akalari e'tibor qilmayotgan bu ayollar ertaga millatning bolasini - millatning kelajagini tug'ib beradigan onalardir. O'g'lonim, qani ayt-chi, shu horg'inlik ichra ulardan qanday butun bola tug'ilsin?! Armonlarimni sen ol: Xudo topish-tutishingga baraka bersinu, to'rt tanga oshinsang, hech yo'q haftada bir kelib, ayolingning og'ir ishlariga ko'maklashadigan yordamchi yolla! Uni tinkasi quriguncha urinishga qo'yma, joniga dam ber. Bu juftlikning yuzi, juftlikning qarzidir!

## *Ayolingdan qarzing tugamaydi*

“Er-u xotin bir-biriga do’stlik-muhabbat nazari bilan qarasa, Alloh ularga rahmat nazari bilan qarar. Agar er ayolining qo’lidan tutsa, gunohlari barmoqlari orasidan to’kilib ketar” deyiladi Hadisi sharifda. O’g’lonim, bu muborak kalomning “agar er ayolining qo’lidan tutsa, gunohlari barmoqlari orasidan to’kilib ketar...” degan joyig’ e’tibor ber! Ikki insonning qovushishi bu qismat! Peshonangga shu ayol yozildimi, tamom, yaxshi ko’rasanmi, yomon ko’rasanmi, rahnamolik qilishing shart! Chunki sen umr yo’ldoshsan, Allohnинг oldida qasam ichgansan. Qolaversa, u o’g’il-qizingning onasi, sulolangning umrbod bog’bonidir! Ikki umr muruvvat qilsang ham, ayolingdan qarzing tugamaydi. O’g’lonim, Yaratganning ayolga e’tiborini, muruvvatini qara, o’ziga yoqqanu yoqmagan juftining qo’lidan tutib, mehr ko’rgazgan erkakka jannat va’da qilayotir. Ayolga muruvvatpeshalikni senga Allohnинг o’zi buyurayotir, juftlik muqaddasdir, bolajon!

## *Avval oila!*

Hech qachon ish joying tashvishlarini birinchi o’ringa qo’yma. Avval oila! Ishlashdan maqsad ham ro’zg’or tebratish. Jamiyatni tashkil etadigan insoniyat oilada shakllanadi, uydan bag’ri, kayfiyati butun chiqqan odam ko’cha ishini ham butun qiladi. Aksi bo’lsa, ziyoni yana odamlarga! Bolalariga shohona kiyish, shohona yeyishlarni bisyor qilib, dasta-dasta pul tutqazib, ammo ishga sho’ng’ib ketib, ular bilan haftalab yuz ko’rishmaydigan otaning bolalari tirik yetimlardir!

O’g’lonim, amalingdan, ishing ko’p-ozligidan qat’iy nazar, bolang bilan suhbatlashishga, unga otalik mehringni berishga kunda hech yo’q besh-o’n minut vaqt top! Axir sen

tiriksan-ku, ularning nigohlarini to'ldirib tur, otasi borday yashasinlar! Mehr-muhabbat degan buyuk mo'jizani bola dastlab ota-onadan tuyadi, o'shalarda taniydi. Mehr – bamisli quyosh, o'sish uchun, ulg'ayish uchun u kunda kerak. Men bolaning ma'ni dunyosini, ko'ngil o'sishini nazarda tutyapman. Bola bilan gaplashib yurib, muloqotga kirishib yuribgina umumiy til topish mumkin. Alqissa, ota-bola umr bo'yi bir-birini ko'rsa, gapi tugab, suhbat qovushmay, begonaday yashab o'taverishi mumkin.

Bundan birinchi xatar shuki, dunyoni endi tanib ke-layotgan, yuragiga ming bir savol, ko'ziga ming hayrat to'lib turgan bola uni e'tibor bilan tinglab, unga e'tibor bilan gapiradigan suhbatdoshni uyidan topmagach, ko'chadan qidira boshlaydi.

Qolaversa, ota mehrini kam ko'rgan bola ulg'ayib o'zi ota bo'lgach, bolasiga toshday qotib turaveradi, shu tarzda mehrga zor mung'aygan bolalar ko'payaveradi...

### ***Minnat qirg'indir!***

Hazrati Navoiyda shunday gap bor: "Birovlarning senga qilgan yaxshiligini, o'zingning birovlarga qilgan yomonligingni unutma. O'zingning birovlarga qilgan yaxshiligingni, o'zgalarning senga qilgan yomonligini unut, unut!" O'g'lon bolam, otalikning hamma savobini, farzandlarning ota-onaga muhabbatini yo'q qiladigan narsa MINNATDIR! Na faqat yigitning, ayol kishining ham minnat qilaveradigani insonlarning pastkashidir! Ayniqsa, ota-onsa shunday qilsa, bolasidan mehr-u vafo kutmasin! Minnatingni eshitayotgan odam senga nisbatan g'azabga to'lib borayotgan va yog'iyya aylanayotgan yaqiningdir! Ilohim, u kunni hech kimning boshiga solmasin! Ilohim, farzandlar ortimizdan "beminnatim" deb yig'lab qolsinlar...

## *Hozirdan o'zingni keksalikka tayyorla!*

O'g'lonim, hali soching oqarib, asabing charchamay turib, bir armonli o'gitni senga aytib olay. Erkak toifa-sining bir zaifligi bor: u o'z fe'lini keksalikka tayyorlay bilmaydi. Ayollar yoshlariga yosh qo'shilgan sari fe'llari kengayib, har nega jizillamaydigan, kechiruvchi, kelishtiruvchi bo'lib boradi. Ammo ellikdan oshgan erkakning fe'lida torlik, o'ziga e'tibor talab qilish, oila a'zolarining ikir-chikirlariga aralashaverish, mayda gaplik, ginaxonlik kuchaygandan kuchayib boradi.

Yigirma yoshli o'g'lonim, balki sening ham otangda shunday o'zgarishlar paydo bo'layotgandir, o'zingdan o'tganini o'zing bilib yurgandirsan. Shu iztiroblaring esingda tursin va ulg'ayish navbatи o'zingga kelganda, shaytonni yengishni, fe'lingni jilovlashni uddala, bola! Hozir biz ranjib turgan odamlar o'ttiz yoshsidan el-liklarigacha ne-ne ixtiolar qilgan, ne-ne obro'lar olgan, qanchadan-qancha insonlarning duosiga erishgan kishilardir. O'z vaqtida kimlar ularni havas qilmagan deysan! Lekin farzandlari ularning u salobatlarini tasavvur qilolmaydilar, unda go'dak edilar. Menga eng alam qilgani, bugun ulg'ayib qolgan u bolalar otalarning hozirgi turishiga qarab: "otamiz muncha mayda fe'lli, yoqimsiz bo'lmasa" degan xulosaga kelishlaridir! Nafslambirini aytganda, bu xulosa haq! Chunki otalari injiq, dilozor bo'lib qolgan. Bitta emas, mingta o'g'ilga faxr bo'ladigan ishlar qilgan otalarning bolalari zada bo'ladigan holatga tushib qolishlari g'oyat alamli! Bemor, to'shakka mixlanib qolgan odam shunday bo'lsa, kechirish mumkin. Ammo tani-joni sog' turib, shu yo'lni tutsa, g'oyat malolli! Aytgin-chi, otang ayolingning oldida seni yerga urib tursa, kelinning oldida onangni haqorat qilsa, hatto norasida nabiralariga ichi torlik qilib kun berma-

sa, malol emasmi? Hammaning muammosi o'ziga yetib turganda, eshikning g'irchillashi, televizorning ovozi yoki kimningdir kiyinishidan bir kunda bir necha bor janjal chiqaraversa, hatto go'dakkacha malol emasmi? O'g'lonim, sen o'zingni shu baxtsizlikkacha olib borma!

Men bir kitobimda aytgan edim: otalar-onalar yuzga kirsinlar. Yuzga kirganlarida ham bolalari ularning diydoriga to'yib qonmasin! Ketar bo'lsak, ortimizda "dod" deb yonib qolsinlar, "tilida bol bergenim, dilimni avaylaganim, hammadan a'loyim, hammadan keragim ketdi" deb bo'zlab qolsinlar!

## OG'A-INILARGA AYTAR SO'ZLARIM

*So'z boshi o'rnida*

Har gal onamning oy-u kuni yetib, bolasi yerga tush-guncha, yurib turgan farzandi o'laverar ekan. "Bolalarim yuz ko'risharmikin deb, diydam obiravon bo'lardi", - deya bo'zlardi onam...

Mendan keyingi ikki qizlari ham birin-ketin nobud bo'ladi. Va onam sho'rlik meni yolg'iz bo'lib qolmasin deb, dadamga turmushga chiqishini so'ranib, bir beva ayolga sovchilikka borishgacha yetgan ekan...

Dadamjonimning ishlari yurishmay, musofirchilik ro'zg'orimizni taranglashtirib tursa-da, onam dasturxon yozib, sarpolar qilib, qo'ni-qo'shnini guvohlikka chorlab, toshkentlik Farog'at opa, Ufadan kelib qolgan hech kimi yo'q Zaynab opa va urush yillari To'xtamurod degan o'zbekka tegib, Toshkentga kelgan kuybishevlik Vera opalar bilan egachi-singil tutungan edi. Va bot-bot "bular - mening qiyomatli jigarlarim" deya ta'kidlardi. Ularga jonini fido qilar, izlaridan yo'qlagani yo'qlagan edi. Umrining oxirgi kunlarida ham o'shalarni qo'msab yostiqlarini ho'l qilib yotdi... Onam butun umri davomida jgarsirab o'tdi, aka-ukalik, opa-singillik odamlarni yuraklari ivib havaslab yashadi...

"Etagingda to'rtta bolang bor, axir bular bir-biriga to'rt jigar degani, jon bolam! Aslo armoning yo'q! Agar shu hayotingdan ayb topadigan bo'lsang, sendan ro-zimasman!" - deyaverar edi onamjonim...

Biznikida, umuman, bizning millatda "bolang ko'pay-sin" degan iltijo eng ko'p aytildigian duodir.

Farzandini akalik, ukalik qilish hasratida majnun

bo'lib o'tgan onamday onalar son mingtadir balki. Nega ular bu qadar sadpora bo'ldilar? Nega bandasi opam yo'q deb yig'laydi, akam yo'q deb bo'zlayveradi?! Hatto o'tib ketgan ota-onasining ruhiga yopishib, "nega meni bittagina tug'dilaring" deb giryon uradi?! Chunki jigarling sening soyaboning, ular borki, boshingdan oftob o'tmaydi, yomg'irda ivimaysan, qorda qotmaysan! Jigarling bo'lsa, yueling yerda qolmas ekan. O'zingni qo'y, har "tog'am" deganda bolangning ko'zi porlaydi. "Xolam" desa tani yayraydi.

Xo'sh, jigarlikning siri, mo'jizasi nimada? Agarki jigarlik insoniy baxtning bir bo'lagi ekan, insonni tikkaydigan darajadagi kuch ekan, u nimadan suv ichadi, nimaning hisobiga mavjud turadi? Uning mag'z-u mohiyatini asrash uchun balki muhofaza kerakdir? Albatta kerak! Ushbu risolani og'a-inilikning himoyasiga biroz bo'lsa-da yarab qolarmikin degan niyatda bitmoqdamiz.

Birodar, ota bo'lisl, ona bo'lisl ilm bo'lgani kabi aka-uka, opa-singil bo'lisl, to'g'rirog'i shu martabada tura olish ham ilm ekan! Shu nuqtai nazardan qarasak, bu borada savodi kamlarning g'oyat ko'pligi ayon bo'ladi.

Bir-biridan bezor jigarlar kam deysizmi! Akasini yoyinki ukasini dushman saylab olganlar yo'q deysizmi! Begonalar bilan opa-uka tutinib, o'zinikilarni yilda bir ko'rmaydiganlar, yotlarga yedirib, o'zinikilarni poygakka surganlar topilmaydimi? Yetishgan martabalari-yu, qo'sha-qo'sha diplomlari qurib ketsin ularning! Yonginasidagi Alloh bergen ne'matni ko'rmay, qadrini toptab turgan bo'lsa, eng g'ofil, eng savodsiz bandalar shular emasmi?

Jigarning yaxshi-yu yomonidan kechib bo'lmas, undan nari ketib bo'lmas! Nainki, og'a-inilar bir-birlarini faqat jismonan yoki moddiyan emas, balki qalban to'ldi-

radilar. Qalbni esa faqat ilohiy mo'jizalargina to'ldira oladi. Birodar, jigarchilik shu mo'jizalarning biridir: ota-onamiz – ildiz, biz shu ildizdan ungan shoxlarmiz. Onamiz, otamiz avvalo o'zini, qolaversa, avlod-u ajdo-dimizdan kelayotgan unsurlarni bizga taqsimlab beradi. Har birimiz ularning bir bo'lagimiz. Jigarbandingiz ya-qinlashgan sari sizga ota-onangizning hidi, tafti kelaveradi. Yuragingizning bir joylari ota-onangizni ko'rganda qanday to'libgina qolsa, ular qoshida qanday erkalanib, tomir-tomirlaringiz yozilib, yoyilgan bo'lsa, bir qorindan tushganlarining bilan o'shanday yayraysiz, yashnaysiz.

Bir kitobimda aytgan ekanman: aka-ukasi borning hyech qachon otasi o'lmaydi! Opa-singlisi borning esa hamisha onasi tirikdir.

### *Yolg'iz farzandlardan so'rang*

Yigitlarjon, aka-ukaning qadrini yolg'iz farzandlar-dan so'rang! Bemor yotsa, yo'qlab keladigani yo'q, bino ko'tarsa, "horma"deydigani yo'q, boshiga ish tushsa, yonida yotib qolib yupatadigani yo'q! Otasi yo onasini kuzatguday bo'lsa, tirlagi, hassakashi yo'q! Eshik taqil-latib keladigani yo'q! Bo'lsa ham, jigar kabisi – "tushim-ga kirib qolibsan, nima bo'ldi senga" deb yig'lab-bo'zlay-digani yo'q!

### *Aslida ayollar "zaifa" emas...*

**Bu risolaning nomini atayin "Og'a-inilik ilmi" deb atadik.** Va asosan erkaklarga bag'ishladik. Ayol zotidan ko'nglimiz to'q. Boisi ular tabiatan jigarparvar bo'ladilar. Nabodo oralarida chatoq fe'llilari uchrab qolsa, ma'zur tuting, ular kurmaklardir. Alloh kurmakka mag'iz bermagan. Shuning uchun ular kechiriladilar ...

Shu kungacha ham ko'rib kelgansiz, shu asnoda ham chor tarafni kuzating: hech bir ayol yomon eri yoki qat-tiqqo'l qaynonasi tufayli, kambag'alligi yoyinki salom-atligining yomonligini bahona qilib, yo bo'lmasa, masofaning olisligini pesh keltirib, aka-ukalaridan kechib ketmagan, ularni qidirmay qo'yagan. Borolmasa, xat yozadi, tugun jo'natadi, hech yo'q sim qoqadi. Ruxsat bo'lmasa, yashirincha ko'rib ketadi. Ko'rolmasa, bo'zlab o'tiradi, ko'ringanga so'zlab o'tiradi. Ismlarini allaga solib, namozlarida duolar bag'ishlaydi. Ayol kishi g'oyat jigarpavardir. Unga uning og'a-inilarini kecha-yu kunduz yomonlasangiz ham, ichida "bekor aytibsan, jigarim baribir yaxshi" deb turadi va hammaning qarg'ishiga qolgan aka-ukasidan ham aslo kechib ketmaydi! Har vaqt va har voqelikdan ularga qarab uchishga imkon kutib yashaydi. Yana ayol shu turishida "zaifa"ataladi

Hurmatli erkaklar, sizning nomingiz esa "er yigit", "sher yigit"dir! Ammo qatoringizda shunday g'aflatiylar borki va ular shunday ko'PKI, agar chetdan xolis kuzat-ganizingizda edi, o'z toifangiz uchun bisyor, bisyor uyalib ketardingiz!

Olisdag'i opangiz sizdan hech gina qilmaydi. Kam-xarjgina singlingiz bor, lekin sizga hech kamini aytmaydi. Ularning sizni kutib yuraklari tolib ketganini, ko'zlar darvozasiga mixlanib, nigoron nigohlari derazasiga o'yilib qolganini bilasizmi?

Qo'lingizga pul tushdi deylik, qani ayting-chi, bo-zorlik qila turib, avval bolangiz va ayolingizga xarid qilasizmi yoki mungluq singlingiz yoki kambag'al ukangizgami? Menga qarang-chi, shu tobda yuragingiz ozgina uyalib ketdi-ya? Chunki siz birinchi navbatda o'z ahli ayolingizni o'ylaysiz, hech qachon jigaringizni emas! Vaholanki, **siz e'tibor bermayotgan yoki sizdan dili**

**og'riyotgan har bir jigaringizning vujudida onangiz yig'lab, otangiz mo'l tirab turadi.**

Bordi-yu, otamning dilini og'ritganman, onamni kuydirganman deb o'tanayotgan bo'lsangiz yoki ularni tirikligida rozi qilolmadim deb nadomat chekib yur-gan bo'lsangiz, jigarlarining qoshiga choping, ko'nglini so'rang, so'ksa ko'ksiga bosh qo'yib turing, erkalatsa boy-vachcha bo'lib qayting! Alloh bilib turguvchidir, ruhlar ko'rib turguvchidir, ajab emas, ular sizdan rizo bo'lsa!

***Erkak atalgan kelbat emas, erkak atalgan mazmun birlamchi!***

Yigitlarjon, bizning millat ajoyib: erkak kishini tabar-ruk sanaydi, Xudodan tinmay o'g'il so'raydi. yetishsa, dun-yolarga sig'may ketadi. Endi armonim yo'q deydi. Erkak kishining joyi hamisha to'rida. Uyda uning aytgani aytgan. "Ota rozi – Xudo rozi" degan naqllar bor. Oilaga bosh qilib saylanadigan ham erkak. Hattoki, merosxo'rlar besh qiz, bir o'g'il bo'lsa-da, shariat hukmi bo'yicha merosning kat-ta qismi o'g'il farzandga buyuriladi! Nega? Nega axir?! Oti o'g'il bo'lgani uchunmi? Shu xolosmi?

Yo'q, erkak atalgani uchun emas, Alloh unga g'oyat yirik vazifalar yuklagani uchun! Allohnning amri vojib - erkak sha'riy vazifalarini bajarishi shart! **Ana o'sha ishlarning uddasidan o'tgandagina u hurmatga lo-yiqdir.**

Olmani uzsangiz-u, yesangiz taxir bo'lsa, qovun deb qo'lga olsangiz, bemaza chiqsa, albatta uni po'choqqa qo'shasiz, shunday emasmi? Hech bir ne'mat o'z ta'midan adashmasin. **Yorug' dunyodagi har bir narsa o'zining asliga o'xshasagina chiroyli va keraklidir. Xuddi shuningdek, erkak atalgan kelbat emas, erkak nomli mazmun birlamchidir!** Asl o'g'lon kim o'zi?

U - yurt posboni, uyingning qo'rg'oni. Ota-onaning boquvchisi, asrovchisi, qazo qilsa, o'ligining egasidir. O'g'li bor uyning darvozasi yopilmaydi, chirog'i o'chmaydi. O'g'il otadan keyin jigarlariga otadir va qondosh, qarindoshlarni to'plovchi, birlashtiruvchidir. Shuning uchun, orqamda o'g'lim qolsin deb tilanadilar. Qizi yo'qlar qizim yo'q deb afsuslanadilar xolos, o'g'li yo'qlarning esa yuraklari rostmana yig'laydi...

Qani aytingchi, birodar, ota-onangiz tilab yurib o'g'il ko'rib, sizdan izlaganlarini toptimi? O'g'il bolalikning qarzlarini har doim ham yodlab yuribsizmi? Yigitchilikning hamma amallarini joyiga qo'yib bajarish ham yigitchilikdan! Ayting, ayting, ismingizning oldida yuzingizni yorug' qilsin!

### ***O'qib, ulg'ayib topganingiz xudbinlik bo'ldi!***

Gapimiz og'a-inichilik haqida boryapti. Bolaligingizni bir eslang. Aka-ukalaringiz bilan bir ko'rpara dumalashib yotardingiz. Bir kulchani bo'lib yeb, bir qozondan tanovvul qilardингiz. Bir-biringizni bir kun ko'rmasangiz, sog'inishib, achenlashib o'tirardingiz. Gilos yesangiz gilos, g'o'ra yesangiz g'o'ra – lippangizga qistirib uka yoki opangizga ilinib keltirardingiz. Ukangizni birov chertsa, urganni ta'zirini berib qo'ymaguncha uyqungiz kelmasdi. Opangiz uzatilayotgandagi burchak-burchakdagi yig'ilaringiz yodingizdam? Singlingizga karnay kelganda, go'yo jigaringiz bilan birga yuragingizni ham sug'urib ketishayotganday, ko'zingizga yosh tepchib, "akalik so'zim, seni hech qachon tashlab qo'ymayman" deganlariningizni eslaysizmi?

Bugun ulg'aydingiz, aqlingiz ko'paydi, pulingiz, imkoniyatlariningiz ko'paydi. Eng muhimi mustaqilsiz, hoxish o'zingizda, ijro o'zingizda! Ammo shu darajotga

yetganingizda, qiziq hol ro'y berdi: atrofga nazar solsangiz, kimni ko'rasiz deng? Faqat o'zingizni va yana o'zingizni! Shundaymi? Ikkinci navbatda bolangiz, ayolningiz va ishingiz! Qo'lingiz ham, oyog'ingiz ham, yuragin-giz ham, qulog'ingiz ham faqat o'shalarning muammo-lari bilan band. Ulardan boshqasi halaqit berayotganday tuyulaveradi: boshqalarni (ota-onangiz, qavmu qarin-doshlaringizni) istamaygina eshitasiz, shoshilibgina so'rashasiz, o'lganiningizning kunidan (rahmatli onam-ning shunday iborasi bo'lardi), ular uchun qandaydir yaxshiliklar qilgan bo'lasiz. Bu yaxshiliklarni kamdan kam o'zingiz o'ylab topasiz. Ehtiyojmand ekanliklari-ni bildirsalargina va yoki gina qilsalargina muruvvatga qo'l urasiz. Bu qanday hol? O'sib-ulg'ayib, aqlningizga aql qo'shilganda topganining XUDBINLIK bo'ldimi? Xud-binlikka bandasini yetaklaydigan faqat shaytondir, bi-rodar! Bandaning atrofdan qarzdorligi bisyor: u avvalo Yaratgandan, ota-onadan, jigar-bag'irdan, qo'ni-qo'shni, do'st-u yor, yer-u ko'kdan... ming bora qarzdordir. Agar tinmay ularga takallufda va sadoqatda bo'lmas ekan, bu insonning ahvoliga voy - Allohning hisob-kitobi boshla-nadi...

Azizim yigitlarjon, bir eslang, siz bolalikda chandon saxiy va mehrli edingiz. Ana shu fe'lingiz bilan olangizning to'rt tarafi yorishib turar edi. Agar bilsangiz, o'sha samimiyatning nurlari yillar osha kelib, bugunga-cha yetib, o'zingizni va jigarlarining dilini hanuz yoritib turadi. Sizning buguningizni doim yoshlikdagi o'sha samimiy qiyofangizga solishtiradilar, o'sha turishlari-ningizni sog'inadilar va xotiralar haqqi-hurmati sizga orqa o'girib ketolmaydilar...

Shunday hadisi sharif bor: "**Bir narsani ortiqcha yaxshi ko'rishingiz sizni ko'ru kar qiladi.**" Ayting-chi,

atrofni ko'rmaydigan va eshitmaydigan darajaga kelganingizning sababi nima? Nimaga o'ta berilib ketdingiz? Ishgami? Sizdan boshqa hech kim tirikchilik qilmabdimi, hunar o'rganmabdimi?!

Yo bolangizga berilib ketdingizmi? Sizdan boshqalar bola ko'rmabdimi, otalik yumushlarini bajarmabdimi?! Har bolaparastligingiz tutganda xalqning bir naqlini eslab qo'ying: **bola shirin dushmandir va u bor mag'zingizni olib, po'chog'ingizni qoldiradi!**

Yo ayolingizga mutbalo bo'ldingizmi? Axir ayolningizga topshirguncha sizni tayyorlagan, tarbiyalagan, xullasi, sizni bor qilgan ota-onasini, qavm-u qarindoshlarga mutlaqo orqa o'girib, erkak boshingiz bilan bir ayolning dirijyorlik tayoqchasiga termilib o'tirish o'zingizdag "o'z"ni yo'qotish emasmi? Kishi ro'zg'orlik bo'lganda har tomonlama ulg'ayib, ibratli tutumlari bilan atrofdagi qarzlaridan uzilishga tushadi-da!

Yodingizda bo'lzin, bir narsaga o'ta berilgan odam o'sha narsaning qo'lida bamisoli (bolalarining o'yinchoq xamiri) plastilinga aylanib qoladi. Plastilindan esa xohlagan paytlarida xohlagan narsalarini yasayveradilar...

### *Og'a-iningizdan qachon uzoqlashganingizni bilasizmi?*

Yo'q, albatta! Ularga avvalgiday emasligingizni his etib turasiz. Ammo sababini topmaysiz, hatto gohida xayolingizdan "Ularning nimasiga bu qadar mehr qo'ygan ekanman, yoshim kattalashib, kimning qandayligini endi bildim shekilli" degan g'ofil o'ylar ham o'tadi. Aslida esa siz **uylanganingizdan beri** shunday bo'lib qoldingiz..

Keling, buni yoyibroq tushuntiray: ma'lumki, "amaki-tog'a", "amma-xola" degan tushunchalar bor. Endi siz xolis ayting, amma bilan amakiga nisbatan xola va tog'a

yurakka yaqinroq turadi, shundaymi? Fikrimga qo'shilmasangiz, bolalaringizning suhbatiga qulqoq tuting: ha deganda xolasi bilan tog'asini gapiraveradi. Ularnikiga chopqillab boraveradi. Tanangizga o'ylasangiz, o'zingiz ham o'z tarafingiz bilan emas, qayinbo'yinlar bilan bordi-keldida allaqachon quyuqlashib ketibsiz. Bu so'zsiz **ayolingizning sharofatidir.**

Chunki u choy ustida, non ustida hali bu opasi, hali bu singlisi, goh akasi, goh ukasining ta'rifidan so'zlayveradi. Ular yopib kelgan nonning shirinligi, sizga sovg'a qilgan ko'ylagining sifati tozaligi va... shunga o'xhash narsalar xususida joyini topib gap qistiraveradi. Shu tarzda bolalar ham, siz ham ularga isigandan isib borasiz. Ayo-lingiz o'z qarindoshlariga – jigar. Ular haqida so'zlagisi, eslagisi kelaveradi. Natijani ko'rib turibsiz, bolalar onasining qarindoshlariga dildan bog'lanib boryapti.

Siznikilarga esa ayolingiz bor-yo'g'i - kelin! Ya'ni yuragida iyib turadigan qarindoshlik rishtasi yo'q, ta'riflay desa, avlodningizning tub fazilatlari, yaxshi-yomonidan yaqindan tanish emas, uning ustiga tajribasi ham kam! Kelin hargiz og'a-iningizga yomonlik ravo ko'rmasligi, g'iybatini ham qilmasligi mumkin, uning aybi bitta - ular haqida kam gapiradi, xolos. Gapirsa ham "kelinlik tili" bilan gapiradi. Ya'ni, ikki tomon bir-biriga yopishib-qapishib ketmaydigan qilib gapiradi. Opa yo ukangiznikiga oyog'ingiz tortmayotganidan, akangizni sog'inmayot-ganiningizdan biling - sizni u yoqqa intiltiradigan turtki, tashviqot yo'q. Erkak zotining yana bir zaifligiga iqror bo'lingki, kimdir, aniqrog'i, ayoli uning yaqinlarini botbot eslatib, yuragini ilitib turmasa, u aka-ukalik burchlarini sal bo'lmasa unutishgacha boradi. Ammo qaysi ona va yo qaysi murabbiy, qaysi tarbiya dargohi qiz bolaga "Jufting og'a-inilaridan ajrab ketmasligi uchun uni har

doim qarindoshlariga isitib tur” deb ta’lim beradi?! Agar ayol sabab bo’lib aka-ukalar bir-biridan ajrab ketsa, bu ayolga ikki dunyo saodati yo’qligi, bolalaridan qattiq aziyat chekib qolishi aniqligini, qay yo’sin va uslublar-da ularga uqdirsa ekan?! Yigitlarjon, nahotki sizni o’z tomiringizdan uzilib qolmasligingiz uchun, shuncha fal-safa so’qib, shuncha iztirobga tushishimiz shart bo’lsa?! Bu o’rinda o’zingiz xushyorlik ko’rsatsangiz bo’lmasmi?!

Agar og’a-inim bilan uzilib ketmay desangiz, ota-on va Alloh rozi bo’ladigan farzand bo’lay desangiz, qolaversa, o’zingizdan tarqayotgan bolalarni ham keyinchalik bir-biriga mehribon bo’lishini xohlasangiz, ayolingizning yaxshi ayol bo’lishiga yordamlashing. Chunki u o’zi bilmagan holda ayrim xatolarga qo’l urib qo’yishi mumkin. Yoningizdagи mahrami joningiz gunohkor bo’lguncha qarab turmang, ro’zg’oringizning boshidan unga quyidagi talablarni qo’ying va ijrosini izchil nazorat qiling:

**- Juftingiz hech qachon sizga aka-uka, opa-singil, hatto qarindosh-qadrdonlaringizni yomonlamasin!** (Chunki erkakning bir mo’rtligi shu, - bir og’iz gap bilan, ayniqsa, xotinining gapi bilan yaqinlaridan uzilib ketishi yo kamida ularni yomon ko’rib qolishi hech gap emas! Bunga misol hisobsiz!)

**- Nabodo o’zingiz ular bilan xafalashib qolgan holatingizda ham o’tingizga kerosin sepmasin!**

**- O’zinikilarga qanday iltifot ko’rsatsa, sizning jigarlaringizga ham shunday ixlos bilan munosabatda bo’lsin!**

**- Ayolingizdan yana shuni iltimos qiling, qaysi rolni o’ynasa o’ynasin, ne maqomga tushsa tushsin, ammo sizni hamda bolalaringizni shunday sozlasinki, aka-ukalaringiz qoshiga yuragingiz oshiqib, o’zingiz talpinadigan bo’ling.**

Ayolingiz dastlab bu shartningizni malol olishi, bosh tortishi va payt poylab aksini qilishga urinishi mumkin, ammo siz talabda qattiq turing! Agar shunga erisha olsangiz, avvalo ayolingizning o'zi yutadi: qarindosh-urug'larni bog'lab qo'yayotgani uchun, birinchidan, hademay, o'zining bolalari chandon inoq bo'lib, unga rohat keltiradilar. Ikkinchidan, juftini, ya'ni sizni "Og'a-inisiga nomehribon" degan tarqi la'natdan, katta gunohkorlikdan qutqaradi. Uchinchidan, bu ezgulik og'a-inilar emas, balki begona hisoblangan - kelinning sa'i harakati bilan bunyod bo'layotgani uchun, inshoolloh, Alloh uni ikki, balki undan-da ko'p barobarida mukofotlaydi. Qolaversa, qaynona-qaynotaning rizoli-giga yetishadi, chunki ayolingiz hurmat qilayotgan har bir jigaringizda onangizning mo'ltiragan nigohi, otangizning umidvorligi xamisha uyg'oq turadi...

### ***Go'l aka***

Ona bir kun uyda yo'q bo'ldi. Ishdan tushlikka kelgan kichik o'g'il, kennoyisining iltifotini kuta boshladidi. Soat 2 bo'ldi hamki ovqatdan darak yo'q. So'ng hazilomuz: "Kennoyi, qorningiz ochmadimi, mening qornim ochdi", - dedi. Tushganiga endigina bir yil bo'lgan kelinchak g'alati qarash qildi-yu, uyiga kirib ketdi. Besh minut o'tar-o'tmas, ichkaridan asabiylashgan akasi chiqib kel-di, uning uyqudan uyg'otilgani shundoqqina ko'rniib turardi. Kela solib ukasiga xezlandi: "Nimaga mening xotinimga kesatiq qilasan, boshqacharoq tushuntirsang bo'lmaydimi?!" - deya baqirdi. Ukasi toshday qotdi. Yuragida akasiga bog'lanib turgan bir ip chirt uzildi. Ular Hasan-Husan kabi edilar, bir-biriga ergashib, bir-biriga suyanishib yurar edilar. Bir necha minutning ichida akasiga ukasini xunuk ko'rsatib ulgurgan kelingu qo-

yilmisiz? Yo ayolining ikki og'iz tashviqoti bilan ukasiga hamlaga tayyor bo'lib chiqqan akaga qoyilmisiz? Agar kelin ham, aka ham bundan keyin shu tarzda ish tutsalar, og'a-inilar bir-birlari bilan yuz ko'rmas bo'lib ketadilar...

Aslida esa bunday bo'lishi kerak edi: ayolining diydiyosini eshitgach, aka ataylab ham o'zini jiddiy qiyofaga solmog'i va shiddat bilan demog'i kerak edi: **Avvalo, menga hargiz ukalarimni yomonlama! Ikkinchidan, onam yo'q paytida oilamizda ona o'rnini sen bosib turishing kerak! Mening jigarim sening ham jigar-ring, nima uchun unga vaqtida yemak tutmading?!** Uchinchidan, shuni bilib qo'y, oilamizning hamma a'zosiga yoqsanggina menga yoqasan! Ukam senga kesatibdimi, demak, yoqmaydigan ish qilgansan!

Ukasidan dili og'rib tursa ham, shunday deb, ayolining og'zini g'iybatga boshqa ochilmaydigan qilib yopishi kerak edi. Kelin hali yosh, qilmishini xunuk ekanligini bilgach, yurak yutib, ikkinchi bunday ish qilishga jur'at qilmaydi!

### ***Endi uka xususida***

Bizning milliy fe'liz shunday: aka yoki uka uylan-gach, mustaqil oilaning rahbariga aylanadi. Atrofning unga munosabati sezilarli o'zgaradi, ya'ni unga ehtirom kuchayadi, muomalada hisob-kitob jiddiy lashadi. Demak, akangning oilasi – uning shaxsiy qo'rg'oni. U yoqqa kirishga har kimga ham izn berilmaydi. Bu qo'rg'on muammolari xususida esa faqat akang bilan gaplashiladi. Aytib turibmizki, akang uylangandan keyin, katta odamga qanday izzat bilan muomala qilsang, (hech yo'q uning ayolining oldida) shunday tavozeda turasan!

Aka yoki ukaning ayoli bilan munozara qilinmaydi, ularga tanbeh berilmaydi. Norizochililing juda ortib

ketsa, onang, singling, opang orqali yetkazasan. Ular bo'lмаган тақдирдагина ранжиганинги аста аканга аytasан.

Yigitchilikda yana shunday qoidalar bor, o'g'lon, akangning yoki ukangning ayoli uyda yolg'iz o'tirgan bo'lsa, kirmaysan! Bir xontaxta atrofida uzoq suhbat-dosh bo'lмaysan – bu aka yo ukangning hurmatidir. (Agar kennoyingning yoshi senga ona darajotida bo'lsa, bundan mustasno.) Ikkala taraf ham ming odobli, insofli bo'lsin, baribir, qayin bo'yinlar kelinlar bilan masofa saqlaydilar.

Shuningdek, kelinlar ham qaynotalari, qaynog'alari yolg'iz o'tirgan uyga kiravermaydilar, birga ovqatlanishga, suhbatga jur'at etmaydilar. Ular qaynota va qaynog'alariga bo'lgan ilinish, mehribonliklarini qaynonalari, qayinsingillari yoyinki juftlari orqali yetkazadilar. Dono Sharq oila mustahkamligini mana shu tarzda saqlab kelgan.

### ***Ovsinchilik bor joyda xatar bor!***

Yigitlarjon, xushyor bo'ling, xalqda "kundosh bilan kundosh bir-biriga paxta otadi, ovsin bilan ovsin esa tosh otishadi" degan naql bor. O'g'il ukalaringiz ko'p bo'lsa, bilingki, bu xonodon har daqiqada portlashga tayyor turadi! Kelini bittadan ortgandan keyin qaynona-qaynotaga ham yashash oson bo'lmaydi – ko'z qarashdan tortib, so'zgacha teng taqsim qilinmasa, kunda qiyomat deyavering! Kelinlar oshkora janjal yasashdan hayiqsalar, hech yo'q, zimdan erlarini gij-gijlashga tushadilar. Og'a-inilar hyech qachon bir-birlarini yomon ko'rmaydilar, ishona-vering, ular bir-birlaridan kechmaydilar, to'qson to'qqiz foiz holatda ularni ayollar ajratadi! Erkakning mo'rtligi, g'ofillagini ko'ringki, "hayotimga yo'lда qo'shilgan ayo-

limning gapi bilan men kimimni yo'qotyapman?" deb tahlil qilmaydi! Ayoli uni o'qladimi, tamom, bet-ko'zingga qaramay otaveradi! Axir jigaring onangning bir parchasi, otangning bir bo'lagi-ku, xom banda?!

... Ona navbatdagi o'g'lini uylash tadorigini boshladi. To'ychilik, yugur-yugur ko'p. Qudachilikning yumushlarida uydagi kelin ham so'zsiz oiladagilarning yonida turadi. Bir tong katta o'g'ilning og'zidan: "Oyi, ja-a yangi qu dangizga xushomadni oshirib yubormadingizmi?!" degan xitob yangradi. Onaning yuragiga bir narsa san chilganday bo'ldi! U gapdan xafa bo'lindi. Uni doim tushunib kelgan o'g'lidan ajrab qolganiga yuragi uvishib ketdi! Chunki ayni daqiqada o'g'li xotinining gapini aytayotgan edi. "Onangiz menga qilmagan sarpolarni bu keliniga qilyapti, yoki biznikiga bu qadar kuyib-pishib yugurmovingdinglar, yo men bu kelinchalik emas edimmi" degan gaplar bo'lgani aniq! O'g'li ishga erta ketib, kech keladi. To'y maslahatlarini qayerdan bilsin, bu kelinning tashviqoti, uning pishirgan oshi!

Birodar! Ko'rib turibsiz. Kelin hali kelib ulgurman gan ovsinga hozirdan qurollanyapti! Ovsinning yuzini ko'rmay turib, "sen emas, men yaxshi", deyishni, kuni lashni boshlayapti! Agar ayolingizga xushyor turma sangiz, har bir kuningizga o't tushishi aniq!

Xotinini ma'qullab, onasiga tanbeh berayotgan "dono" o'g'ildan bir so'rab ko'raylik:

Uylanganingdagi hamma xarajat sendan bo'lganmi?

Yo'q.

Sarpolarni birlashib xarid qiganmiding?

Yo'q.

Seni uylaguncha onang qaynotangning ostonasiga necha marta borib kelganini sanab turganmisan?

Yo'q.

Ota-onangning to'ying harakatida necha pul sarflagan bilan qiziqib ko'rganmisan?

Yo'q.

Ey nomard bola, sen bo'g'zinggacha qarzdor bo'lган odamingga iddao qilyapsammi? Qani ayt-chi, uylanish uchun hovli oldingmi, uy soldingmi, sarponi qo'y, to'yni qo'y, undan keyingi keldi-ketdining o'ziga qancha xarajat ketdi? Hali to'yingga kelgan to'yonalarning javobini uzish bor! Shuncha muruvvat uchun rahmat aytishning o'rniga onangga tanbeh beryapsanmi? Ayoling seni gij-gijlabdi, xo'p, ammo rahmat aytmasang ham, hech yo'q, "yugurishlar sen uchun ham bundan kam bo'lмаган" deb gap bilan og'ziga urib qo'yish qo'lingdan kelmadimi! Hech yo'q, o'z tilingni tiymaysanmi?!

Bu to'ya harakat ko'proq bo'layotgan bo'lsa, balki ota-onang sening to'yingdagi qaysidir xatolarini o'nglayotgandir! Ukangning kelinchagiga nimadir ziyo-droq olib borilgan bo'lsa, sening to'yingda ushalmagan armonlarini endi ushatishayotgandir!

O'g'lon! Qulog'ingda bo'lsin: ayoling bilan gaplash-sang, ota-onang, qarindoshlaringning faqat fazilatlari haqida gaplash! Maslahatlashsang, ularni qanday xur-sand qilish haqida maslahatlash! Ammo hech qachon ularning, ayniqsa, ota-onangning kamchiliklari, xatola-rini (xatolari dengizcha bo'lsa-da) hargiz ayoling bilan muhokama qilma!! Og'a-ini, ota-onangga bo'lган gi-na-kudratlaringni ayolingga aytma! Aksincha, ayniqsa, uning oldida oila a'zolaringga doimiy e'tiborli bo'l, hur-matlarini joyiga qo'y! Bu - ayoling uchun "kamchilikla-ridan qat'iy nazar, qarindoshlarimni men shu qadar hur-mat qilyapmanmi, sen ham shunday hurmat qilishing shart" degan ishoradir. Juftining bunday qat'iyatini ko'rgan kelin chegaradan chiqishga jur'at qila olmaydi.

## **Jigaringizning jonida ota-onangiz yashaydi**

Allohnинг hamma ne'matlari yaratilishda sof va to'g'ri bo'ladi. Agar ular o'z maqomlarida tura bilmasalar, ya'ni oraga shayton tushsa, sofligiga putur yetadi. Masalan, erkakning o'z mas'uliyatini tanimasligi yonidagi ayloga zo'riqish olib keladi, qarabsizki, erkakcha ishlarga urinaverib, ayolda erkakshoda unsurlar paydo bo'la boradi. Ularni kuzatib turgan farzandlarning ham dunyoqarashi zil ketadi. Ya'ni o'g'il bolaga o'xshagan qizlar, qiz bolasifat o'g'illar o'sa boradi. Shundoq, birodar, bu dunyoning hamma ishi "musht ketdi" tarzida harakatlanadi.

Siz ham akangiz yoki ukangizdan bekorga sovib qolganingiz yo'q. U sizni ko'rganda ko'zida quvonch chaqnamay, yuzi yashnamay qo'ydi. Sizni uzoq ko'rmasa, betoqat bo'lmaydigan, qidirishga shoshmaydigan bo'lib qoldi. Siz ham u kelmasa, bormaydigan, nenidir ilinmasa, ilinmaydigan bo'ldingiz. Katta xatoingiz shu! Sizning qasdma-qasd ish qilishingiz, shaytonga ergashishdir! Begonalar shunday qilsalar og'rig'i yo'q, chunki u begona. Axir siz jgarsiz-ku! Nega jigarim bunday bo'lib qoldi, oldin bilay deyishingiz kerak edi. O'zim ham ehtiyyotsizlik qilib qo'ymadimmi deb o'zingizni taftish qilishingiz kerak edi. Agar fe'lingizni nozik hisoblasangiz, boshqalarni o'zingizdan yuz karra nozikroq biling, birodar! Va hech qachon o'zingiz ko'tarolmaydigan gaplar-u harakatlarni birovga ravo ko'rmang, ayniqsa, jigaringizga. Akangiz bir sovuq ish qilsa, ikki yaxshi ishni ketma-ket qilib, uni eritmoq darkor. Toki u begona bilan sizning farqingizni bilsin: xafa qilsam ham kechirib yubordi. Nima bo'lganda ham akam-da yo ukam-da desin, o'zi uyalib, o'zi insofga kelsin. Ha deganda insofga kelavermasa ham, muruvvatingizni baribir ayamang. Chunki u onangizning parchasi, otangizning bir bo'lagidir!

### ***Meros talashish ota-onaga xiyonatdir***

Meros talashib, yuzko'rmas bo'lib ketgan aka-ukalalar ota-onaga xiyonat qilgan farzandlardir. Nafs uchun, moddiyun uchun ularning xotirasiga tupurgan nomardlardir. Bir parcha yer deb bir-birini sudga berishgacha borayotgan, bir ko'rpada katta bo'lgan jigarini yetti qoziqa oshna qilayotganlar qaysi bo'ridan kam?! Ular iyemonni tanisa, Allohning borligi, ruhlarning tirikligiga ishonsa, shunday qilarmidi?

Yana ular gohida qo'y so'yib, mol so'yib, ota-onalariiga is chiqarib qoladilar. Axir bu uying uy emas, ikki yuz yilgi, balki uch yuz yilgi duoxona, tiriklar-u ruhlar to'planadigan joy! Bu hovliga necha avlodingning kin-dik qoni to'kilgan va talay qondoshlaringga azon aytib, ism qo'yilgan tabarruk dargoh bu! Sen esa uni janjalxonaga aylantirding! Xunuk ovozalar tarqatib, ruhlarni chirqiratding, sulolangni sharmanda qilding! Yaratganni norozi qilib, jigarlaringning yuragini sindirib turib qilgan bu ehsoningni musulmonchilik ko'tararmikin? Alloh qabul qilarmikin? Senga insof bersin, birodar, senga insof bersin!

### ***Birov faqat beruvchi, birov faqat oluvchi bo'lib qolmasin!***

Qur'oni karimda o'zingga ilingan hamma yaxshi narsalarни boshqalarga ham ilin deyiladi. Ilinishni ham piysabillo va barchaga baravar qilishingizni ta'kidlab turiladi. Begonalar oldidaki shuncha burchdor bo'lsangiz, o'zingiznikilarga, demak, og'zingizdagini uzib berishga buyurilgansiz, yigitlarjon! Har safargi yo'qlovingizdan jigaringizning quvonishi Allohning sizdan rozi bo'lishidir.

Ammo har borada insof vaadolat bilan ish tutmoq ham ma'naviy butunlikdir. Muruvvatpeshalikni ulug'lik dedik, lekin esingizda bo'l sinki, mehribonlik, ilinish bir tomonlama bo'lib qolmasligi kerak. Ya'ni hargiz birov faqat beruvchi, birov faqat oluvchi bo'lib qolmasin. Sizga jigaringiz yaxshilik qildimi, darhol unga quvonganigizni sezdiring, birovni shod qilganidan uning o'zi ham bir maza qilsin. Qolaversa, dilingizda "ey Xudo, meni ham qodir qilu javobini ikki hissa ortig'i bilan qaytaray" – deb niyat qilib qo'ying.

Bilingki, buni bir kam dunyo deydilar: hech kimning o'z bola-chaqasidan hech qachon, hech narsa ortmaydi. Ilojini topibki, birovga bir narsa ilinish mardning ishidir! Buning qadriga yeting, birodar. Jigaringiz sizdan qaytim kutmasa ham, imkoningiz yetgancha siz ham uni yo'qlab turing.

### *Dadamning yo'qlovlar*

Dadam ilmli edilar. Hayotimiz odmigina, hadegan-da ko'tarinib borib birovni sevintiradigan imkonimiz yo'qqina edi. Ammo dadam umrlarining oxirigacha, garchi to'qsonga yaqinlashib qolgan bo'lsalar ham, ammalarimni yo'qlashni tark qilmadilar. Tugunlari ham odmi: bir kilogina novvot, bir kilogina oq qand va non bo'lardi. Lekin singillari buni bir sandiq mol kabi qabul qilardilar. Xosiyatxon ammam, ayniqsa, nozik tabiatli edi. Ora-orada dadamga oq surpdan ko'ylak-lozim tikib kelib qolar, ana o'shanda dadamning yayrashini ko'rsangiz! Yuzi ham, ko'zi ham, ovozi ham boshqacha yashnab ketardi. Odatda, biz qimmat sovg'alar keltirsak ham, bir suyunib, darrovgina tinib qolguvchi dadam ammam keltirgan sovg'ani bot-bot maqtar, ha deganda: "Xosiyat tikkak ko'ylakni kiyay" deyaverardi...

Birodar, ammamning ishi – mehr, oqibat! Dadamning o'sha turishi esa jigarining yo'qlovidan baxtiyor holatidir!

### ***Bunday jigarning boridan yo'g'i yaxshi!***

Yo'qlangan odam, haqiqatda, eng baxtiyor odam! Makoni oltin ichra bo'lsa ham, inson o'zini izlashlarini, sog'inishlarini, ko'nglini ovlashlarini juda-juda xohlab yashaydi!

Bir oilani bilaman: er-xotin obro'li, o'ta mehnatkash va o'ziga tinch. Ularning jigarlariga qilgan oqibatlariga hamisha qoyil qolaman. Hali unisini kasalxonaga joylaydi, hali bunisiga dori qidiradi, birini ishga tikkalasa, birining uyini ta'mir qilib beradi, kimnidir qarzini uzgan, yana birovini miliitsiyadan chiqarib olgan va hokazo! Jo'natilgan tugun-tugun kiyimlar, bo'xcha-bo'xcha buyumlarni qo'yavering! Ammo bu oilaning o'zida bিrор yig'in bo'ladijan bo'lsa, o'rtada balogardon bo'lib turadigan birorta jigarini ko'rmasiz. Bu xonadonni sog'ib ichgan jigarlari og'irlilikning bir chetini ko'taraylik deyish tugul, hech yo'q supur-sidirga yordamlashmaydilar. Qirg'iyday payt poylab, bir chetda tomoshabin bo'lib turadilar-u yig'in tugagan zahoti qo'lga tushgani ni yig'ishtiradilar-da, tugunlarini do'ppaytirib jo'nab qoladilar.

Yaqinda bir suhbat bo'ldi-yu, mehr-oqibat haqida gap ketdi. Nogahon o'sha do'stimga qarab qoldim: ko'zlarida mo'ltilagan yosh edi. Nima gapligini so'radim. U chuqur xomuza tortdi-da, o'ksuk ovozda dedi: "Xudo menga ko'p jigar berdi. Ammo... ularning ichida mehribonim yo'q. Hozir-ku imkonim durust, ammo nochor kunlarimda ham ularga tinmay ilinar edim, ilingim kelaverar edi. Nazarimda, men ularni juda yaxshi ko'rardim, har gal

ularning mushkulini oson qilganimda, (buning uchun boshimni urmagan tosh qolmasdi, iztirob chekardim!) o'zim yengil tortardim. Bugunga kelib, yoshimga yosh qo'shildimi, har qalay qadrimga yig'lab qoldim. Og'ir bemorliklarni kechirdim, yonimdan odam arimaydi, lekin jigarlarim yo'q. Nahotki xavotir olishmasa deb o'ksiyman. "Senga atab mana bu ovqatni pishirdim, o'z qo'lim bilan yedirib ketay" deyishlarini, "Kel, jigarim, boshingni bir uqalab qo'yay", deya alqashlarini, ishim, muammolarim bilan qiziqishlarini, yuragimga yuraklarini bosib hol so'rashlarini dil-dilimdan tilanaman. Shu kungacha ulardan hech yo'q, "Iliging issiq tursin, mana bu paypoqni atab olib keldim yo oddiy bo'lsa ham, mana bu choyshabni yopinib yot", degan himmatni ko'rmaidim. Aksincha, shunday gaplar bo'ladiki, oldin ko'tarsam ham, endi ko'tarolmay qoldim. Mana bu gaplarni qarang:

– Uka, sen albatta tuzal, shu qizimni ham chiqarib bermasang, bo'lmaydi!

– Bizga bergen bo'lsa, boyib-bitib ketgani uchun bergen. Yo'qlovimizga u zor emas. Jigarmiz-ku, yeb ketsak, ketibmiz-da!

– Opamizning bolasiga solgan imoratini vahimasini qara, biz katakday hovlilarda o'tib ketaveramizmi, o'sha pullaridan bizga ham bo'lib bersa bo'lmasmidi?

– Bolamni o'qishga kiritib bermasangiz, qanaqa jigarsiz?!

Shularni hikoya qilar ekan, ko'z yoshlari yomg'irday quyilardi. Men esa muzlab bo'ldim...

U yig'lamay, kim yig'lasin! Anovi akani qarang! "Shunday singlim o'lib ketsa, dog'iga qanday chidayman", deb emas, "bunga bir gap bo'lsa, qizimni uzatolmay qolaman", deb vasvasaga tushmoqda! Bunday jigarlarning boridan yo'g'i yaxshi!

## ***Avlodingni begonalar tozalab bersinmi?***

O'g'lonim, faqat og'a-ining emas, ularning bolalariiga ham javobgarsan. Bu gapimdan ensang qotmasin, oldin o'zimnikini evlab olay dema! Bu Allohning talabi. Agar jiyanlaring ichida fe'li chatog'i, ichuvchisi yo sayog'i bo'ladigan bo'lsa, sening donoliging, martabang, o'g'il-qizingning bebaholigi bekordir, bilsang! Bugun bo'lmasa, ertaga baribir el nazaridan qolishing bor! Chunki bu xudbinlikdir! Faqat o'zini ipakka o'rab yotgan ipak qurtsan, birodar! Aka-ukalik, amaki-tog'alik ham burchdir, qarzdir! Jigarlaring isnod keltirib yurgan bo'lsa, ota-buvangning arvohi go'rida tik turishi, ruhlarning norozi bo'lishi degan gaplar bor. Erkak jigari bor turib, jiyaning qayerdadir yo o'zini, yo imonini sotib yursa, odamlarga qaysi yuz bilan qo'shilib yurasan, tomog'ingdan ovqat qanday o'tadi? Sulolangning ori, sha'ni taptalaversinmi? Jiyanlaringning ota-onasi o'lgan bo'lsa yoki ota-onalik shudi-epini Xudo urib qo'ygan bo'lsa, sen tiriksan-ku! Bola tarbiyasini bilmay, sharmanda bo'layotgan akangni yo ukangni axir sening onang tuqqan-ku! Bu holatni onang ko'rsa nima qilardi, otang bo'lsa nima der edi?! Bolasini isnodlardan asrasang, ular uchun otang, onang ornida kuysang, yarashmabdimi?! Sen tirik turib, avlodingni begonalar tozalab bersinmi?

Bolangga qanday bezovta bo'lsang, jiyan uchun ham shunday oriyat qil! Opa-ukangning ko'rguligi sening ham ko'rguligingdir. Aslida, kimki bola tarbiyasida xato ketgan bo'lsa yoyinki o'zi og'a-inilariga bevafo o'tgan bo'lsa, bolalari shu ko'yga tushadi.

O'g'lonim, ota-onangning aybini yuv, ular jigarlariga qilmagan mehribonlikni sen og'alaringga qil! Bu bilan, inshooloh, ham ota-onangning gunohi yengillashadi, ham bolalaring bir-biriga kutganingdan ko'ra mehribonroq bo'ladilar!

## *Ota-onadan keyin ...*

Ota-onadan keyin yoki ular keksayib qolgach, og'a-inilarni o'zaro birlashtirish, farzandlik yumushlarini bajarish ishlariga o'g'ildir, qizdir - bolalardan bittasi bosh-qoshlik qilishi kerak. Bu ko'proq to'ng'ich farzanding zimmasiga tushadi. Agar u qat'iyatli, hammaga baravar e'tiborli va jonsarak bo'lolmasa yo bu ishga salomatligi yaramasa, u holatda yoshidan qat'iy nazar, eplik, shudlik bittasi shu o'rinni egallaydi. Bunday jonkuyarni oilaviy majlis qilib saylamaydilar, farzandlarning ichida Alloh yuragini uyg'otgan birovi o'z-o'zidan o'rtaga tushib qoladi va boshqalari qanday qilib uning atrofiga qovushib qolganlarini bilmay qoladilar.

Ilohim, har bir ota-onaning bittadan shunday bolasi bo'lisin. Oиласining sha'nini unga topshirib, o'lar bo'lsa, xotirjam o'lsin va go'rida ham osoyishta yotsin!...

## *Bosh bo'lgan bolaning nazari to'q bo'lishi kerak!*

Ota-onadan keyin bosh bo'lib qolgan farzandga oson bo'lmaydi. Avvalo u o'z manfaatlarini oxirgi o'runga qo'yishga majbur. Ya'ni eng adolatli, eng nazari to'q, eng saxiy va barcha jigarlariga birday mehribon bo'lishi shart. Undan hech qachon "Menga qani?", "Menga ham!" degan luqmani eshitmasliklari kerak! Ammo bu farzand zimmasiga olayotgan bu yukka aslo o'zi og'rinasin! Chunki qilayotgan amallaridan avvalo Alloh rozi, qolaversa, ruhlar rozi. Bu esa unga paydar-pay yaxshiliklar keltiradi. Eng muhimi, undan tarqalgan bolalar bir-birlari bilan ittifoqda bo'ladilar.

Eh, yigitlarjon, hali yashayversangiz, ko'raverasiz, Agar farzandlari inoq bo'lmasa, ota-onaning erishgan martabasi, shon-shuhrati, obro'si tuproq bilan bittadir!

Ularning dunyodan ko'zi ochiq ketganlari shu, go'rlarida tikka turganlari shu...

### ***Jigarlarni bir-biriga isitish ham san'at!***

Og'a-inilarga bosh bo'lib qoladigan farzandning eng muhim ishi qarindoshlar orasidagi ginani yo'qotishdir. Buning uchun u hamisha oradagi yaxshi munosabatlarni olqishlab turadi. "Falon gapingdan opamiz andoq yayrabdi, anovi sovg'angdan ukamiz terisiga sig'may yuribdi", "Falonchi jiyanimiz katta bo'lsa, sening izingdan ketishni niyat qilarmish, Pistonchi ukamiz, to'yingga qo'y olaman deb pul yig'yapti ekan" kabi ko'ngilni obod qiladigan gaplarni og'a-inilarga yetkazib turadi. Ayniqsa, bunday gaplar bir-biridan gina qilib yurganlarga yedirilsa, so'zsiz isitgich bo'lguсидир.

Musulmonchilikda agar urishganni yarashtiradigan bo'lsa, yomonlikning oldini oladigan bo'lsa, yolg'onne ham ishlatish kerak. Yetakchi farzand avlodi tarqab ketmasligi uchun, qalovini topib, shu yo'ldan ham foydalanadi...

Onamning jahli kam chiqardi, ammo chiqquday bo'lsa, uncha-munchaga yumshamas edi. Chamasi o'n to'rt-o'n besh yoshlarim edi, dadam bilan oralaridan gap qochib qoldi. Onam jayraga aylanib olgan, dadam mung'ayib qolgan, mening esa uyga kirgim kelmaydi. O'shanda men ham shu yo'lni tutganman: onam onasiga juda kuyardi, umrining oxiriga qadar judolikka hozir yo'liqqan yetimday bo'zlab o'tdi! Bilamanki, buvimning xotirasi onamga qimmat, shunga suyandim-da, yolg'on tush o'girdim: tushimda buvimni ko'rGANIM, uning kayfiyati so'lg'in va kiyimlari ham xarobroq ekanligi, yonimizdan bizga qaramay o'tib ketganligini aytdim. Onamning ko'zida havotir balqib qoldi. Maktabdan qaytsam,

tushlik qilishyapti, onam charaqlagan holatda dadamga choy uzatyapti...

Shunday, birodar, niyatingiz odamlarga yaxshilik qilish bo'lsa bo'ldi, amalga oshirish yo'lini Allohning o'zi dilingizga soladi.

### ***Bandasidan hargiz so'ranma!***

Avvalo, tirikchililing el qatori o'tib turgan bo'lsa, yanada bikirroq bo'lish dardida, sendan boyroq ko'rинган jigaringdan aslo so'ranma! Bu nafsi yomonlikdir. O'zi ilinsa, boshqa gap. Biri endi o'sib-una boshlagan zahoti boshqalarning darhol unga termilib olishi ma'qul ish emas. Bu unga g'ashlik ko'rsatishga ham o'xshab ketadi! Sen so'raydiganingni bandasidan emas, Egangdan so'ra, berguvchi Udir! Akangni ham peshonasiga bitilgan toledan bir maza qilishga qo'y! Aslida Yaratgan hammaning niyatiga, mehnatiga yarasha beradi. Beradigan vaqtisi-soatini ham O'zi belgilaydi. Ayni vaqtdagi yashash sharoiting ayni vaqtdagi niyating va amaliyotingga mosdir. O'zingni o'zgartirmaguningcha, ahvoloting o'zgarmaydi!

Ammo, o'g'lonim, muhtojlik degan narsa bor. Bu tanglikdir, bu nochorlikdir! Hyech qachon jigaringni, (sening ensangni qotirib turadiganini ham) muhtojlik ichra yoningga yukunib kelishini kutma! Oldindan fahmlab tur, oldindan tadbir tuzib tur, huzuriga avvalroq o'zing yugur, qo'ling bo'sh bo'lsa, mehribon yuragingni olib bor! Bu ikkalangiz uchun ham Yaratganning imtihonidir.

### ***Savobdan mahrum bo'lma!***

Birovga bitta muruvvat qilsang, darhol ikki mukofot senga qarab yo'lga tushadi. Uni yuborguvchi Allohdir. Faqat sen piysabillo sahovat qilaver. Bandasi g'ofil, ke-

chirayotgan kunlarini tahlil qilib bormaydi, agar qunt bilan kuzatsang, ko'rarding: qaysi qarindoshingni qachon qo'llab-yo'lagan bo'sang, allaqachon senga qaytimi kelgan yoki kelishda davom etyapti. Bandaning banda-ga qilayotgan yaxshiligi o'zi uchun bankka qo'yayotgan mablag'idir. Alloh "bular aka-ukalar, bir-birini rozi bo'lib qo'llayapti, orada ta'ma yo'q-ku", demaydi, har bir yaxshilikning, albatta, qaytimini qaytaradi.

Ammo shuni bil, bu sazovorlikdan seni bir zumda judo qiladigan bir falokat bor! Bu minnatdir! Shayton alayhill'a na yaqinlaringdan diling og'rib qolsa, darhol ularga ketgan mehnatlaringni sanab, miyangga taxlayveradi. "Shuncha yaxshilik qilib, sendan nima ko'rdim?!" degan xitobni tilimizning uchiga to'g'rileyveradi! Tinmay seni savobdan mahrum qilish harakatida bo'ladi! Shundoq ekan, minnatdan o'zimizni ehtiyoq qilaylik. Muruvvatimiz qancha ko'p bo'lsa, shuncha xushyor bo'laylik, bir marta minnat qilsak ham, yutqizishimiz katta bo'ladi! Ya'ni, Alloh bizni beraridan mahrum qiladi, bir! Savobdan ayrılamiz, ikki! Jigarimizning dilini og'ritib qo'yamiz – bu eng dahshatlisi!

Minnatga til urib qo'ygan bo'lsak, astoydil tavbaga o'taylik. Va yana astoydil og'a-inimizga xolis muruvvat qilishga tutunaylik, Alloh kechirguvchidir!

### *Gina kulfat keltiradi*

Darvoqe, Alloh kechirguvchidir. "Falonchini kechirolmayman" deydiganlar bandalardir! Buyuklikda cheksiz va qudratda tengsiz Allohki "men kechirguvchiman" deb tursa, ushoq va notavon - biz uning oldida kimmiz axir?

Gina, adovat ne kulfatlar keltirishini ko'ring: bir ruhshunos olimning yoniga bir ayol keladi. Qizining yoshi o'tib qolgani, tengi chiqmayotgani haqida arzi hol

aytadi. Ruhshunos qo'lidan kelgan maslahatlarini berib jo'natadi. Oradan ikki yilcha vaqt o'tgach, tasodifan o'sha ayolga yo'liqib qoladi va hol-ahvol so'raydi. U qizining yaxshi odam bilan turmush qurgani, o'g'il ko'rganini aytadi. Ammo u olimga yana nolish qila ketadi. "Bolamning baxtli bo'lgani zarra tatimay qoldi,- deya yig'lab yubordi u,- qizim bemor, chandon qaratdik, lekin uning dardini topolmayaptilar, kundan-kunga sham kabi pasayib boryapti, undan ayrilib qolaman-ov!". Olim ayolning ko'ziga chuqur nigoh tashlaydi-da: "Bu kulfatning boshlanishi sizdan, xonim, birovni tinmay qarg'ayabsiz,"- deydi. Ayol avvaliga inkor etadi, keyin bir ona, bir otadan bo'lgan egachisi uni qattiq xafa qilgani, shuni hech kechira olmayotganini so'zlaydi. Ruhshunos unga yuragidagi o'sha qadoqni chiqarib yubormaguncha, bolasi tuzalmasligini ukdiradi. Ma'lum muddatdan so'ng, uch ayol yal-yal yonib kirib keladilar. Bular yarashib olgan egachi-singil va sog'ayib ketgan qiz edi. Ular olimning oyoqlariga yiqliguday xursand edilar...

Bu ertak emas, birodar, bu ayni haqiqat. Biz o'zimiz yo'liqayotgan yaxshi-yomon ishlarning bariga o'zimiz muallifmiz. Ko'rguliklarimiz uchun hali uni, hali buni aybdor bilaversak, g'irromlik qilgan bo'lamiz.

Deylik, sizni birov qattiq xafa qildi – qaqshabgina qoldingiz! Bundoq qaraganda, u sizni nohaq azobladi. Ammo Allohning hisobida sizning bilib-bilmay qilgan gunohlaringiz bor edi, ulardan forig' bo'lish uchun esa jazo tortishingiz shart edi. Shuning uchun sizni yomonga yo'liqtirdi, kuyib, o'rtanib ketdingiz! Ammo bir mo'jizani ko'ring: siz kuyaverasiz – gunohlaringiz esa sizdan ko'chib, raqibingizga o'taveradi. Siz poklanaverasiz. Musibatingiz qancha og'ir bo'lsa, poklanishingiz shuncha salmoqli bo'ladi. Poklangan odamga esa Yarat-

ganning navbatdagi mukofotlariga erishish yo'li ochiladi. Shuning uchun, hargiz raqibingizni qarg'amang, u sizning baxtli bo'lishingizda yordam berdi.

Endi raqibingiz haqida gapiraylik. Sizning gunohlariningiz uniki bo'ldi. Chunki u sizni nohaq xafa qildi. Raqibingiz sizga nisbatan nohaq, ammo sizning gunohlariningizni olishga juda munosib! Chunki uning ham Allohgagina ma'lum xatolari bor edi. Sizning gunohlaringizga botishday qismat unga to'g'rildi. U ham to poklanguncha uqubat ichida bo'ladi. Hozir u shu uqubatdan ezilib tursa-yu ustiga ustak siz uni qarg'aysizmi? Qarg'amang, birodar! Alloh hammamizni yaxshi ko'radi. Uni ham yaxshi ko'rgani uchun poklamoqchi! Xudo urganni Xudoyerdi ham qo'shilib urishiga yo'l qo'yilmaydi. Aksincha, unga Yaratgandan panoh so'rang, shafqat so'rang. Alloh o'shandagina sizdan rozi bo'ladi.

Eng qiziq haqiqatni eshititing: "Falonchini kechirmayman, Pistonchi juvonmarg bo'lsin, akamni Xudoga soldim, ukamni qaro kunini ko'ray" deyaversangiz, nima bo'larkan deng, aziyat tortish chog'ida raqibingizga o'tib ketgan gunohlaringiz yana bitta-bitta o'zingizga qaytib kelaverar ekan. Ya'ni Allohnинг muruvvat eshiklari sizga taqa-taxt yopilaverar ekan!...

Xulosa: u dunyo-yu bu dunyo omad va baxtga erishay desangiz, kechirimli bo'ling. Siz kechirib qo'yavering – yaxshi-yomon bilan hisob-kitobni Allohnинг o'zi olib boradi.

### ***Zanjirlar uzilmasin!***

Bir qorindan tushganlari uchun og'a-inilar beixtiyor bir-birlarining hidini qidirib yashaydilar. Ularning topishishi ham oson. Ammo og'a-inilarning bolalarini topishtirish uchun hamishalik xushyorlik kerak. Nima

bo'lganda ham ular bir parda nari – tabiiy tortish kuchi kam. Bir qorindan tushganlar kabi emas. Biz, opa-ukalar, inoqlik qanday bo'lishini o'zimizning misolimizda bolalarimizga ko'rsatib borishimiz zarur. Tirikligimizda ularni bir-biriga bog'lab, borish-kelishlik qilib qo'ymasak, ota-onasi vasiyatini bajarmagan, sulolani tarqatib yuborgan nomard bo'lamiz!

Ota avlodimdan ko'p ulug' odamlar o'tgan. Yuragim g'ashlandi: nahotki ulardan tarqalganlar to'yda bir, o'limda bir ko'rishish bilangina kifoyalanib o'tib ketaversak?! So'ng bir tadbir tuzdim, qarindoshlar oyda bir to'planadigan bo'ldik. Har bir xonadondan bir kishi qatnashishi shart. Bu yig'inimiz borgan sari mukammalashib bordi. Erkaklar alohida yig'ilishadigan bo'ldi. Bizga ergashib yurib, bolalarimiz ham bir-biriga kirishib bormoqda. Hammamizning hayotimizda nima yangilik, o'zgarish bo'lsa, bilamiz. Hol so'raydigan, dardingni aytadigan odaming ko'paysa qanday yaxshi! Endi ona avlodim bilan ham ana shunday go'zal majlislar tuza olsam, onamning qoshiga uyalmayroq borarmidim degan armonli o'ylarim bor...

### *Qudachilikdan qo'rqing!*

Yigitlarjon, og'a-inilar orasida qat'iy ta'qiqlangan bir ish bor. Bu qudachilikdir! Siz bunga barmoq orasidan qaramang. Va hargiz bu tutumni tutmang! Odatda qarindoshlar uzilib ketmaslik uchun, sinalgan yaxshi yigit, yaxshi qizni qo'ldan chiqarmaslik uchun yoyinki qarindoshlar kelishib to'yni kmsarfroq qilish uchun, yoki ota-onalarining vasiyatlariga amal qilib, o'zaro quda bo'ladilar. Bolangizning baxtsizligiga o'zingiz muhr qo'y mang! Ayniqsa, aka-uka, aka-singillar orasidagi qudalik talofat bermay qo'y maydi. Bunga misollar talay:

bir qo'shnimiz o'g'liga qayin ukasining qizini olib berdi. Kuyov-kelin inoq, bir-biriga mos. Ammo farzand ko'radi, bir yoshdan oshadi-yu o'ladi. Shu tarzda yettitasini ko'mdi. Yana bir aka-ukaning qudachiligidagi arslon-day o'g'li kar-soqov tug'ildi. Yana bir opa bilan o'g'il uka quda bo'ldi: olti bolasidan uchtasi aqli zaif tug'ildi va 16, 14, 8 yoshida qazo qildilar. Ammasiga kelin bo'lgan bir qarindoshimizning qizlari yashab qolib, o'g'il bolalari o'laverdi. Oyga o'xshagan bir qizi tutqanoq kasaliga yo'liqdi va yolg'iz o'tmoqda...

Dushman ham bolamizga bu qadar yomonlik qilmaydi, to'g'rimi! Biz esa ota-onamiz, Xudo shu masalada adashtirmasin.

## **QIZIM, DILBANDIM!**

Gapni "Hazrati ayol" kitobimda senga keltirgan ta'rifimdan boshlay: "Kamolga yetgan qiz mukammal san'at asaridir. Go'zal asardir. U-boychechak. U-muat-tar qatlari endi yozilib kelayotgan g'uncha. Hozirgina yomg'ir yuvib o'tgan, oqi oq, qizili qizil bo'lib yashnagan chamanzor u! U ustiga ko'ylik emas, bodom gullarini kiyib olgan, yo'qsa, yonlab o'tsangiz, shuncha sarxush qilarmidi? Uning ko'zlarida o'g'risi bor – xayolingizni oladi. Ovozida qumrisci bor – ohangi yuragingizga in soladi. Butun dunyoning armoni shu – kamolga yetgan qiz! Muhabbat uning poyiga bosh urib, yig'lab halak! Shoirlarning dastidan yer sharining ochiq joyi qolma-gan – qizlarni ta'riflab she'rga to'ldirib yuborganlar! Ro'yi zamin shu kamolga yetgan qizga qasida aytib ya-shaydi"...

Yaratganning shunday buyuk ijodi, ne'mati bo'lgan qizoyim, assalomu alaykum!

### **MO'JIZA ZOT**

"Tug'iladigan bola qiz bo'lsa, to'lg'og'i achchiq bo'la-di," – derdilar onam. Dunyoga inqilobi jarayon bilan kelayotganining o'zi bu zot oddiy emasligi, unda bir gap borligiga ishora. Buni qarangki, o'g'il bolaga qaraganda, qiz bola jismonan pishiq tug'iladi va oson katta bo'ladi, bu ham bir sir! Qolaversa, ayol zoti nisbatan uzoqroq yashaydi, bu ham sinoat! Yana: yo o'qiganman, yo eshit-ganman – agar erkak yillabmas, aqalli bir necha kun davomida bir ayol o'taydigan yumushni surunkali bajariib ko'rsa, charchabgina yo kasal bo'libgina emas, hatto

o'lib qolishi mumkin ekan! Ayol esa uzilaman deb turgan qilday beli, gulday nozik jussasi bilan bu dunyoning erkaklar ko'tarolmagan zil yuklarini ko'tarib o'tadi! Uning harakatlari bamisli asfaltni yorib chiqayotgan may-saday! Yana buning ustiga birday yashnab turaverishini aytmaysizmi! Esimni tanibmanki, o'z toifamni hayrat bilan kuzatishdan charchamadim! Ayol – asrорxona! Ayol - mo'jiza!

### *Ayol kim?*

Gul qizlar yuziga o'xshayman desa, g'uncha yor dudog'i kabiman deydi. Mening suratimni xuddi jononning ko'zлari singari chizing der charos. Yo'q, avval, yor labin xuddi o'zi deb, bizni she'rga soling deydi qo'sh gilos. Dildor kokiliga qachon o'xsharman, deya suv ichinda bo'zlaydi sunbul, goh nargis, goh lola, nilufarman deb, ismini talashar chamanda ming gul...

Dunyoda neki bor, ta'rifi bordir. Faqat "Ayol – kim u?" degan savolga bugungacha birorta zaminiy shoир, musavvir yoyinki dono faylasuf javob berolmadi mu-kammal, bekam. U osmonzodadir, uning ta'rifin faqat O'zi bilar yaratgan Egam!

Mo'jiza oyim, bilki, sendagi bu sinoatga sening alo-qang yo'q, u Yaratganning qudrati! Agar u aralashmasa, ushoqday joning bilan bu yorug' dunyoning jami arslon fe'l yigitlarini o'zingga bosh egdirarmiding!? O'zi asra-masa, etingni uzib, suyagingni sindirib bola yasaganing-da omon qolarmiding!?

Nafis oyim, bori yo'g'i bir tup rayhon kabi qadding bor, xolos! Ammo Olloh shugina turishing bilan yer kurrasining hamma kamini sen bilan to'ldirayotir. Uning bor jarohatiga seni malham saylayotir. Maqomingni bu darajaga yetkazmoq uchun qoningga nima qo'shga-

nu joningni nimadan yasaganini bilguvchi bir Haqning o'zidir!

### ***Mo'tabar oyim!***

Dunyo seni shunday intiqlik bilan qabul etdi, seni O'zi aziz qildi, ammo bu bilan faxrlanmagaysan, aksincha, yelkangga qo'yilayotgan yuk juda og'ir, uni ko'tara olish, torta olish mushkuloti bor. Hamma mo'jiza sendagi o'sha yukda! Atrofdagilarga balogardon bo'ladigan va ularni saodatmand qiladigan ne'mat bor senda! Sen uni odamlarga tiling bilan, qo'ling bilan, diling bilan ularшиб yashaysan. llohim, shu yo'lida adashtirmasin!

Bebarakot ro'zg'orlar, erlarning o'z uylaridan bezib qolishlari, qo'ydi-chiqdilar, bolalardagi badfe'llik, og'a-inilar o'rtasidagi uzilishlar, farzandlarning boshiga tushadigan kulfat, asosan, ayol zotining xatolari tufaylidir! Bilib qo'y, sendan, ya'ni ayol zotidan, faqat yaxshilik tarqalishi kerak! Chunki jisming to'la xosiyat! Seni Ollohning oliy ne'mati atadilar! Shu buyuk ne'matni, bu bebahो imkoniyatni isrof qilib qo'yma, uvoliga qolma!

## ISMING VA JISMING

### *Seni gulga mengzadilar*

Gulda gulning ifori bo'lishi kerak. Oy qizim, sochlarin binafshazor, vujuding navbahordir! Uni shu muattarlikda asra! O'zingni o'zingday asrash uchun suvni sev, suvni oshno tut, suvparast bo'l! "Qiz bola" deb atalgan gulgun chamanni hargiz g'ubor qoplamasin, nopol libos yopmasin. Bir kunda necha bor yuvinsang, o'shancha kam! Nopoklik noxushlik keltiradi. Kir yuvgisi, yuvingsi kelaveradigan qiz xonodon baxti va u yashaydigan joy atiristondir...

### *Sen gulsan*

Sen gulga qara-ya, tor joyda ham, keng joyda ham, atrofi chiroylikmi, xunukmi, uning yonida kulib turibdilarmi yo xo'mrayib, baribir, birday ifor tarqatib, yashnab turaveradi, chunki uning iqlimi shunday! Chunki u-gul! Shu senga ibrat bo'lgay! Qanday sharoit va qanday kayfiyatda bo'lishingdan qat'iy nazar, qiz bola oting borki, ayol zotisanki, zotingday bo'l - yashnab, g'uborsiz va muattar tur!

### *Qizbolalikning sharti jismonan poklikdir*

Inson guvoh yo'q joyda ham burchlarini halol ado etsagina, Allohning roziligidagi tuyassar bo'ladi, ya'ni niyatlariga yetadi. Qizbolalikning, ayollikning asosiy sharti jismonan poklikdir va yodingda bo'lsin:

Ertalabkidan ko'ra, tungi uyqudan oldingi yuvining mukammalroq bo'lsin.

Toza badanga toza kiyim kiy va toza choyshab yopin.

Ko'ylakni emas, ichki kiyimni ko'paytir va ularning kunduzgisi va tungisi alohida bo'lsin. Pastki ich kiyimni har tong va har tunda, albatta, tozasiga almashtir!

Yechgan ichki kiyimingni o'sha zahoti yuvib qo'y va birov ko'rmaydigan joyda qurit!

Umuman, kir to'plama, kir kiyimlar turgan sari o'zidan yomon bo'y chiqaradi. Va bu bad hid matolarning qat-qatiga singib qoladi. Bunday uyda yaxshi qiz yashamaydi.

Yaxshi qizning yuvmoqchi bo'lgan kiyimlaridan ham yoqimli is keladi.

Qizoyim, o'z bahoingni bil, sen qatiga shabnam qo'ngan gul kabi ohorliksan, har yer senga munosib emas, yuvinishdan avval vannalarni obdon tozala, sochiqlaring,sovun va boshqa yuvinish anjomlaring alohida bo'lsin.

Farida ismli dugonamdan bir ibrat o'rgangandim: u har kuni o'qishdan qaytgach, darhol ko'cha ko'ylagini qoqib-silkib tashqariga ilib qo'yar, qarabsizki, ko'ylak shabadada g'ubori ketib, musaffolanib qolardi...

O'z ta'bining ravshanligini o'ylagan va bundan o'zi yayragan odam haqiqiy pokiza odamdir.

## BIR BAXTING – SURATING!

*Milliylikni avloddan avlodga ayollar tashiydilar*

Har bir yurtning o'z tosh-torozusি, didи, orzu-is-takлari va ko'nikmalari bor. Mana shu o'ziga xoslikni biz milliylik deymiz va uni avloddan avlodga asosan ayollar tashiydilar, o'z farzandlarining ruhiga, yuragi-ga singdiradilar. Va buni omon qolgan milliy qadriyat deyiladi.

Sen razm solgin, dunyo xalqlari eng katta minbarlar-da, qaddini jahon ko'radigan joylarda, o'zining muborak kunlarida milliy tili, milliy kiyimlari va milliy madaniy meroslarini namoyish etib o'rtaga tushadi. Bu ularning "mening naslu nasabim bor, zotim, tarixim tayin" degan-laridir. Milliy g'urur shu, bolajon.

## *Qiz bolajonim!*

Dunyo – barhayot jaranglayotgan bir kuy, har millat uning bir pardasi. Dunyo – yashnab turgan anvoyi gul-dasta, millatlar uning betakror gullari! Dunyo – kama-lak, har millat uning bir rangi! Qizim, dilbandim, senga iltijoyim shu – tarxi toza naslimiz haqqi qasam ich va meni ishontir ki sen va sendan tarqalganlar shu elning asl bolasi bo'lasiz! Qay ohanggadir ergashib ketmaysiz, qay bir ranggadir singishib ketmaysiz, "dunyo" degan kuyning, "dunyo" degan guldasta, "dunyo" degan kama-lakning sof o'zbekcha pardasi, o'zbekcha guli, o'zbekcha rangi bo'lib yashaysiz, inshoollo!

## ***Qizim-jonsaragim!***

Bu borada sen eng ogoh va vafodor bo'lishingga yurakdan ishonaman va yana bir bor qulqlaringga aytib qo'yay:

Udda qilsang, o'nta tilni yodlagil bulbuldayin,  
 Avvalo o'z tilginangning xizmatin qil qudayin,  
 So'ylasang o'zbekchada, bo'ylar taratsin guldayin,  
 Nozik o'lzin qildayin izhor etarda dildagin,  
 O'zligingni avval uq, o'zbekkinamning bolas!

Shu she'rning yana bir joyida "do'ppilar armon bu kun, eh, beqasam to'nlar qani?" deya oh uribman! Ohlarim yetsin senga!

\*\*\*

Dunyoga kelib, boshi iroqi do'ppi ko'rmay o'tayotgan qiz o'zbekning bolasiman deydimi?

\*\*\*

Qiz bo'lib kamolga yetib, sochini biror marta mayda o'rdirmagan oyim ham o'zbeklikni da'vo qiladimi?

## ***Ilmsizlik qilib qo'yma!***

Sen kiyimlariga ixlos qo'ygan o'sha yevro'paliklar o'z yurtlarida bizning milliy liboslarmiz, osori atiqalari-mizdan ko'rgazmalar tuzib, sha'nimizga olqishlar aytayotgan bir paytda, oralaringda bu liboslarni kiyishga, taqishga uyaladigan, do'ppini, sochlarni qirq kokil o'rishni "eskicha", "o'tgan zamonning qoldig'i" deya burun jiyiradiganlar bor! Ayrim ilmsiz yoshlarning bu

gapini begonalar eshitib qolishidan mustarlik tortasan kishi. Qadriyatlarimiz, ulug' ajdodlarimiz nomini tiklash uchun yalpi urinib turgan paytimizda bu gaplar koni ilmsizlik bo'lmay nima? O'z millati qiyofasida ko'rinish, unga o'xshab kiyinishdan orlangan farzandning oti – xiyonat!

### ***Zuvolasi sharif oyim!***

Qani ayt-chi, hatto o'g'il bolalar kiyishga uyaladigan kalta mayka, tor-u tanqis shimplarda yurgan, o'zini "zamonaviy" atagan o'sha qizni havas qilib bo'ladimi? Har qanday yangilik insonga na'f keltirishi kerak! Ta-fakkurli odam tobora afzallashib borishi lozim. Xo'sh, tumonat xalqning ichida yarim yalang'och ketayotgan haligi qiz shu turishida nima demoqchi?

Ayonki, libos tanlashdan maqsad – atrofga ma'qul keliш. Sen bir gapimga ishonaver: agar beli ochiq, yelkasi ochiq, saqich chaynab, burnini osmonga qadab ketib borayotgan o'sha "zamonaviy" qiz-u risoladagiday ko'ylak, yaraqlagan iroqi do'ppi kiygan, uzun sochlarni ikkita yo mayda o'rib tashlab, ko'zlarini yerga tikib borayotgan "eskicha" qizni ko'rrikka qo'ysang, hamma oshiq do'ppilik qizning orqasidan ketishi aniq!

### ***Aziz bo'lish ilmi***

Butun dunyo erkaklari sharq ayollarini sal kam afsonaviy pari tarzida tasavvur etadilar. G'arbning manman degan shoirlari ham ularga dilbar misralar bag'ishlab o'tgani haqiqat. Turgan gapki, olamda chiroyi xushni oladigan go'zallar ko'p, ammo bizning qizlar bunday mashhurlikka, asosan, yuksak IZZAT-NAFSLARI, IBO-LARI bilan sazovor bo'lganlar. Milliy ko'ylaklar go'yoki

muborak parda, qadd-u qomatlarni yomon ko'zdan as-rab turadi. Qizlarimizning eng katta yutug'i siru malo-hatlarini yashirin tutishlarida!

Mahbuba o'zini va tuyg'usini qancha pinhon saqlasa, oshiq unga shuncha intilaveradi! Qizoyim, fahm etding-mi, jismu jonni libos atalgan parda ostiga olmoq bu-ilmi! Bu-o'z qadrini ko'tarish, aziz bo'lish ilmi! Momolardan qolgan ayollik ilmi!

### ***Sharmu hayo ham - ilm!***

Agarki insonlarni gunohlardan, xunukliklar sodir etishdan saqlayaptimi, uning ilmligi shu!

Masalan, sen ko'chaga kalta yubka va yelkalari ochiq mayka kiyib chiqding. Iymoni butun erkak bunday ko'rinishdagi qizga, nafaqqat unga, umuman hech bir ayolga sinchiklab qaramaydi. Ammo turfa dunyo bu, fe'llar ham past-u baland, zoti yengilroq kishi hamisha shaytonga qullikka shay turadi! Kimdir senga nafs ko'zi, behayo nigoh bilan qarab qo'yishi mumkin. Eng yomoni- senga g'ayri tikilib qo'yib uning gunohkor bo'lishi! Undan ham yomoni uning gunohkor bo'lishiga sen sababchi bo'lishingdir! Ikkalangizdan ham Haq rozi bo'limgay!

"Ha deb u dunyoni pesh qilib, qo'rqi tavermang" dey-digan bo'lsang, bu dunyoligini aytay: yaxshidan yaxshi, yomondan yomon nur, ya'ni elektron uzatiladi. Yomon-ning nigohi senga yuk bo'lib tushadi, ruhingni, vujudingni zaharlaydi: yo sog'ligingni yomonlashtiradi, yo ishingni ortga ketkazadi, hech bo'limganda, kayfiyatning lanj qiladi!

Xalqqa bepisand bo'lma. Xalqning norizoligi yomon, unga singmaydigan ishdan qo'rq. U senga "pardozingiz haddan oshib ketibdi yo kiyimingiz uyatl-ku" demay-

di. Ichida "e, attang!" deb qo'yadi, xolos. Mana shugina gap seni urib qo'yadi! Buni nazardan qolish deydilar! Nazardan qolgan odam o'lmay yuraveradi, ammo kun ko'rmaydi, bolajon!

### ***Pardoz haqida***

Har bir xalqning udumida qog'ozga yozilmaydigan ta'qiq va tavsiyalari bor. Bizda ham shu. Masalan, pardoz faqat kelin bo'lgandan boshlab buyuriladi. Qosh faqat kelin bo'lganda teriladi. Onalarimiz ham: "Qiz bolaning o'z husni o'ziga yetadi, mening ostonamda odmi yur. Esonomon bosh egangga topshirib olay, hamma yasan-tusaningni o'sha yerda qilaverasan!"- degan gapni tinxmay aytardilar. Va shu gapga bizni bo'ysundirardilar! O'ziga to'q xonadon qizlari ham turli-tuman kiyinavermas, qimmat matolarni-ku qiz bola zoti ustiga olmas edi. Hamma orzu-havas kelinlikka qoldirilardi.

Yoshligimizda ko'z tanish qizlarni birdan pardozu bashanglikda ko'rib qolsak, darrov "iye, to'yi bo'litti-da!" deya pichirlashardik. Kelinlik kumushdekkina qizlarni misli oltinday yaraqlatib yuborar, nazarimizda, kuyovning hovlisiga oddiygina bo'lib kirgan qiz u yerdan ertaklardagi pariga aylanib chiqardi! Bu bir mo'jiza edi! Tomlarga chiqib, daraxtlarga tirmashib, kelinchak bor hovliga mo'ralar, bahona topib kirib, kelin salom-lardan huzurlanardik! Kelinlik umrda bir keladigan orolanish fasli! Oylanish, quyoshlanish faslidir! Shuning uchun ham bahorni unga qiyos etadilar. Shuning uchun ham, unga ko'zi tushgan zahoti keksa-yu yoshning yuzi nurlanadi. Hatto qo'g'irchoq ko'targan qizaloqdan "katta bo'lsang, kim bo'lasan?" deb so'rasangiz, "kelinchak bo'laman!" deya javob beradi...

\*\*\*

Qizlarning ixlos qo'ygan "pardozi" o'sma qo'yish edi. Falonchinikida yaxshi uchadigan o'sma bor desa, narigi mahallalarga ham o'tib ketardik! Xayit-arafalarda zavq-u shavq bilan qo'llarimizga xina qo'yardik. Yuzimizga kechqurunlari qatiq surtib, tut pishig'ida tut bilan oqartirar, ammo hargiz upa-ellik ishlatmasdik. Surtgimiz keldi, lekin uyalardik. Talaba bo'lgach, beboslik qilib, qoidani ozgina buzdik, lekin o'shanda ham bilinmasin deb, oldin o'sma qo'yib, qalamni uning ustidan yurgizardik. Lab bo'yog'ini esa qo'limizga olmaganmiz! Qiz bola uchun lab bo'yash uyat ish hisoblangan. Nabodo, safimizda bitta-yarimta oshirib pardoz qiladigani chiqib qolsa, darhol uning sha'niga "kelin bo'lgisi kelibdi-da!" degan pisanda ilinardi. Bu juda og'ir gap edi! Yuragining tubida turgan kelinlikka yetish ilinjini sezdirib qo'yish qiz bola uchun juda uyatli edi, g'oyat uyatli edi!

## Xotima o'rnida

Aka-ukasi borning otasi o'lmaydi, opa-singlisi borning onasi tirik dedim. Bir qorindan tushgan jigarlar ning borligi – sening boyvachchaliging! Ayol zoti bino bo'libdiki, bir qo'lida farzandlarini, bir qo'lida jigalarini ko'tarib o'tadi. Qaynona-qaynotadan keyin qator qayin bo'yinlarni uylab-joylagan ulug' kennoyilar ham ancha-muncha. Insonchilik shundayki, yoshligida beparvo bo'lsa ham, ulg'aygach, albatta, o'zinikilarni izlab qoladi. Shuning uchun kelinlar boshidan xushyor tursinlar, toki erlari o'z jigarlaridan uzoqlashib ketmasin. Ular oxiri topishib oladilar, o'shanda uyalib qolganingizdan ko'ra, hayotingizning boshidan o'z qo'lingiz bilan ularni bog'lab turganingiz ming karra savoblidir.

Ota-onangdan yodgor qolgan jigaringning oltin boshini yuragingga bosib, uning nafasidan erib turishday baxt bormi dunyoda?! Ko'ksingdag'i yetimlikning yaralariga jigaringning ko'ksini malham qilib qo'yishday tirilish bormi dunyoda?!

Ogoh bo'laylik, shu baxt qo'limizdan uchib ketmasin, shu ne'mat kaftlarimizdan tushib ketmasin! Bu sazovorlikni bergen Allohga behad shukronalar aytaylik va uning rizoligi uchun ham bir-birimizni ehtiyoq qilaylik!

**MUNDARIJA**  
**OILA JAMIYAT TAYANCHI**  
**OTALIK MAS'ULIYATI**

Birinchi duo .....	5
Niyat qilishni bilish ham ibodat! .....	5
Bolang – dunyoning bo'lagi.....	6
Bolang ko'rib turibdi! .....	7
Avval o'zingni risolaga solmasang bo'lmaydi! .....	7
Nasihating qachon o'tmay qoladi?.....	8
Farzandli bo'lish aziyatli bo'lishdir .....	8
Farzandlaringga rahm qil .....	9
Agar millioner bo'lsang ham .....	10
Asosiy burching .....	10
Farzanding himoyaga yarasin! .....	11
Bilansanmi, yigitning sarasi kim? .....	11
Og'a-inilar bir-birini qachon suymay qoladi? .....	12
Ishing isitish bo'lsin .....	13
"Ota o'g'il bo'l" deymiz .....	13
Ko'ring va qo'rqing... .....	14
Orada rizolik bo'lsin.....	15
O'g'illarini nega "siz"laydilar? .....	16
Oriyatdan ayrilgan inson emas! .....	16
Shirin dushmanlaring .....	19
Atrof o'quvxona.....	19

## ONA – BUYUK MURABBIY

Onaning yagona yumushi .....	21
Sochi jambalak paytidan boshlang .....	22
Qizlarga kitob bering .....	22
Bahorday bolalar beradi .....	22
Ta’bi nozik bo’lsin .....	23
Nigohlari xunuklikni ko’rmasin .....	23
Kayfiyati bilan hisoblapping .....	23
Bolalarning har bir to’g’ri ishini payqaylik .....	24
Bolalar aslimizni tashiydilar .....	24
Yuklik qizim! .....	25
Nozik davr .....	25
Hech kimni yomon ko’rma .....	26
Agar birovni qarg’asang .....	26
Ko’zda yig’i bilan bola emizma! .....	26
Bilgin: .....	27
Nega sut qochadi? .....	27
Qaynona oyim va kuyov yigit! .....	28

## QAYNONA HAM ONA KABIDIR

Biz bog’bonmiz .....	29
Allohning oldiga qay yuz bilan boramiz? .....	30
Toki qiz boqqanning ohiga qolmang .....	30
Ishora kattadan boshlanadi .....	32
Kelinning uzr so’rab turishi go’zal .....	33
Yutug’ini topganingiz sari .....	33
Ekkaningizni olasiz .....	34
Kim kelinini yomonlaydi? .....	34
Otasining ishini takrorlab qo’ymasin! .....	35

Kelin xizmatkormi? .....	35
Kelinning o'rniga qizingizni qo'ying.....	36
Bu ona sha'ni uchun sharmandalik!.....	36
O'zingizni fosh etdingiz .....	36
O'zingiz qanday kelin bo'lgansiz? .....	37
"Tug'iladigan qiz bolaning to'lg'og'i ham achchiq bo'ladi" .....	38
Musulmonchilik asta-sekin .....	39
Kelin sizning maktabingizda o'qiydi .....	39
Kelin – bolangiz! .....	40
Dilozor kofir qavmidadir .....	40
Qizini sizga egib beradi .....	40
Ayolning yaxshi-yomonligi qachon bilinadi? .....	40
Kelinlarga albatta ishimiz tushadi .....	40
Ota-onasi borlar ko'proq siqiladilar.....	40
O'g'lingizga yomonlamang .....	41
O'g'lingizning boshi baland bo'lsin.....	41
Chirog'ingizni yoquvchi ular .....	41
Bolalarim sochilib ketmasin desangiz .....	41
Qaynona odil bo'lmasa .....	41
Kimga qiz berish kerak? .....	42
Qaynona iqlim yaratuvchi .....	42
O'zingizni o'zgartiring .....	42
Ko'rgan kunlaringizni bir eslang .....	42
Kelinning ham joni shirin .....	43
Yutqizgan qiz tomon .....	44
Uyalganidan yaxshi bo'lib ketsin .....	45
O'g'limiz kuyov bo'ldi .....	45
Necha yil yashaysiz? .....	45

Eng nozik ustozlik.....	46
Onamdan keyingi onam .....	47
Ishi bitayotgan odam siz-ku! .....	48
Gunohingizni oshirmang!.....	48
Birovning asraganini ayang.....	49
Allohdan hyech kim qochib qutulolmaydi! .....	50

## KELIN BO'LISH SAODATI

Kelin oyim!.....	52
Nega kelin tushdilarda karnay chalinadi?.....	52
Nega kelinchakni ko'tarib oladilar? .....	53
Kelin oyim!.....	55
Tilingizdan ketgan xiyonat.....	57
Juftingiz manqurtga aylanib qolmasin.....	58
Siz erkagingizga og'a-inisini hyech qachon yomon demagansiz.....	59
Ayol zargardir .....	60
Nomingiz topishtiruvchi bo'lsin .....	61
Bizning sharqona odobimiz.....	63
Avvalo, ayolning ta'bi pok bo'lsin!.....	64
Behafsala ayol – eng xunuk ayol!.....	66
Ortiqcha mehr ko'rsatish xorlik keltiradi.....	67
Erkakka hamisha rag'bat kerak .....	68
Erni er qilish mashaqqati .....	69
Agar jahlingiz chiqsa ... .....	70
Dilozor bo'lmaning .....	72
Ko'r pachasidan ma'lum bo'ladi.....	72
Onasini eslatib turing .....	72

## KUYOVGA MASLAHATLAR

Eng uyatli ish.....	74
Kuyovlik ham qarzdorlikdir .....	75
Kuyovlikka yarashiqli bo'l! .....	75
Kuyov bo'lish qatorga kirish demakdir.....	76
Ayolingni asray bil .....	76
Har bir harakating hisob-kitobda, ko'zingni och, o'g'lonim!	77
Juftlik mas'uliyati .....	79
Senga yuz foiz mos keladigan juft yo'q .....	79
Chol bo'lguningcha "sevaman" dema!	80
O'zingni sharmanda qilma!	81
Tilu qo'lingning egasi bo'l!	82
Yigitchilik bu labzdir!	82
Ori yo'q erkakning o'zi ham yo'q hisobda!	83
Ayolni asragan avlodni asraydi .....	84
Gap yana ORIYAT haqida.....	84
Farzandlaring unadigan zamin .....	85
Eng beobro' erkak.....	86
Chegarangni bil!	86
Eng baxtsiz ayol .....	86
To'ydan keyinoq bong ur!	87
Mushukka aylanib qolma!	88
Xarom qadam.....	88
Alloh buyurgan vazifang .....	89
Ro'zg'orda rahbar ekanliging doim esingda tursin.	90
Men shunday kunlarni orzu qilaman:	91
Ayolingdan qarzing tugamaydi .....	92
Avval oila!	92

Minnat qirg'indir!	93
Hozirdan o'zingni keksalikka tayyorla!	94

## OGA-INILARGA AYTAR SO'ZLARIM

So'z boshi o'rnida .....	96
Yolg'iz farzandlardan so'rang.....	98
Aslida ayollar "zaifa" emas.....	98
Erkak atalgan kelbat emas, erkak atalgan mazmun birlamchi! .....	100
O'qib, ulg'ayib topganingiz xudbinlik bo'ldi!.....	101
Og'a-iningizdan qachon uzoqlashganingizni bilasizmi? ...	103
Go'l aka .....	106
Endi uka xususida.....	107
Ovsinchilik bor joyda xatar bor! .....	108
Jigaringizning jonida ota-onangiz yashaydi.....	111
Meros talashish ota-onaga xiyonatdir.....	112
Birov faqat beruvchi birov faqat oluvchi bo'lib qolmasin! 112	
Dadamning yo'qlovlar.....	113
Bunday jigarning boridan yo'g'i yaxshi! .....	114
Avlodining begonalar tozalab bersinmi? .....	116
Ota-onadan keyin .....	117
Bosh bo'lgan bolaning nazari to'q bo'lishi kerak!.....	117
Jigarlarni bir-biriga isitish ham san'at!.....	118
Bandasidan hargiz so'ranma! .....	119
Savobdan mahrum bo'lma!.....	119
Gina kulfat keltiradi .....	120
Zanjirlar uzilmasin!.....	122
Qudachilikdan qo'rqing!.....	123

## **QIZIM, DILBANDIM!**

MO'JIZA ZOT.....	125
Ayol kim? .....	126
Mo'tabar oyim! .....	127
Seni gulga mengzadilar .....	128
Sen gulsan .....	128
Qizbolalikning sharti jismonan poklikdir.....	128

## **BIR BAXTING - SURATING!**

Milliylikni avloddan avlodga ayollar tashiydilar .....	130
Qiz bolajonim! .....	130
Qizim-jonsaragim! .....	131
Ilmsizlik qilib qo'yma!.....	131
Zuvolasi sharif oyim! .....	132
Aziz bo'lish ilmi.....	132
Sharmu hayo ham - ilm! .....	133
Pardoz haqida.....	134
Xotima o'rvida .....	136

*Adabiy-badiiy nashr*

**Tursunoy Sodiqova**

# OILA ILMI

Muharrir

*Axtam Ro'zimurodov*

Badiiy muharrir va

*Dilmurod Jalilov*

texnik muharrir

*Madina Abdullayeva*

Sahifalovchi

*Rayxon Ibragimova*

Musahhih

Nashriyot litsenziyası AI № 315. 24.11.2017.

2018 yil 16 avgustda bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1/32, Times New Roman garniturası.

Ofset bosma. 9,0 shartli bosma toboq. 8,76 nashr tobog'i.

Adadi 10000 nusxa. 888 raqamli buyurtma.

Bahosi shartnoma asosida

Yoshlar nashriyot uyi. Shayxontohur tumani,  
Navoiy ko'chasi, 11-uy.

"BUSINESS PRINT PLUS" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahar Chilonzor tumani

Sugalli ota 5 uy